

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

**SINDAROV OBIDJON XOLDAROVICH**

**“MEVACHILIK VA SABZAVOTCHILIK”**

**(1-qism)**

**DARSLIK**

**Ushbu darslik 60811300 – Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va  
dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) bakalavriat  
ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar  
uchun mo'ljallangan**



**Toshkent-2024**

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining «09» dekabr 2023-yildagi 374 a/f-sonli buyrug'iiga asosan chop etishga tavsiya qilingan.

**Ro'yxatga olish raqami: 374 a/f-123**  
**UO'T: 28.581:55.57**

**Tuzuvchi: O.X.Sindarov, q.x.f.n., katta o'qituvchi**

Ushbu darslik talabalarining amaliy mashg'ulot ishlarni mustaqil bajarishlarini ta'minlash, talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi nizomi asosida yuritish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, 60811300 – “Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishslash texnologiyasi” bakalavriatura ta'lif yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

© “TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO’JALIGINI  
MEXANIZATSİYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”  
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

**ANNOTATSIYA**

Ushbu darslik bakalavriat ta’lim yo’nalishining 60811300 – Qishloq xo’jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo’yicha) ta’lim yo’nalishlari Davlat ta’lim standartida tasdiqlangan soatlar hajmida talabalarga mevachilikning halq xo’jalikdagi ahamiyati, tarixi, mevachilikning dunyodagi ahvoli, morfo-biologik tuzilishi, navlarning tasnifi va yetishtirish agrotexnologiyasi oid asosiy qonunyatları haqida hozirgi zamon tushunchalarini berishga oid ma’lumotlar berilgan. O’quv qo’llanma oliy o’quv yurtlarida bakalavrلarga qo’yiladigan talablarni nazarda tutgan holda tayyorlangan. Mavzular tarkibi va mohiyati oliy o’quv yurtlarida bakalavrлar bilim darajasini baholashga qo’yiladigan talablarga mos keladi.

**Taqrizchilar:**

**K.I.Baymetov** – O’simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti O’simliklar sistematikasi bo’limi mudiri, q.x.f.d., professor.

**X.M.Xasanov** – O’simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti Meva-rezavor ekinlari va uzum genafodi bo’limi mudiri, katta ilmiy xodim.

**K.D.Astanaqulov** – “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti “Qishloq xo’jalik mashinalari” kafedrasи mudiri, t.f.d., professor.

## **АННОТАЦИЯ**

Настоящий учебник представляет собой образовательный курс бакалавриата 60811300 – Технология хранения и предварительной обработки сельскохозяйственной продукции (по видам продукции) в количестве часов, утвержденном Государственным образовательным стандартом, и информацию о современном состоянии овощеводства в мире, даны морфо-биологический состав, классификация сортов и основные законы агротехники возделывания. Учебное пособие подготовлено с учетом требований к бакалаврам высших учебных заведений. Состав и сущность предметов соответствуют требованиям к оценке уровня знаний бакалавров в высших учебных заведениях.

### **Рецензенты:**

**К.И.Байметов** – заведующий отделом Систематики растений НИИ генетических ресурсов растений, д.с.х.н., профессор.

**Х.М.Хасанов** – заведующий отделом Плодово-ягодные культуры и генеалогия винограда НИИ генетических ресурсов растений, старший научный сотрудник.

**К.Д.Астанакулов** – заведующий кафедрой «Сельскохозяйственная техника» Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства», д.т.н., профессор.

## RESUME

This textbook is an educational undergraduate course 60811300 – Technology of storage and pre-processing of agricultural products (by type of product) in the number of hours approved by the State Educational Standard, and information on the current state of vegetable growing in the world, given the morpho- biological composition, classification of varieties and the basic laws of agricultural cultivation. The textbook has been prepared taking into account the requirements for bachelors of higher educational institutions. The composition and essence of the subjects meet the requirements for assessing the level of knowledge of bachelors in higher educational institutions.

### **Reviewers:**

**K.I. Baymetov** – head of the Department of Plant Systematics, Research Institute of Plant Genetic Resources, Doctor of Science, professor.

**Kh.M.Khasanov** – head of the department “Fruit and berry crops and grape genealogy” of the Research Institute of Plant Genetic Resources, senior researcher.

**K.D.Astanaqulov** – head of the department of “Agricultural Technology” of the National Research University “Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers”, Doctor of Technical Sciences, professor.

## MUNDARIJA

### 1-QISM. MEVACHILIK

#### KIRISH

---

##### I-BOB    MEVACHILIKNING QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHNING BIR TARMOG'I VA FAN SIFATIDAGI ROLI

---

- §1.1. Mevachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati
  - §1.2. Dunyo mevachiligining qisqacha tarixi, hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari
  - §1.3. O'zbekiston mevachiligining qisqacha tarixi, hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari
  - §1.4. Intensiv bog'larda meva yetishtirishning samaradorligi
  - §1.5. O'zbekiston mintaqalarida tarqalgan mevali o'simliklar va ularning qisqacha tavsifi
- 

##### II-BOB.    MEVALI    VA    REZAVOR    MEVALI O'SIMLIKLARNING    KELIB    CHIQISH MARKAZLARI, BOTANIK TARKIBI VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI, ULARINING MAHALLIY VA XORIJDAN KELTIRILGAN NAVLARI

---

- §2.1. Mevali ekinlarning kelib chiqishi, botanik ta'rifi va biologik xususiyatlari
  - §2.2. Mevali va rezavor mevali o'simliklarning o'sib-rivojlanishi
  - §2.3. Mevali o'simliklarning individual o'sib-rivojlanishi
  - §2.4. Mevali va rezavor mevali o'simliklarning morfologik tuzilishi
  - §2.5. Mevali o'simliklarning yer ustki qismlari
  - §2.6. Barg va uning fiziologik xususiyatlari
  - §2.7. Xloroplastlar va uning fiziologik xususiyatlari
  - §2.8. Yorug'likda boradigan reaksiyalar
  - §2.9. Gul va mevaning morfo-biologik xususiyatlari
  - §2.10. Mevali va rezavor mevali o'simliklarning hosilga kirishi
  - §2.11. Mevalarning anatomik biokimyosi
- 

##### III-BOB    MEVALI EKLARNING GURUHLANISHI VA ULARNING VAKILLARINING XUSUSIYATLARI

---

- §3.1. Urug'li mevalilar va ularning vakillari
  - §3.2. Olma navlari va ularning tavsifi
  - §3.3. Nok navlari va ularning tavsifi
  - §3.4. Mahalliy va xorijiy behi navlari va ularning tavsifi
-

§3.5.	<b>Danak mevalilar va ularning vakillari</b>
§3.6.	O'rik tavsifi va ularning navlari
§3.7.	Shaftoli tavsifi va ularning navlari
§3.8.	Olxo'ri tavsifi va ularning navlari
§3.9.	Tog'olcha tavsifi va ularning navlari
§3.10.	Amarelle olcha turlari
§3.11.	Shirin gilos tavsifi va ularning navlari
§3.12.	<b>Yong'oq mevalilar va ularning vakillari</b>
§3.13.	Yong'oq tavsifi va ularning navlari
§3.14.	Pekan yong'oq tavsifi va ularning navlari
§3.15.	Pista tavsifi va ularning navlari
§3.16.	Bodom tavsifi va ularning navlari
§3.17.	<b>Sitrus mevalilar va ularning vakillari</b>
§3.18.	Banan tavsifi va ularning navlari
§3.19.	Apelsin tavsifi va ularning navlari
§3.20.	Mandarin tavsifi va ularning navlari
§3.21.	Kivi tavsifi va ularning navlari
§3.22.	Limon tavsifi va ularning navlari
§3.23.	<b>Subtropik mevalilar va ularning vakillari</b>
§3.24.	Anor tavsifi va ularning navlari
§3.25.	Anjir tavsifi va ularning navlari
§3.26.	Xurmo tavsifi va ularning navlari
§3.27.	<b>Rezavor mevalilar va ularning vakillari</b>
§3.28.	Qulupnay tavsifi va ularning navlari
§3.29.	Janubiy Koreya qulupnay navlari va ularning xususiyatlari
§3.30.	Malina tavsifi va ularning navlari
§3.31.	Qorag'at tavsifi va ularning navlari
§3.32.	Uzum tavsifi va ularning navlari
§3.33.	Xo'raki uzum navlari
§3.34.	Mayizbop uzum navlari
§3.35.	Sharobbop uzum navlari

**IV-BOB    MEVALI    VA    REZAVOR    MEVALI  
                  O'SIMLIKLARNING                    TASHQI    MUHIT  
                  OMILLARIGA TALABI**

§4.1.	Meva va rezavor meva o'simliklarining tuproqga talabi
§4.2.	Meva va rezavor meva o'simliklarining yorug'likga talabi

	§4.3.	Meva va rezavor meva o'simliklarining issiqlikga talabi
	§4.4.	Meva va rezavor meva o'simliklarining namlikga talabi
	§4.5.	Meva va rezavor meva o'simliklarining oziqa elementlariga talabi
<b>V-BOB</b>	<b>QURG'OQCHILIKGA CHIDAMLI MEVALI VA REZAVOR MEVALI O'SIMLIKLARNI KO'PAYTIRISHNING BIOLOGIK ASOSLARI VA KO'CHAT YETISHTIRISH</b>	
	§5.1.	Ildiz va nav tanlashning genetik xususiyati
	§5.2.	Gul va mevalarni kamaytirish
	§5.3.	Bog'larda issiqlikni qaytaruvchi to'rlar va tuproqning yuza qismini mulchalashning ahamiyati
	§5.4.	<b>Mevali va rezavor mevali o'simliklarni jinsiy (urug'dan) va jinssiz (vegetativ) yo'l bilan ko'paytirish</b>
	§5.5.	<b>Payvand qilish tartibi va usullari</b>
<b>VI-BOB</b>	<b>INTENSIV MEVALI BOG' BARPO QILISH, KO'CHATLARNI O'TQAZISH VA DARAXTLARNI PARVARISHLASH TEXNOLOGIYALARI</b>	
	§6.1.	Intensiv yetishtirishga ta'sir qiluvchi omillar
	§6.2.	Meva va rezavor meva ekinlari ko'chatni tanlash
	§6.3.	Meva va rezavor meva ekinlarini ekish usuli
	§6.4.	Meva va rezavor meva ekinlari navni talash
	§6.5.	Bog' barpo qilish uchun joy tanlash
	§6.6.	Yerni ekishga tayyorlash
	§6.7.	Ko'chat o'tqazish
	§6.8.	Intensiv mevali daraxtlarning payvarishlashdagi xususiyatlar
<b>VII-BOB</b>	<b>BOG' QATOR ORALARIGA ISHLOV BERISH TIZIMI VA ULARNING AGROTEXNOLOGIYALARI</b>	
	§7.1.	Intensiv mevali ekinlarni parvarish qilishda changlanish va meva hosil qilishdagi tartiblar
	§7.2.	Sug'orish tartibi va tizimi
	§7.3.	O'g'itlash muddati, usullari va ularning tanqisligidagi oqibatlar
<b>VIII-BOB</b>	<b>MEVALI DARAXTLARGA SHAKL BERISH VA KESISH</b>	
	§8.1.	Kesish va uning turlari

- 
- §8.2. Birinchi yilda daraxt shoxlarini shakllantirish tartibi
- §8.3. Yarussiz markaziy lider shox (urchiqsimon, shpindelbush) usuli
- 

- §8.4. Ko'p liderli tarbiyalash usullari
- 

**IX-BOB INTENSIV USULDA MEVA VA AN'ANAVIY USULDA REZAVOR MEVA YETISHTIRISH AGROTEXNOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI**

---

- §9.1. Pakana bo'yli olma mevali daraxtlarni o'stirish texnologiyasi
- 
- §9.2. Intensiv mevali bog'larda gilos navlarini yetishtirish
- 
- §9.3. Intensiv mevali bog'da nok navlarini yetishtirish
- 
- §9.4. Intensiv meva bog'ida shaftoli navlarini yetishtirish
- 
- §9.5. Rezavor mevali ekinlarni an'anaviy parvarishlash agrotexnikasi
- 

- §9.6. Qulupnay etishtirish agrotexnikasi
- 

**§9.7. Malina etishtirish agrotexnikasi**

---

**§9.8. Smorodina etishtirish agrotexnikasi**

---

**X-BOB TOG'LI YERLARDA MEVACHILIK**

---

- §10.1. Yong'oq etishtirish agrotexnikasi
- 
- §10.2. Bodom etishtirish agrotexnikasi
- 
- §10.3. Pista etishtirish agrotexnikasi
- 
- §10.4. Pekan etishtirish agrotexnikasi
- 
- §10.5. Unabi etishtirish agrotexnikasi
- 

**XI-BOB TOK KO'CHATINI YETISHIRISH VA TOKZOR BARPO QILISH**

---

- §11.1. Tokning yillik rivojlanish fazalari va tinim davri
- 
- §11.2. Tokning tashqi muhit omillariga talabi
- 
- §11.3. Toklarni kesish muddatlari, texnikasi va usullari
- 
- §11.4. Tok kasalliklari va zararkunandalariga qarshi kurashish
- 
- §11.5. Tokda ozuqa moddalar yetishmasligi
- 
- §11.6. Mayiz taylorlash usuli va tartibi
- 

**2-QISM. MEVA VA REZAVOR MEVALARNING XUSUSIYATLARINI O'RGANISH**

---

1-amaliy mashg'ulot. Meva va rezavor meva o'simliklarini biologik – xo'jalik guruhlarga ajratish

---

2-amaliy mashg'ulot. Mevalarning fermentativ qorayishi va hayotiy siklik o'zgarishi o'rganish

---

3-amaliy mashg'ulot. Mevalarning qattiqlik darajasi va ularning shakarlilik darajasini o'rghanish

4-amaliy mashg'ulot. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish tartibini o'rghanish

5-amaliy mashg'ulot. Mevalarni qatoqlash va saqlash tartibini o'rghanish

## **GLOSSARIY**

## **NAZORAT SAVOLLARI**

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

## **KIRISH**

XXI asrda butun dunyoda insoniyat sivilizatsiyasida ajoyib o'zgarishlar kuzatilmoqda. Odamlar turli qulayliklarga ega katta shaharlarda yashashni afzal ko'rishmoqda. Bunday sharoitda shaharlar atrofidagi yerlar asosan tijorat maqsadlarida foydalaniadi hamda yirik savdo markazlari, uy-joy qurilishlari, yo'llar, kichik va yirik sanoat korxonalari barpo etiladi. Aholining shaharlarga ko'chishining tendensiyasi qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning qisqarishi, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lган talabning ortishi va to'yib ovqatlanmaslik kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Urbanizatsiya muammolariga qo'shimcha ravishda, aholi nufusining ortishi, oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligi va iqlim o'zgarishlari asrimizning global tashvishlariga aylanmoqda.

Dunyo aholisi jadal sur'atda o'sib bormoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, 2050-yilga borib 9,6 milliarddan ortishi mumkin<sup>1</sup>. Kelajakda odamlarning oziq-ovqatga bo'lган ehtiyojini qondirish uchun qishloq xo'jalik mahsulorligini oshirish uchun bosim paydo bo'ladi. Shu bilan birga, suv va yer resurslariga bo'lган talab sezilarli darajada ortadi.

Ona sayyoramiz iqlimi o'zgarib, haroratning doimiy ortishi kuzatilmoqda. Bunday sharoitda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning 10 foizi dehqonchilik uchun yaroqsiz holga kelishi mumkin. Iqlim o'zgarishlari tufayli ob-havoning o'zgaruvchanligi oziq-ovqat ishlab chiqarish va tarqatish tizimlariga

<sup>1</sup> UN—United Nations. UN Press Release.

2013. [http://esa.un.org/wpp/Documentation/pdf/WPP2012\\_Press\\_Release.pdf](http://esa.un.org/wpp/Documentation/pdf/WPP2012_Press_Release.pdf)

tahdid solmoqda va butun jahon bo'ylab ko'plab odamlar ochlik va to'yib ovqatlanmaslikdan aziyat chekmoqda. Bu ssenariy dunyoning rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarida bir-biridan farq qiladi. Bundan tashqari, o'g'itlar, pestitsidlarni muvozanatsiz qo'llash, noto'g'ri dehqonchilik amaliyoti va og'ir texnikalardan foydalanish kabi bir qator antropogen omillar tuproqning degradatsiyasiga va unumdar yerlarning kamayishiga olib kelmoqda.

Kambag'allikdan tashqari, shaharlarga ko'chishning ortishi, resurslarning yetishmasligi, tabiiy ofatlar va turli mojarolar oziq-ovqat xavfsizligining asosiy cheklovlaridir. Shuningdek, unumdar yerlarning kamayishi, qishloq xo'jalik mahsulotlari bozor narxlarining yuqoriligi ham oziq-ovqat ta'minotini cheklaydi.

Keyingi yillarda iqlim o'zgarishlari va barqaror oziq-ovqat ta'minoti istagi tufayli qishloq xo'jaligiga qiziqish yanada ortdi. Shahar bog'dorchiligi global miqyosda oziq-ovqat xavfsizligini keltirib chiqargan COVID-19 pandemiyasi paytida o'z ahamiyatini yanada oshirdi. Shu bilan bir qatorda, butun dunyoda qashshoqlik darajasi, to'yib ovqatlanmaslik va aholi nufusining ko'payishi shahar bog'dorchiliginи rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Odamlarning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun shaharlardagi bo'sh joylardan unumli foydalanish maqsadida manzarali daraxtlarning o'rнига, mevali daraxtlarni ekish bo'yicha Janubiy Koreya, Yaponiya, Isroil kabi rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda mevali daraxtlarni landshaft sifatida ekish muhim ahamiyatga ega. Bu o'z navbatida oziq-ovqat yetishmasligi va yerdan unumli foydalanish, shahar ekologik yo'qotishlarining o'rmini qoplashga xizmat qiladi. Shahar landshaftlarida va ochiq joylarda bog'dorchilik oziq-ovqat ekinlarini yetishtirish oziq-ovqat va atrof-muhitning barqarorligini yaxshilaydi. Shuningdek, shahar bog'dorchiligi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yumshatishning bir usuli hisoblanadi (1-rasm).




### 1-rasm. Mevachilik fanining asosiy yo'nalishlari

Ma'lumki, kishilarning moddiy faravonligi o'sishi bilan birga ularning ho'l va quruq mevalarga bo'lgan ehtiyoji ham tobora ortib boradi. Chunki ular inson salomatligi uchun zarur bo'lgan to'yimli, mazali va shifobaxsh ozuqadir.

Demak, mevachilikni muttasil rivojlantirish va aholini yil davomida turli mevalar bilan ta'minlab turish muhim ahamiyatga ega. Bunga yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga mevazor bog'lar maydonini kengaytirish hamda hosildorlikni oshirib borish bilan erishish mumkin.

Amerikada bog'dorchilik mevalar, sabzavotlar, gullar va manzaralni o'simliklarni yetishtirish hamda ulardan foydalanish dehqonchilikning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Qolaversa, san'at (daraxtlarga shakl berish) va ilm-fan sifatida aholining hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shahar bog'dorchiligi, o'z navbatida, meva yetishtirish salmog'ining ortishiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan qaraganda, bog'dorchilik har yili o'rtacha 2,4 milliard tonnadan ortiq mahsulot yetishtiriladigan, bog'bonlar, yetkazib berish va qiymat zanjirining boshqa ishtirokchilariga doimiy ish va 17 milliard AQSH dollari daromad keltiradigan sohadir (2-rasm).



**2-rasm. Meva va rezavor mevalarning tarmoqlar bo'yicha shakllanishi**

Har bir ta'minot va qiymat zanjiri mahsulotlarning oqimiga ta'sir ko'rsatadi. Bu o'z navbatida meva va rezavor mevalarni yetishtirish salmog'ini oshiradi va tannarxini pasaytirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, oziq-ovqat ta'minoti yoki qiymat zanjiri samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.



**3-rasm. Oziqa zanjirining bo'g'inlari**

Keng doirada bog'dorchilik manfaatdor tomonlar bilan bevosita bog'liqdir. Chunki bog'dorchilikda o'tkaziladigan agrotexnika tadbirlari mavsumiy ish bo'lib bu bevosita bandlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bunda turli soha xizmatchilari ushbu tadbirlarda ishtirok etishi ularga estetik, sotsiologik va psixologik foyda keltiradi (3-rasm).

Dunyo aholisi nufusining ko'payishi bog'dorchilik mahsulotlariga bo'lган ehtiyojning ortishiga olib keladi. Bu vertikal integratsiyalashgan keng ko'lamlı ishlab chiqarish sur'atiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ishlab chiqarish bilan global talabni izchil qondirishga qodir bo'lган yagona tizimi yaratishni taqozo etadi. Bu

o’z navbatida qo’l mehnatini kamaytirib, mashina-mexanizmlar va robototexnikalardan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Shunga qaramay, iste’mol talabidagi o’zgarishlar kichik bog’ egalari foydasi ortishiga sharoit yaratadi. Har bir iste’molchi xilma-xil meva mahsulotlarini mahalliy bozor taklifidan kelib chiqqan holda sotib oladi. Bunda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchining xarajatlaridan kelib chiqqan holda muayyan narx shakllanadi. Bu narx yillar bo'yicha o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Bu bevosita tabiiy iqlim sharoiti va yetishtirish atrotexnologiyalariga sarflanadigan xarajatlar hisobidan kelib chiqadi. Mahalliy bozorda mevaning kam-ko'pligiga qarab belgilanadigan narx ham turlicha bo'lishi mumkin. Bu yetishtiruvchi va xaridor o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqqan holda belgilanadi (4-rasm).

Bog'dorchilik sanoati oldida turgan dolzarb muammolar, hajmidan qat'iy nazar, urug'chilik, o'zgaruvchan ob-havo sharoitlari va iqlim, tuproq va o'g'itlarni boshqarish, turli kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish, energiya narxining oshishi va suv tanqisligi bilan bog'liq nomutanosibliklarni o'z ichiga oladi.



**4-rasm. Mevachilik fanining bo'limlari**

Mevachilik fan sifatida mevali daraxtlarning tuzilishi, o'sishi, ko'payishi hamda hosil berish qonuniyatlarini, ularning tashqi muhit bilan aloqasini o'rganadi. Bu bilimlar ularning turli tabiiy muhitda yashashi va yuqori hosil berishini ta'minlash uchun eng qulay sharoit yaratishga oid agrotexnika usullarini ishlab chiqarishga xizmat qiladi.


Mevachilik fanning boshqa sohalari – biologiya, tuproq fizikasi va kimyosi, o'simliklar fiziologiyasi, agrokimyo hamda umumiy dehqonchilik bilan bevosita bog'liqdir. Mevali daraxtlarni ekish va ularning parvarish qilish agrotexnikasi dehqonchilik usullariga asoslangan.

## **1-BOB. MEVACHILIKNING QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHNING BIR TARMOG'I VA FAN SIFATIDAGI ROLI**

### **§1.1. Mevachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati**

Bugungi kunda O'zbekiston dunyoning 100 dan ortiq davlatiga 180 turdag'i qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilmoqda. O'zbekiston meva-sabzavotlarini import qiluvchi beshta asosiy davlat Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Afg'oniston hisoblanadi. Bugungi kunda o'zbekistonlik eksportchilar Janubiy Koreya, Boltiqbo'y, Fors ko'rfazi, Yevropa mamlakatlari, xususan, Italiya, Fransiya va Buyuk Britaniyaga sarhil va quritilgan meva hamda yong'oq mahsulotlarini yetkazib berish hajmini oshirmoqda.

Meva va rezavor mevalar tarkibida inson organizmi uchun foydali bo'lган shakar, organik kislotalar, oqsillar, moylar, mineral tuzlar, vitaminlar, fermentlar, kolloidlar, oshlovchi moddalar, pektin, aromatik va boshqa moddalar bor. Bundan tashqari, mevalarning juda mazali bo'lishi organizmning ovqatni tez hazm qilishiga yordam beradi. Mevalar tarkibi bir xil emas. Ularning aksariyati, pishib yetilgan vaqtida, uglevodlarga ayniqsa (asosan shakar) boy bo'ladi (5-rasm).



**5-rasm. Mevalarning kimyoviy tarkibi**

Meva va rezavor mevalardan konserva, povdilo, murabbo, marmelad, jele, kompot, sharbat, vino, spirtli ichimliklar va boshqa mahsulotlar tayyorланади. Shuningdek, qoqi (quritilgan meva) qilinadi (6-rasm). Qoqilarni mazasi va to'yimligiga deyarli zarar yetkazmasdan uzoq muddat asrash yoki olis masofalarga yuborish mumkin.

Mevadan tayyorlangan murabbo ham o'z shaklini saqlab qoladi, lekin u jeledan kamroq qattiqroqdir. Murabbo maydalangan yoki maydalangan mevalar va shakardan tayyorlanadi. Meva aralashmasidan tayyorlangan murabbolar odatda konservalar deb ataladi.

Odatda sitrus mevalari, yong'oqlar, mayizlar yoki hindiston yong'og'idan tayyorlangan konservalar mayda, butun mevalar yoki bir xil o'lchamdag'i mevalar bo'laklaridan shaffof, qalin, ozgina jelelangan siroplardan tayyorlanadi.

Baland bo'yli mevali daraxtlar (o'rik, yong'oq, nok va h.k.) shamolni, chang-to'znlarni to'sib qoladigan yaxshi to'siq hisoblanadi. Shuning uchun ham keyingi yillarda mamlakatimizning barcha hudadlarida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida turli mevali va manzarali ko'chatlar o'tqazilib, ihota daraxtzorlari ko'plab barpo etilib, o'rmonzorlar kengaytirilmoqda.

Mevali daraxtlarning deyarli barchasidan asal olinadi. Bundan tashqari, ko'pchilik mevali daraxtlardan mustahkam yog'och olish mumkin. Bu yog'ochlardan sifatli uy-ro'zg'or buyimlari, jumladan, mebellar, stol-stul, eshik va o'ymakorlik asosidagi darvozalar yasaladi.




**6-rasm. Quruq mevalar ko'rinishi**

Ayrim mevalarning urug'idan oziq-ovqat va texnika sanoatida ishlataladigan moylar olinadi. Mevalar po'chog'idan esa (yong'oqdan) tannin va qimmatli o'simlik bo'yoqlari (anordan) tayyorlash mumkin.

## **§1.2. Dunyo mevachiliginining qisqacha tarixi, hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari**

Markaziy Osiyo, Kavkazorti, Uzoq Sharq, Xitoy, Hindiston, Eron, O'rta yer dengizi sohillari ko'pgina mevali daraxtlarning vatani hisoblanadi. Vavilon va Suriyada eramizdan 3000 ming yil, Xitoyda 2000 yil, Hindistonda 1300 yil, Qirimda 700 yil, Gretsiyada 300–400 yil ilgari turli mevali ekinlar yetshirilganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, mevali daraxtlarning ko'pchilik turlari 4000 yildan ortiq, gilos, olcha, limon 2000 yildan ortiq, apelsin va rezavor mevalar 2000 yilga yaqin vaqtadan buyon ekib kelinmoqda (7-rasm).



**7-rasm. Dunyo bo'yicha 1990–2021 yillarda meva yetishtirish miqdori, million metrik tonna**

8-rasmida 2020-yilda dunyoda meva yetishtirish bo'yicha top 10 talik mamlakatlar ro'yxati keltirilgan. Dunyo bo'yicha meva etishtirish bo'yicha Xitoy, Hindiston, Braziliya davlatlari etakchidir. Daromadi past mamlakatlarda kichik fermerlarni iqtisodiy jihatdan qo'llab quvvatlash maqsadida meva va sabzavotlar ishlab chiqarishga yo'naltirish talab etiladi.

Rivojlangan davlatlar tajribalariga ko'ra, bu iqtisodiy ko'mak endi rivojlanish bosqichidagi fermer uchun ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqaror yo'llar bilan ko'paytirish imkoniyatlarini kengaytirishni ta'minlab beradi.

Agar qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanish maqsadlariga erishmoqchi bo'lsak, meva va sabzavot ekinlarini etishtirishning samarali va iqtisodiy jihatdan tuproq-iqlim sharoitida kelib chiqqan holda ularning agrotexnologiyalarini ishlab chiqish talab etiladi.

Bu o’z navbatida mahalliy, milliy va xalqaro miqyosda mavjud bo’lgan ajoyib meva va sabzavotlar xilma-xilligi bilan qo’llab-quvvatlanadi. Fermerlar nima, qachon va qayerda etishtirishni hal qilishda turli xil variantlarga ega.

Ular atrof-muhitga, zararkunandalar va kasalliklarga, yil fasllariga, iqlim o’zgarishiga va bozor talablariga moslashtirilgan turli xil ekin ekish tizimini tanlashlari mumkin.

Agrobiznes, biznes sifatida qaraladigan qishloq xo’jaligi bo’lib, aniqrog’i, zamonaviy milliy iqtisodiyotning oziq-ovqat va tolali mahsulotlar va qo’shimcha mahsulotlarni ishlab chiqarish, qayta ishlash va tarqatishga bag’ishlangan qismidir.

Yuqori sanoati rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo’jaligi uchun zarur bo’lgan ko’plab faoliyatlariga alohida e’tibor berishadi. Bularga asbob-uskunalar, o’g’itlar va urug’larni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga qaratilgan. Ayrim mamlakatlarda mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash, saqlash va yetkazib berish ham asosiy dehqonchilikdan ajratilgan.



**8-rasm. Davlatlar kesimida meva yetishtirish imkoniyatlari**

Binobarin, dehqonchilikning o’zi ham borgan sari ixtisoslashgan va beznes tarmog’iga aylanib bo’ldi. Ba’zi biznes firmalari hatto o’z uzumzorlarini boshqaradigan vino zavodi yoki o’z fermer xo’jaligini yuritadigan tez muzlatilgan yoki konservalangan sabzavotlarning yirik tijorat ishlab chiqaruvchisi kabi ekinlarni yetishtirishadi. Bu xo’jaliklarning ko’pchiligidagi ishlab chiqarishni ko’paytirish uchun keng mexanizatsiya va kompyuter texnologiyalaridan foydalaniildi.

So’nggi yillarda qishloq xo’jaligidan tashqari biznes bilan


shug'ullanadigan konglomerat kompaniyalari yirik fermer xo'jaliklarini sotib olish va ularni boshqarish orqali agrobiznesga kirishdi. Fermer xo'jaliklari bilan shug'ullanadigan ba'zi oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlovchi firmalar o'z brendlari ostida yangi mahsulotlarni sotishni boshladilar.

Global ko'rsatkich va prognozlar kelajakdagi global oziq-ovqat xavfsizligini baholashda qo'llanalida. Bu yerda 2050-yilgacha bo'lган davrda global oziq-ovqat xavfsizliklarini prognozlash va baholash bo'yicha tizimli metatahlil o'tkazish nazarda tutilgan.

Oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha yangi global prognozlar va miqdoriy ssenariyi tadqiqotlarini taqqoslash orqali oziq-ovqat kelajagi bo'yicha siyosat tahlili va jamoatchilikni xabardor qilishda foydalanish mumkin.

Barqaror rivojlanish maqsadlaridan biri bo'lган global ochlikni qanday yo'q qilish va kelajak dunyo aholisini oziqlantirish masalasi katta global ijtimoiy muammodir. Global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha samarali siyosatni ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlash uchun kelajakdagi natijalar va asosiy harakatlantiruvchi kuchlarni yaxshiroq tushunish kerak.

Global baholashlar oziq-ovqat xavfsizligining turli ko'rsatkichlarini o'lchash uchun asosan to'rtta ko'rsatkichdan foydalanadi: oziq-ovqatga bo'lган talab, ochlik xavfi ostidagi aholi soni, oziq-ovqat narxlari va bolalarning kam ovqatlanishi.



**9-rasm. Global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha talablarning oshish ko'rsatkichi**

Ko'pincha, bu tadqiqotlar natijalari juda xilma-xil bo'lib, usullar,

harakatlantiruvchi kuchlar haqidagi farazlar va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining ta'riflaridagi farqlar tufayli taqqoslash qiyin.

Hozirgi kunga qadar global oziq-ovqat xavfsizligi prognozlarining keng qamrovli tahlillari taqdim etilmagan.

9-rasm so'nggi yigirma yil ichida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish bo'yicha tadqiqotlar soni sezilarli darajada oshganligini ko'rsatadi.

Keyingi yillarda bir modelli tadqiqotlardan modellar yig'indisi natijalarini taqdim etadigan va muhokama qiladigan ko'p modelli taqqoslashga o'tildi. Ushbu tadqiqotlarning aksariyati qishloq xo'jaligi modellarini o'zaro taqqoslash va takomillashtirish loyihasining bir qismi sifatida ishlab chiqilgan.

### **§1.3. O'zbekiston mevachiligining qisqacha tarixi, hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari**

**Pomologiya** (lot. pomum – meva, logos – fan), navshunoslik – mevali va rezavor mevali o'simliklar navlari to'g'risidagi fan. Ushbu fan mevali va rezavor mevali o'simliklarni ilmiy rayonlashtirish, bog'larning nav tarkibini va ayrim navlarni muttasil yaxshilash va ulardan bog'dorchilikda samarali foydalanish masalalarini o'rganadi.

Bog'dorchilikka doir dastlabki ma'lumotlar V asrlarda paydo bo'lgan. X asrlarda bog'dorchilik anchagina rivojlandi. XIX asrga kelib sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan bog'lar barpo etilib, ular qishloq xo'jaligida salmoqli o'rinnegallaydi.

O'rta Osiyoda yashagan xalqlar qadimdan chorvachilik bilan bir qatorda, dehqonchilik, xususan, bog'dorchilik bilan ham shug'ullanib kelgan. Buning natijasida mevaning ko'pgina tur va navlari yaratilgan. O'rta Osiyoda yetishtirilgan o'rik, shaftoli, yong'oq, anor, bodom kabi turli mevalarning ayrim navlari hosildorligi, ta'mi, sifati va mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga moslashuvchanligi, turli kasallik va zararkunandalarga, qurg'oqchilikka chidamliligi bilan ajralib turadi.

Olma, nok va behizorlar barpo etish faqat mahalliy ahamiyatga ega edi, xolos. Shuning uchun ham respublikamizdan tashqariga mevachilik mahsulotlari chiqarish uchun hech qanday ichki imkoniyat yo'q edi. Toshkent–Orenburg temir yo'li qurilgandan keyingina sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan bog'lar barpo qilinib, Rossiya tomonlarga ho'l meva yuborish miqdori yil sayin ortib bordi.

Keyinchalik Toshkent vohasiga Qirim, Fransiya, Amerikadan yangi meva navlari olib kelinib, katta-katta bog'lar barpo qilina boshladi. Xorijdan keltirilgan navlar mahalliy tuproq-iqlim sharoitiga ancha yaxshi moslashdi. Natijada Toshkent vohasida Yevropadan keltirilgan olma va boshqa xil meva navlari keng tarqala boshladi. Toshkent vohasidan asta-sekin respublikamizning boshqa hududlariga ham meva navlari va turlari keng tarqaldi.

**Mevachilik** – qishloq xo’jaligining meva, uzum va rezavor mevalar yetishtiriladigan muhim sohasi bo’lib, aholining meva va meva mahsulotlariga bo’lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Mevachilik bog’dorchilik (olma, nok, o’rik, gilos va h.k.) va ko’chatchilik (ko’chatzorlarda mevali daraxtlar ko’chatlarini yetishtirish) tarmoqlariga bo’linadi.

Jahon bog’dorchiligida 200 dan ortiq meva, rezavor meva, yong’oq meva turlari ekiladi. Ulardan 100 dan ortiq turi sanoat ahamiyatiga ega. Olma, zaytun, Finikiya pal’masi, banan, mango, tok eng ko’p ekiladigan meva turlaridir.

O’rta Osiyodagi bog’lar haqidagi dastlabki ma’lumotlar Yunon, Xitoy, Rim manbalarida uchraydi. O’rta Osiyo ko’pgina meva turlarining vatani hisoblanadi. Asrlar davomida xalq seleksiyasi asosida o’rik, olma, nok, yong’oq, bodom, anor, tok va boshqalarning juda serhosil navlari yaratilgan. Ularning ko’plari sifat jihatidan dunyo kolleksiyasida o’zining takrorlanmas o’miga ega.

Pomologiya fan sifatida XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida shakllangan. Ilmiy pomologiya rivojlanishiga amerikalik mashhur seleksioner-o’simlikshunos olim Lyuter Berbank, rus olimi Ivan Vladimirovich Michurinning amaliy ishlari va asarlari hal qiluvchi ta’sir ko’rsatdi. Ukrain pomolog olimi Lev Platonovich Simirenko pomologiyaning asosiy mazmunini ifodalab berdi. Uning mevali va rezavor mevali ekinlar navshunosligi, nav sinovi va rayonlashtirish masalalari bo’yicha asarlari muhim ahamiyatga ega.

Pomologiya mevali va rezavor mevali ekinlar seleksiyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ba’zan pomologiyaga mevali o’simliklarni botanik uslubiyatlar (U.P.Xendrik, K.Kox) bilan o’rganuvchi botanika fanining bir qismi sifatida qaraladi. G’arbiy Yevropada pomologiyaning tavsifiyo yo’nalishi (A.Dil, E.Lukas, A.Lerua) ham mavjud.

Hozirgi davrda pomologiyada navlarni hududlar bo’yicha ishlab chiqarish biologik urganish (ilmiy muassasalarning pomologiya bog’larida navni dastlabki o’rganish, davlat nav sinash uchastkalarida eng istiqbolli navlarning davlat nav sinovi, bog’dorchilik xo’jaliklarida dastlabki nav sinovi va davlat sinovidan o’tgan istiqbolli navlarning ishlab chiqarish nav sinovlari yo’nalishlarida), navlar agrotexnikasi, navlarni ishlab chiqarish vositasi tarzida har tomonlama tavsiflash masalalariga alohida e’tibor beriladi.

O’rta Osiyo, jumladan, O’zbekiston pomologiyasi ham boy tarixga ega. Olma, nok, urik, shaftoli, olxo’ri, uzum, anor, anjir, gilos, yong’oq, bodomning mahalliy navlari hamda ularning tavsifi haqida X asrga oid manbalarda, jumladan, “Boburnoma”da ma’lumotlar bor. XX asr boshlarida O’zbekistonda pomologiyani rivojlantirishda R.R.Shreder, N.N.Shavrov, keyinchalik, K.F.Kostina, I.N.Ryabov, V.V.Kuznetsov, K.V.Vasilyev, A.S.Cherevatenko, A.G.Shreder, A.R.Shreder, S.I.Yagudina, S.Q.Sharipov, S.S.Kalmikov va boshqalar katta hissa qo’shgan.

Respublikamizda mevali va rezavor mevali ekinlarning 20 dan ortiq turi ekiladi. Urug’ mevali daraxtlar (olma, nok, behi va boshqalar), danak mevali

daraxtlar (o'rik, shaftoli, olxo'ri, gilos, olcha va boshqalar), subtropik o'simliklar (anor, anjir), yong'oq mevalilar (yong'oq, pista, bodom), rezavor mevalilar (qulupnay, malina, smorodina, chakanda) asosiy o'rinni egallaydi. Olma, nok va tokning yozgi, kuzgi va qishki navlari muhim xo'jalik ahamiyatiga ega. Tokchilik qadimdan Toshkent va Samarqand viloyatlari, Farg'ona vodiysida keng taraqqiy etgan. O'zbekistonda meva qoqilari va mayizning noyob xillari tayyorlanadi. Respublikaga tropik va subtropik mintaqalardan olib kelingan limon, apelsin, mandarin, unabi, sharq xurmosi kabi mevalar tobora ko'proq maydonlarda ekilmoqda. Andijon, Namangan, Surxondaryo, Toshkent viloyatlarida ko'pgina xo'jaliklarda issiqxonalar limonzorlari barpo etilgan.

O'tgan asrning 90-yillarida paxta maydonlari qisqartirilib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida ko'plab bog' va tokzorlar tashkil etildi. Respublika bo'yicha bog'larning umumiyligi maydoni 320 ming/ga. ga yetdi (meva bog'lari 199 ming/ga, tokzorlar 120 ming/ga), yalpi meva va uzum hosili 833 ming tonnadan oshdi (1999).

O'zbekistonda bog'dorchilikni rivojlantirishda akademik M.M.Mirzayev (avvalgi R.R.Shreder) nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiytadqiqot instituti, uning joylardagi filiallari, O'simliklar genetik resurslari ilmiytadqiqot instituti, Toshkent davlat agrar universiteti olim va tadqiqotchilarining xizmatlari kattadir. Ayniqsa, akademik M.M.Mirzayev, qishloq xo'jalik fanlari doktorlari, professorlar – A.A.Ribakov, M.M.Kuznetsov, S.A.Ostrouxova va boshqalarning xizmatlari beqiyos.

Mevachilik fan sifatida mevali daraxtlarning tuzilishi, o'sib-rivojlanishi, ko'payishi hamda hosil berish qonuniyatlarini, shuningdek, ularning tashqi muhit bilan aloqadorligini o'rganadi, turli tabiiy muhitda o'sib, yaxshi hosil berishini ta'minlash uchun ilg'or agrotexnika usullarini ishlab chiqadi. Keyingi yillarda meva, rezavorlar va tokning 200 dan ortiq serhosil navlari yaratildi, boshqa mamlakatlardan keltirib rayonlashtirildi va ekishga tavsiya etildi.

#### **§1.4. Intensiv bog'larda meva yetishtirishning samaradorligi**

**Intensiv dehqonchilik** – bu foydalanilayotgan yerdan maksimal hosil olish uchun keng ishchi kuchi va texnikadan foydalaniladigan dehqonchilik usuli. Qishloq xo'jaligining bu turi kichik yerga ega dehqonlarga ko'proq resurslar va yuqori xarajatlarsiz mo'l va sifatli hosil olish imkonini beradi.

Intensiv bog'ning an'anaviy bog'lardan farqi quyidagilardan iborat:

- Intensiv bog'larga sifatli ko'chatlar ekilishi tufayli ajratilgan joy simbag'azda qisqa vaqtda barg bilan qoplanishi hisobiga quyosh nurlari ko'proq tushib, baravj rivojlanadi. Daraxt shoxlari belgilangan joyni qanchalik tez to'ldirsa, to'liq gektardan olinadigan hosil salmog'i ortadi.

- Ekilgan meva turiga qarab darxtlarning zichligi yetarli darajada bo'lishi lozim. Birinchi yildanoq daraxtlar simbag'azni to'liq yoki katta qismini to'liq qoplashiga erishish kerak. Bunga erishishning yagona yo'li – ekishda ko'chatlar orasini 1,5–1,8 m masofada joylashtirib, ularni umuman qisqartirib kesmaslik kerak. Bu o'z navbatida ikkinchi yildayoq hosil olish imkoniyatini yaratadi.

- daraxtlarning ikkinchi yildayoq hosil bera boshlashi, o'z navbatida o'sib-rivojlanishi hamda hosil berishi o'rtasida muvozanat paydo qiladi va bu ildiz tizimining o'sishini biroz qisqartirishga olib kelishi mumkin (10-rasm).



**10-rasm. Intensiv bog'larda olmaning gullash fazasi**

- intensiv bog'larda daraxt shoxlariga quyosh nurlari oson tushadigan holda shakllantirilishiga alohida e'tibor berish kerak. Bunda kesish, mevalarni siyraklashtirish va terish ishlari osonlashadi.

- intensiv bog'larda mevali shoxlarni qalin qoldirib bo'lmaydi;  
- ildizlar zichlashib, o'sishning tezligini pasaytiradi;  
- daraxt va shox-shabbasining barcha qismini boshqarish imkoniyati yaratiladi;

- bog'dagi agrotexnika tadbirlarini mini texnikalar yordamida bajarish, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish uchun ishlatiladigan kimyoviy preparatlar samaradorligini oshirish imkonini beradi;

- intensiv bog'larning ubti to'rlar bilan yopilganda iqtisodiy samaradorlik yanada ortadi, mevalarning sifatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishlari bilan bir qatorda aholi sonining ortishi tufayli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishi sharoitlari o'simlik ichidagi turli metabolik

jarayonlarga halokatli ta'sir qiladi, oqibatda daraxtlarning o'sib-rivojlanishi va hosildorligi pasayadi, tuproq strukturasining yomonlashishini kuchaytiradi (11-rasm).

Daraxtlarning vegetativ o'sishi va meva berish o'rtasidagi to'g'ri muvozanatga erishish butun dunyoda meva yetishtiruvchilar oldida turgan asosiy muammolardan biridir. Shu bois, mavjud tabiiy resurslardan maksimal darajada foydalanish, yuqori intensiv usulda (HIC) parvarishlash tabiiy resurslardan samarali foydalanishni oshirish zarurati tug'iladi.

Mevali bog' tashkil etishning birinchi bosqichida umumiy daromadni oshirishga e'tibor qaratish kerak. Bundan tashqari, sitrus navlari kabi unumdon yoshi cheklangan mevali daraxtlar uchun yuqori intensiv usulda parvarishlash muhim ahamiyatga ega. Bu yerda bog'bonlar maydon birligi uchun ishlab chiqarishni maksimal darajada oshirishi zarur.



**11-rasm. Intensiv bog'larda olmaning pishish fazasi**

Yuqori samarador past bo'yli mevali ko'chatlar, ayniqsa, olma, gilos, mandarin, zaytun, mango va boshqa mevali daraxtlarning mahsuldorligini oshirish uchun asosiy yechim bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, pakana bo'yli mevali daraxtlardan foydalanish yuqori intensiv ekish samaradorligini ta'minlaydi va har bir maydondan hosildorlikni oshiradi (12-rasm).

Bog'dorchilikda yuqori intensiv usulda parvarishlash usulidan foydalanish suv, tuproq, o'g'it va yorug'lik samaradorligini oshirish hamda hosildorlikni maksimal darajada oshirishga, bundan tashqari, butun dunyo bo'ylab yetarli oziq-ovqat bilan ta'minlashga qaratilgan.



**12-rasm. Intensiv bog'larda olma hosilini terib olish jarayoni**

Bundan tashqari, daraxt qatorlari orasidagi va ichidagi bo'shliqni qisqartirish biomassaniyu mevaga aylanish samaradorligini yanada oshiradi. Asosiysi, daraxtlar oralig'ining tor bo'lishi maydon birligiga to'g'ri keladigan hosildorlikni va fermer xo'jaliklarining rentabelligini oshirishning kalitidir.

Yuqori samarador bog'larni tashkil etish xarajatlariga qaramay, yuqori intensiv usulda parvarishlash (HIC)da yuqori ishlab chiqarish fermerlar uchun daromad qisqa muddatda qoplanadi. Intensiv bog'larda yuqori zichlikdagi yetishtirishni oddiy yetishtirish bilan solishtirganda hosildorlik 9–10 baravar oshishi isbotlangan.

**Tuproq unumdarligi omili.** Global iqlim o'zgarishlari sharoitida tuproq unumdarligining pasayishi ham kuzatilmoida. Yuqori intensiv usulda parvarishlash (HIC) texnologiyasi asosida meva yetishtirish yer resurslaridan samarali foydalanish hisobiga iqtisodiy samaradorlikni oshirishning eng maqbul usulidir (13-rasm).


Uning asosiy vazifasi – maydon birligiga to'g'ri keladigan o'simliklar sonini ko'paytirish va yuqori hosil olish uchun tabiiy resurslardan foydalanishdir.

**Ekin maydonlarining tashqi muhitga ta'sir etish omili.** Yer va suv resurslaridan unumli foydalanish hisobiga hosildorlik daraxt soniga mutanosib ravishda oshadi. Daraxtlarni haddan tashqari ko'p ekish barglarning yorug'likni qabul qilishi kamayishi tufayli fotosintez jarayoni buziladi, shuningdek, meva sifati pasayadi.

Yorug'likdan to'g'ri foydalanish maydon birligiga to'g'ri keladigan umumiyl hosil salmog'ini oshiradi, meva sifatini yaxshilaydi va patogen mikroorganizmlarning tarqalishini kamaytiradi.

**Daraxt kattaligining hosildorlikka ta'sir etish omili.** Ba'zi hollarda, ayniqsa, kuchli o'suvchi olma, gilos, apelsin va zaytun kabi daraxtlardan yuqori hosil olish uchun nihollarni zich joylashtirish mumkin.

Keyinchalik daraxtlar yuqori iqtisodiy hosilni yuklaydigan va fermerlar uchun yuqori rentabellikni rag'batlantiradigan mos soyabon o'lchamiga ega bo'lishlari uchun asta-sekin siyraklashtirib boriladi.



13-rasm. Tuproq unum dorligi omiliga qarab mevalarni joylashtirish

**Ildiz poyasining rivojlanganlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omil:** Mevali daraxtlar hosildorligini oshirishda ildiz poyasini tanlash ham muhim rol o'yndaydi, chunki ildiz poyalari daraxt o'sishini rag'batlantiradi yoki nazorat qiladi. Yuqori intensiv yetishtirishda kichik shakildagi ildizpoyadan foydalanish kuchli ildizpoyaga nisbatan deyarli ikki baravar hosildorlikni oshiradi.

**Amaliyotni boshqarish:** Mevali bog'larda yuqori intensiv usulda parvarishlash (HIC) tizimini qo'llash, haddan tashqari ko'p meva tugunchalari hosil bo'lishining oldini oladi. Natijada mevaning sifat ko'rsatkichlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda Janubiy Koreyada uzum yetishtirish intensiv texnologiya asosida amalga oshirilmoqda. Uzum yetishtirish uchun to'sqinlik qiladigan omil – bu yoz oylari (iyun, iyul va avgust) musson fasliga to'g'ri keladi. Shu bois uzum maxsus issiqxonalarda yetishtiriladi (14–15-rasmlar).

Intensiv dehqonchilik insektitsidlar, pestitsidlar, o'g'itlar, o'sishni rostlovchi stumliyatorlar va boshqa preparatlarni qo'llash bilan tavsiflanadi. Intensiv dehqonchilik kelajak garovidir. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar

an'naviy dehqonchilik usullaridan foydalanishni to'xtatib, intensiv dehqonchilikka o'tmoqda.



**14-rasm. Issiqxona sharoitida uzum yetishtirish  
(Janubiy Koreya texnologiyasi)**



**15-rasm. Janubiy Koreyada uzum yetishtirish texnologiyasi**

Intensiv dehqonchilik kelajakka yo'l ochayotgan bo'lsa-da; uning bir qancha ijobiy va salbiy tomonlari bor. Bu yerda intensiv meva yetishtirishning turli afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz.


### **§1.5. O'zbekiston mintaqalarida tarqalgan mevali o'simliklar va ularning qisqacha tavsifi**

Yiliga 300 quyoshli kun va unumdar tuprog'i bo'lgan respublikamizning kontinental iqlimi 350 dan ortiq turdag'i meva-sabzavot, yong'oq, poliz va boshqa ekinlarini yetishtirish uchun juda qulay.

Hozirda O'zbekiston qishloq xo'jaligi sohasidagi loyihalar doirasida mevachilikni rivojlantirish bo'yicha xalqaro kredit liniyalari asosida Jahon banki ishtirokida 659,3 mln. AQSH dollari, Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi (FIDA) bilan birgalikda 153,5 mln. AQSH dollari, BMTning Butunjahon oziq-ovqat tashkiloti (FAO) moliyaviy ko'magida 8,69 mln. AQSH dollari miqdoridagi kredit mablag'lari asosida yangi intensiv bog'larni tashkil etish bo'yicha ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda meva-sabzavotlarning pishishi davri mart oyidan dekabrgacha davom etadi. Bu esa ayrim ekinlarga yiliga uch martagacha hosil olish imkonini beradi.

**Gilos. Gilos mevali daraxt bo'lsada, u juda yuqori dekorativ qiymatga ham ega.** Bahorda go'zal gullari, yozda soyasi va yam-yashil barglari, kuzda bu barglarning turfa rangga kirishi ajoyib manzara kashf etadi.




**16-rasm. Dunyo bo'yicha gilos yetishtirish ko'rsatkichi, metrik tonna**

Asrlar davomida ajoyib ta'mi bilan insonlarga manzur bo'lib kelmoqda. Gilos Amerika qit'asiga 1600-yillarda yevropalik ko'chmanchilar tomonidan olib borilgan.

O'zbekiston bugungi kunda gilos yetishtirish bo'yicha dunyoda 3-o'rinda turadi (FAOning 2020-yilgi statistik tahliliga asosan). Birinchi o'rinda turuvchi Turkiyada 639,564 metrik tonna, ikkinchi o'rindagi AQSHda 312,430 metrik tonna miqdorida gilos yetishtirilsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 172,035 metrik tonnani tashkil etadi.

**O'rik (*Prunus armeniaca*)ni rimliklar Yevropaga tanishtirishgan.** Bu meva **mo'tadil iqlim mintaqalarida kelib chiqqan.** Miloddan avvalgi 3000-yillarda Xitoyda keng maydonlarda o'stirila boshlagan.



**17-rasm. Dunyo bo'yicha o'rik yetishtirish ko'rsatkichi**

Hozirgi vaqtida o'rik Shveysariya, Turkiya, Ispaniya, Gretsiya, Fransiya, AQSH, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika kabi ko'plab mamlakatlarda yetishtiriladi.

O'rik issiqsevar, yorug'sevar, qurg'oqchilik va issiqlikka chidamli, lekin namlik yetishmaganda meva tugmaydi. Gullagan paytda bahorgi qorasovuqlardan zararlanadi. Unumdor, bo'z hamda shag'al-toshli yerlarda yaxshi o'sadi. O'zbekistonda o'rikzorlarning asosiy qismi **Farg'ona vodiysi (65%) va Zarafshon vohasida** joylashgan.

Ayni paytda mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida o'rikning **20 ga yaqin navi** yetishtiriladi.

O'zbekiston dunyoda o'rik yetishtirish bo'yicha Turkiyadan keyin 2-o'rinda turadi. Mamlakatimizda 2017–2019 yillarda o'rtacha 493842–536544 tonna o'rik yetishtirilgan (17-rasm, 1-jadval).

Bugungi kunda yurtimizda yetishtirilayotgan o'rik **Belorus, BAA, Germaniya, Ozarbayjon, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Latviya, Litva, Ummon, Rossiya, Turkmaniston** kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

**Olma – ra'nodoshlarga oilasiga mansub, barg to'kuvchi daraxtlar yoki butalar turkumi, urug' mevali daraxt.** O'zbekistonda yovvoyi olma turlari, asosan, Bo'stonliq, Parkent, Ohangaron tumanlarining tog'li hududlarida uchraydi.


Mevasi pishish vaqtiga qarab, yozgi, kuzgi va qishki navlarga bo'linadi. Olma sovuqqa chidamli, yorug'sever va namsevar, tuproq tanlamaydi, lekin unumdor tuproqlarda yuqori hosil beradi.

XX asrning boshlari O'zbekistonda pakana payvandtaglarda o'stirilgan, tez hosilga kiradigan olma bog'lari yaratish, chet el navlarini ekish harakati keng yoyildi. Ayniqsa, intensiv bog' usulida olma daraxtlarini yetishtirishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda.

### **1-jadval**

#### **Dunyo bo'yicha o'rik yetishtirish miqdori (2017–2019 yy.)**

Davlatlar	Ishlab chiqarish, tonna				Ekin maydoni, ga			
	2017	2018	2019	O'rtacha (%)	2017	2018	2019	O'rtacha (%)
Dunyo bo'yicha	4796280	3901256	4083861	4260466 (100)	560416	546800	561750	556322 (100)
Turkiya	985000	750000	846606	860535 (20.2)	125049	125756	131178	127328 (22.9)
O'zbekiston	532565	493842	536544	520984 (12.2)	41711	38694	43464	41290 (7.4)
Eron	330553	314012	329638	324734 (7.6)	54346	52480	56090	54305 (9.8)
Fransiya	654938	112890	134800	300876 (7.1)	12197	12280	12280	12252 (2.2)
Italiya	266372	229020	272990	256127 (6.0)	17363	17809	17910	17694 (3.2)
Jazoir	256890	242243	209204	236112 (5.5)	44307	35500	30861	36889 (6.6)
Ispaniya	162872	176289	145830	161664 (3.8)	21002	20567	20240	20603 (3.7)
Afg'oniston	131816	109086	129363	123422 (2.9)	13413	10908	17719	14013 (2.5)
Pokiston	141721	107986	104743	118150 (2.8)	22715	18629	19372	20239 (3.6)



### 18-rasm. Dunyo bo'yicha olma yetishtirish ko'rsatkichi

O'zbekiston olma yetishtirish bo'yicha (2019-yil hosili tahliliga ko'ra) dunyoda top 10 talik davlatlar qatoriga kiradi. Xitoy, AQSH, Turkiya, Hindiston, Rossiya, Germaniya, Eron, Braziliyadan keyin 9-o'rinda turadi (18-rasm).

Bugungi kunda O'zbekistonda olmaning 100 dan ortiq navi yetishtirilmoqda. Butun dunyoda esa, bu ko'rsatkich 10 mingdan ortiqni tashkil etadi.

Olma navlari bir-biridan mevalarining pishish muddatlari, ko'rinishi, bir dona mevasining o'rtacha og'irligi, katta kichikligi hamda tarkibidagi qand, quruq moddasi va kislotalik ko'rsatkichlarini turlicha bo'lishi bilan farqlanadi.


**Shaftoli** – ra'noguldoshlar oilasiga mansub mevali daraxt. O'zbekistonda ekin maydoni jihatidan mevali daraxtlar orasida **3-o'rinni** egallaydi. Vatani – Xitoy. O'zbekistonga ham Xitoydan kirib kelgan. Shaftoli navlari ikki guruhga bo'linadi: **mevasi tukli va luchchak shaftoli**.

Shaftoli **danagidan va payvand qilib** ko'paytiriladi. Payvandtag sifatida oddiy shaftoli va boshqa turlari urug' ko'chati, bodom, tog'olcha, ba'zan o'rikdan foydalilanadi.

**O'rtacha hosildorligi** 200–400 s/ga. Ekilganidan keyin 2–3-yilda hosilga kiradi. 12–15 yil yaxshi hosil beradi.

Ayni paytda mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida (shimoliy mintaqatlarda kamroq) shaftolining **30 ga yaqin navi** yetishtiriladi.

Shaftoli yetishtirish bo'yicha respublikamiz jahonda 15-o'rinda turadi. Bugungi kunda yurtimizda yetishtirilayotgan shaftoli mahsuloti **Avstriya, Afg'oniston, Belorus, Italiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Litva, Mongoliya, BAA, Ummon, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston** kabi davlatlarga eksport qilinmoqda (19-rasm).




**19-rasm. Dunyo bo'yicha shaftoli yetishtirish ko'rsatkichi**

Xurmo – xurmodoshlar oilasiga mansub subtropik mevali daraxt. Tropik va subtropik mintaqalarda 500 ga yaqin turi uchraydi. Xitoy, Yaponiya, O'rta yer dengizi bo'yi mamlakatlari, Avstraliya, AQSH, Kavkazorti davlatlari, O'rta Osiyoda ekiladi.

Xurmo, asosan, urug'idan ko'kartirilgan niholga payvandlash yo'li bilan ko'paytiriladi. Qumli, shag'alli va sho'r yerkarni yoqtirmaydi. Bir tup daraxtidan **250 kg. gacha** hosil olinadi.

Ayni paytda mamlakatimizning janubiy va markaziy hududlarida xurmoning **5 ta navi** yetishtiriladi. Dunyodagi xurmo yetishtirish ulishimiz bo'yicha 7-o'rinda turamiz (20-rasm).

Bugungi kunda yurtimizda yetishtirilayotgan xurmo **Afg'oniston, Belorus, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Litva, Moldaviya, BAA, Polsha, Rossiya, Turkmaniston, Chexiya** kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda.



## 20-rasm. Dunyo bo'yicha xurmo yetishtirish ko'rsatkichi

**Uzum** – manbalarda keltirilishicha, uzumning vatani G'arbiy Kavkaz, Qora dengiz bo'yłari emas, balki O'rta Osiyo bo'lgan. Xitoyliklar, ayniqsa, II asrdan boshlab bu o'lkadan uzumning eng a'lo navlarini xarid qilib ketishgan.

Yovvoyi toklar Sharqiy Buxoro (hozirgi Surxondaryo va Tojikiston Respublikasi)ning Hisor tog'i yonbag'irlarida o'sib, novdasining uzunligi 80–100 metrgacha yetganganligi, bunday yovvoyi uzum navlarini Toshkent vohasining Chimyon tog'larida ham uchratish mumkinligi qayd etiladi.

Mintaqamizda azal-azaldan “Husayni”, “Toifi”, “Buvaki”, “Charos” (qizil, oq, sariq), “Kishmish” (oq va sariq), “Sultoniy”, “Doroyi”, “Chochangur”, “Shibirg'onyi” kabi uzum navlari yetishtirib kelingan.

2022-yilda mamlakatimiz bo'yicha 181 ming gektar maydondagi tokzorlarda (fermer xo'jaliklarida 129 ming gektar, aholi tomorqalarida 52 ming gektar) 1,8 million tonna uzum yetishtirish rejalashtirilgan edi. 10-noyabr holatiga ko'ra, hosil 1,9 million tonnani (105%) tashkil etdi.

Umuman olganda uzum yetishtirish bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida O'zbekiston 13-o'rinda turadi (2-jadval). 2022-yilda yig'ib olingan hosildan 244 ming tonna yangi uzum eksport qilingan. 256 ming tonna uzum quritilib, undan

64 ming tonna mayiz olinib, eksportga jo'natilgan (2021-yilga nisbatan 1,9 barobar ko'p).

### 2-jadval

#### Dunyo bo'yicha davlatlar kesimida uzum yetishtirish ko'rsatkichi

O'rni	Davlatlar nomi	Yetishtirilgan uzum miqdori, t	Jahon bozoridagi ulushi, %
1	Xitoy	14 372 167	20,48
2	Italiya	7900120	11,26
3	AQSH	6233270	8,88
4	Ispaniya	5745450	8,19
5	Fransiya	5489650	7,82
6	Turkiya	4100000	5,84
7	Hindiston	3041000	4,33
8	Chili	2701588	3,85
9	Argentina	2519886	3,59
10	Janubiy Afrika	1993048	2,84
11	Eron	1945930	2,77
12	Misr	1626259	2,32
13	O'zbekiston	1603308	2,28
14	Avstraliya	1553602	2,21

**Behi – ra'nodoshlar oilasiga mansub mevali daraxt yoki buta. Kavkaz, O'rta Osiyo, Qrim, Ukrainianing janubida keng tarqalgan. Behi, asosan urug'idan ko'kartirilgan niholga payvandlab ko'paytiriladi.**

**Ko'chati o'tqazilgach, 3–4 yilda hosil beradi. 30–40 yil yashaydi. Katta yoshdagi daraxtlari 60–70 kg. gacha hosil beradi.** Behi daraxti issiqlik va namlikka talabchan. Sug'oriladigan unumdor tuproqlarda, sho'ri kam yerlarda o'sadi. Vegetatsiya davrida tuproq sharoitiga qarab 3–8 marta sug'oriladi.



## 21-rasm. Dunyo bo'yicha behi yetishtirish ko'rsatkichi

O'zbekiston hududida behining **8 ta navi** yetishtiriladi. Navlariga qarab, mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida ekish uchun tavsiya etiladi.

Behi yetishtirish bo'yicha O'zbekiston Turkiya va Xitoydan keyin 3-o'rinda turadi. Yiliga o'rtacha 109 516 metrik tonna miqdorida behi yetishtiriladi. Bugungi kunda yurtimizda yetishtirilayotgan behi **Afg'oniston, Belorus, BAA, Qирг'из Республикаси, Qозог'истон, Rossiya, Turkmaniston, Chexiya** kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda (21-rasm).

**Anor** – ikkita noyob komponentga ega. Punicalagin anorning urug'lari va terisida joylashgan kuchli antioksidant bo'lib, uning antioksidant faolligi qizil sharob yoki yashil choyga qaraganda deyarli 3 baravar yuqori.

Anor yadrosi yog'idan olingan kislotalar kuchli biologik ta'sirga ega. Anor o'zining noyob xususiyatlari tufayli jahon bozorida doimiy ravishda yuqori talabga ega.

Hindiston Savdo va sanoat vazirligining Qishloq xo'jaligi va qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari eksportini rivojlantirish boshqarmasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, 2018-yilda jahon bozorida anor va anor urug'larining jami hajmi 8,2 mlrd. AQSH dollariga baholangan. Bu ko'rsatkichning o'sib borishi prognoz qilinmoqda. 2026-yilga borib 23,1 mlrd. AQSH dollaridan ortishi kutilmoqda.

Bu prognozga asos bo'lgan asosiy omil anor xomashyosidan tayyorlangan mahsulotlarga talabning ortib borayotganligi bo'lib, ular juda ko'p: anor kukuni, anor sharbati va undan tayyorlangan turli ichimliklar hisobiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, anor nafaqat oziq-ovqat, balki kosmetika, farmatsevtika sanoatida ham keng qo'llaniladi.

Anorni qayta ishlash bozorining eng katta segmenti – anor kukuni hisoblanadi. Mamlakatimizda 2030-yilgacha ushbu segmentning o'rtacha yillik o'sishi 4,8 foizni tashkil qilishi kutilmoqda. Bozor ulushida ikkinchi o'rinda anor sharbatlari va siroplar ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan konsentratlar turadi. Bundan tashqari, anor sharbatlari va anordan foydalangan holda tayyorlangan kosmetika (don ekstrakti, urug'lar, po'stlog'i va boshqalar) iste'moli ommaviylishib bormoqda.

Dunyodagi eng yirik anor iste'molchisi Osiyo-Tinch okeani mintaqasi (APR) sanaladi. Bu global iste'molning qariyb yarmini tashkil qiladi. Undan keyin Yevropa (20%), Shimoliy Amerika (15%), Yaqin Sharq va Afrika (10%) va Lotin Amerikasi (5%) turadi.

Dunyoning eng yirik iste'molchisi sifatida Osiyo-Tinch okeani mintaqasida Hindiston, Eron va Xitoy kabi anor ishlab chiqaruvchilari ham joylashgan. Shu bilan birga, dastlabki ikkita mamlakat ushbu mahsulotning sof eksportchilari bo'lib, Xitoyda anorga bo'lgan talab mahalliy ishlab chiqarish hajmidan ancha yuqori, Shuning uchun Xitoy anorning asosiy importchisi hisoblanadi.

Dunyoda anor iste'moli umumiy hajmining 65 foizga yaqini oziq-ovqat sanoati (yangi iste'mol, sharbat, sirop, sous, murabbo va boshqalar), 20 foizga yaqini kosmetika va 15 foizi farmatsevtika sanoatiga to'g'ri keladi.

Anor import qiluvchi davlatlar orasida Xitoy mutlaq yetakchi hisoblanadi. 2018-yilda Xitoy 857,5 mln. AQSH dollarilik, Gonkong bilan birga hisoblanganda esa 1 milliard dollardan sal ko'proq anor import qilgan.

Hindiston dunyodagi eng yirik anor ishlab chiqaruvchisi. Hindiston har yili anor ishlab chiqarishni 20–25 foizga oshirmoqda. Hindistonda yetishtiriladigan eng mashhur anor navi – bu "Bhagva" bo'lib, u juda shirin ta'mga va yuqori sifatga ega. Ushbu mamlakatda anorning pishib yetish davri yiliga 11 oy davom etadi. Bu Hindistonga boshqa yetakchi ishlab chiqaruvchilar va eksportchilarga nisbatan katta ustunlik beradi.

Hindistondan yangi anor eksporti geografiyasi dunyoning 35 ga yaqin davlatini qamrab oladi. Ulardan eng yiriklari Birlashgan Arab Amirliklari (32%), Niderlandiya (11%), Saudiya Arabiston, Ummon, Nepal va Qatardir.

Xitoy va Gonkong dunyodagi eng yirik anor importchilari bo'lishiga qaramay, Hindiston eksport qiladigan umumiy anorning kichik ulushi ular

hissasiga to'g'ri keladi. Bunga Xitoy va Hindiston o'rtaisdagi siyosiy taranglik sabab bo'lgan, deb baholanadi. Shunga ko'ra, bu holat O'zbekistonga katta ustunlik beradi, chunki jahonning boshqa yetakchi anor ishlab chiqaruvchilari O'zbekistonga nisbatan Xitoydan uzoqroqda joylashgan.

Xitoy ham anorning asosiy ishlab chiqaruvchilaridan biridir. Chin o'lkasida anor hosilini yig'ishtirib olish mavsumi iyuldan noyabrgacha davom etadi. O'zbekistonda esa anor sentabrdan noyabrgacha pishib yetiladi. Bu esa o'zbek anorini Xitoy bozoriga unchalik jozibador qilmaydi. O'zbekistondan Xitoy bozoriga anor eksport qilish istiqbollarini yetkazib berish mavsumini uzaytirish maqsadida anorlarni uzoq muddatli saqlash texnologiyasini takomillashtirish orqali oshirish mumkin.

2023 yil dekabr oyida Farg'ona viloyatida yetishtirilgan 250 tonna uzum AQSHga eksport qilinadi. AQSHda o'tkazilgan marketing tahlillariga ko'ra, O'zbekistondan tajriba tariqasida yetkazilgan "Husayni" navli uzumining ta'mi va ko'rinishi amerikalik xaridorlar o'rtaida katta qiziqishga sabab bo'ldi. Noyabr oyi boshida Nyu-York shahriga Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanidan tajriba tariqasida yetkazilgan bir tonna uzumning barchasi mahalliy aholi tomonidan ikki kunda xarid qilindi (22-rasm).



**22-rasm. "Husayni" navli uzumning pishish davri**

Ushbu omillar sabab mamlakatdan yangi uzumning yanada kattaroq

partiyasini yetkazish bo'yicha muzokaralar boshlangan edi. Muzokaralar natijasida joriy yilning 14-dekabr kuni AQSHning E.L.A. Superior Produce Inc. va Farg'ona viloyatidagi "Seraxun" mas'uliyati cheklangan jamiyati o'rtasida umumiyligi 2 million dollarga teng qo'shimcha eksport shartnomasi imzolandi.

Dunyodagi boshqa yirik anor ishlab chiqaruvchilar Turkiya, Eron, Tunis, Peru, Isroil va Ozarbayjondir. Ularning barchasi geografik joylashuviga ko'ra O'zbekistonning Yevropa davlatlari va Rossiya bozorlaridagi asosiy raqobatchilari hisoblanadi. Bundan tashqari, ushbu ishlab chiqaruvchi mamlakatlarning ko'pchiligidagi anor O'zbekiston bilan deyarli bir xil davrda yig'ib-terib olinadi.

Rossiya yangi anorlarning eng katta qismini Turkiyadan import qiladi. Yirik yetkazib beruvchilar orasida Eron, Ozarbayjon, Misr va Peru ham bor. So'nggi yillarda Rossiyaga yangi anor eksportini faol oshirayotgan davlatlar qatoriga O'zbekiston va hatto Gruziya ham qo'shildi. Shu bois O'zbekistonda anor yetishtirish tendensiyasi juda istiqbolli, biroq bu biznesning istiqboli ishlab chiqaruvchilar tomonidan qabul qilingan qarorlarning puxta o'ylanganligiga, mahsulot yetishtirish va qayta ishslash texnologiyalari darajasiga bog'liq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston Respublikasining meva-sabzavot mahsulotlarini sotish imkoniyatlarini oshirish uchun har bir mevaning pishish davrida yarmarka va sayllarni o'tkazib turish orqali dunyo bozoriga kirish imkonini beradi. Keling yarmarkalarni o'tkazish va ularning vazifalarini tahlil qilib ko'ramiz. Yarmarka O'zbekiston kompaniyalari uchun o'z mahsulotlarini taqdim etish, eksport geografiyasini kengaytirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bozorlarini va yangi xorijiy hamkorlarni topish imkonini beradi. Chet ellik ishtirokchilarga esa, o'z davlatlari bozorlari uchun meva-sabzavot mahsulotlarini yetkazib berish borasida hamkorlik aloqalari o'rnatishga zamin yaratadi.

### **Yarmarkaning asosiy vazifalari:**

- xorijiy hamkorlarni O'zbekiston Respublikasining meva-sabzavot mahsulotlari yetkazib berish salohiyati bilan tanishtirish;
- meva-sabzavot mahsulotlari yetishtiruvchilar, qayta ishlovchi korxonalar va xorijiy import qiluvchi kompaniyalar o'rtasida uzoq muddatli, istiqbolli va o'zaro manfaatli munosabatlardan o'rnatish;
- meva-sabzavot mahsulotlari yetkazib berish bo'yicha bitimlar tuzish.

Yarmarkada xorijiy qayta ishslash korxonalari, riteyl kompaniyalar, savdo va logistik markazlar vakillari bilan savdo-sotiq qilish bo'yicha shartnomalar tuzish orqali yangi eksport qilish imkoniyatlari oshirishga imkon beradi.

## **Nazorat savollari**


1. Mevachilik fani va dunyodagi rivojlanish tarmog'i tushuntirib bering.
2. Mevachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va xalqaro meva bozorining vazifalari nimalardan iborat?
3. Intensiv meva yetishtirish nima?
4. Qanday meva bog'lari intensiv bog' deyiladi va ularning afzalliklari nimada?
4. Mevachilikning dunyo bo'yicha bugungi holati va kamchiliklari haqida gapirib bering.
5. O'zbekistonda mevachilikning qisqacha tarixiga to'xtaling.
6. Meva yetishtirish texnologiyasi, hozirgi holati va rivojlanish istiqbollarini olma va gilos misolida tushuntirib bering.

## **II-BOB. MEVALI VA REZAVOR MEVALI O'SIMLIKLARNING KELIB CHIQISH MARKAZLARI, BOTANIK TARKIBI VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI, ULARINING MAHALLIY VA XORIJDAN KELTIRILGAN NAVLARI**

### **§2.1. Mevali ekinlarning kelib chiqishi, botanik ta'rifi va biologik xususiyatlari**

Dunyoda mevali va rezavor mevali ekinlarning 50 ga yaqin oilasi, 200 ta tarkumi, 1000 dan ortiq turi va juda ko'p tur xillari mavjud. Har bir madaniy turning ko'plab navlari (masalan, olma, nok, o'rik, shaftoli kabilarning bir necha minglab navi) bor va mevachilik asosan Yer sharining shimoliy qismida yaxshi rivojlangan.

Akademik N.I.Vavilov rahbarligida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida ko'pchilik mevali va rezavor mevali ekinlarning vatani Markaziy Osiyo, Kavkazorti, Xitoy, Hindiston, Fors ko'rfazi va O'rta yer dengizi sohillari ekanligi aniqlangan (23-rasm).




**23-rasm. Dunyoda mevali va rezavor mevali ekinlarning tarqalishi**

Akademik N.I.Vavilov va uning ko'pgina shogirdlari tomonidan olib borilgan ishlari asosida P.M.Jukovskiy 12 ta botanik-geografik markazlarga

ajratildi (24-rasm). Ular quyidagi markazlardan iborat:

**1. Xitoy-Yapon markazi.** Bu markaz o'zi ichiga Sharqiy Xitoy, Koreya Respublikasi va Yaponiyani qamrab oladi. Bu markaz asosan quyidagi mevali ekinlarni paydo bo'lish markazi hisoblanadi: olma, nok, o'rik, gilos, olxo'ri, shaftoli, tut, xurmo va choy. Bu markazda olxo'ri va olmaning oilalari shakllangan.

**2. Indoneziya va Hindi-Xitoy markazi.** Bu markazda sitrusli o'simliklar, banan, mango, palma o'stiriladi, mazkur markazda bir qator qimmatli ko'rsatkichlarga ega o'simliklar kashf etilgan.



**24-rasm. Akademik N.I.Vavilov klassifikatsiyasi bo'yicha mevali va rezavor mevali ekinlarning kelib chiqish markazlari**

**3. Avstraliya markazi.** Bu markazda yong'oqni turli turlarini paydo bo'lishi va rivojlanishi qayd etilgan. Mazkur ilmiy markaz to'liq o'rganilmagan.

**4. Hindiston markazi.** Bu markazda ko'pgina subtropik ekinlarning shakl va turlari o'rganilgan.

**5. O'rta Osiyo markazi.** Ushbu markazga O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg'iz Respublikasi va Afg'oniston kiradi. Bu markazda mevali ekinlarni birinchi va ikkinchi ekinlarni paydo bo'lganligi qayd etilgan. Bu markazda o'rik, bodom, pista hamda keng tarqalgan olma, nok, olxo'ri va gilos ham o'rganilgan.

**6. Old Osiyo markazi.** Ushbu markazga Kavkaz orti, Eron, Turkmaniston,

kichik Osiyo hamda Arabiston yarim oroli kiradi. Bu markaz olmaning ko'pgina turlari, nok, anjir, olxo'ri, olcha, o'rik kabi mevali o'simliklarni qamrab olgan. Old Osiyo markazi behi, funduk, anor, olxo'ri, anjir va gilosning birinchi shakllanish joyi sifatida qayd etilgan.

**7. O'rta yer dengizi markazi.** Bu markaz qadimgi markazlardan biri hisoblanib, qimmatli mevali ekinlardan malina, lavr bargi, olxo'ri, uzum kabilar kelib chiqqan.

**8. Afrika markazi.** Bu markazda asosan kofe daraxti, palma, banan o'simliklari kelib chiqqan.

**9. Yevropa-Sibir markazi.** Bu markaz asosan amal davrida barglari tushadigan ko'pgina mevali ekinlar – malina, oblenika, smorodina, madaniylashgan olma turlari, nok, gilos hamda kriovnikning ikkinchi markazi hisoblanadi.

**10. O'rta Amerika va Amerika markazi.** Ushbu markazga Meksika, Gvatemala, Panama, Kosta-Rika va Gonduras kiradi. Bu markaz hududida ko'pgina subtropik va tropik o'simliklar shakllantirilgan.

**11. Janubiy Amerika markazi.** Ushbu markazda ananas, papaya, choy va qulupnay kabi ekinlar qamrab olingan.

**12. Shimoliy Amerika markazi.** Bu markazda malina, yejovaka, pekan, qulupnay, Kaliforniya yong'og'i, papaya, smorodina, olma va guava kabi mevalar shakllangan.

Manbalarda keltirilishicha, mevali daraxtlar O'rta Osiyo, Kavkazorti, Suriya, Mesopotamiya, Misrda 2–5 ming yillar davomida madaniylashtirib kelinmoqda. Olma, nok, olxo'ri, shaftoli, o'rik, zaytun va anor daraxtlari 4 ming yildan ortiq, gilos, olcha va limon 2 ming yildan ortiq, apelsin va rezavor mevalar 2 ming yilga yaqin vaqt davomida madaniylashtirilib, ekib kelinmoqda.

O'zbekistonda mevali va rezavor mevali ekinlarning 108 ta turi uchraydi, 73 ta turi madaniylashtirilgan bo'lib, shundan 25 ta turi keng tarqalgan.

O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda yovvoyi mevali daraxtlar, asosan, Toshkent, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo va boshqa viloyatlarning tog'li hududlarida o'sadi.

Jahonda yopiq urug'li o'simliklarning 250–500 ming turi uchraydi, degan ma'lumotlar bor (I.Gubanov, 1978). Dunyoga tanilgan yirik olim A.L.Taxtadzhyaning ko'p yillik izlanishlari natijasida yer yuzida tarqalgan gulli o'simliklarning umumiyligi soni 240 ming atrofida ekanligi ma'lum bo'ldi.

Barcha yopiq urug'li o'simliklar deyarli 13 mingga yaqin turkum, 390 dan ziyodroq oilaga mansub. Bularning orasida dunyo bo'yicha keng tarqalgani 30 ming turi murakkab gullilar oilasi hisoblanadi.

Akademik N.I.Vavilov va uning shogirdlari 1923–1940 yillarda dunyoning

65 ta mamlakatiga 18 marotaba ilmiy ekspeditsiya uyuştirganlar. Buning natijasida 250 mingdan ziyodroq o'simlik namunasini yig'ib kelishgan. Shulardan 12600 dan ziyodrog'i mevali o'simliklarga tegishlidir.

O'rta Osiyo va Qozog'istonda 7000 ga yaqini, respublikamiz hududida 4250 turi tarqalgan. Shulardan 2,5–2,6 mingga yaqini dehqonchilikda foydalilaniladigan o'simliklar bo'lsa, 25 turi mevali, rezavor mevali o'simliklar sirasiga kiradi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, o'simliklar olami juda xilma-xildir.

Mevali, rezavor mevali, tok o'simliklari juda xilma-xil bo'lib, Yer yuzida 200 dan ziyodroq turi, 10 mingdan ko'proq navi ekiladi.

Ular yashash davomiyligiga ko'ra daraxtlar, butalar, chala butalar va o'tsimon o'simliklar guruhiga, ishlab chiqarish belgilari va biologik xususiyatlariga ko'ra, urug'li mevalar, danakli mevalar, yong'oq mevalilar, subtropik va citrus mevalar, rezavor mevalar guruhiga, gulining tuzilishi bo'yicha esa guli bir uyli ikki jinsli, guli bir uyli ayrim jinsli, guli ikki uyli ayrim jinsli o'simliklar guruhlariga bo'lib o'rganiladi.

Keyingi yillarda yovvoyi olma, yong'oq, bodom, do'lana, pista, tog'olcha kabi mevali daraxtlar payvand qilish yo'li bilan madaniylashtirilmoqda. Madaniy mevali daraxt navlari urug' ko'chatlarni kurtak payvand qilib ko'paytiriladi.

Yovvoyi mevali daraxtlarning yana bir foydali tomoni shundaki, ular mevali daraxtlarining ba'zi shakllarini yaratishda qimmatli dastlabki material hisoblanadi.

Yovvoyi holda o'suvchi mevali va rezavor mevali o'simliklar madaniy tur va navlarning paydo bo'lishiga asos bo'lgan. Yaniy qimmatli xo'jalik va genetik belgilarni (mevasining xususiyatlari shirin, sersuv, mevaning etdor bo'lishi hamda turli biotik va abiotik omillarga chidamliligi) o'tkazish orqali yangi nav yaratiladi.

Uzoq davrlar mobaynida ular tanlanib, turli tashqi sharoitda o'zgargan va shakllangan, har xil agrotexnika tadbirlariga moslashgan.

Hozirda mevali va rezavor mevali o'simliklarning navlari xilma-xil va juda ko'pdir. Bu navlar botanik belgilari, biologik xususiyatlari, tuproq-iqlim (yorug'lik, namlik, issiqlik) sharoitiga moslashganligi, hosildorlik, mevaning sifati, qimmatli xo'jalik belgilari bilan bir-biridan keskin farq qiladi.

Mevali daraxtlar: urug'li, danakli, rezavor, yong'oq mevali hamda subtropok o'simliklar guruhiga bo'linadi.

Urug'li mevalarga olma, nok, behi, do'lana, danakli mevalarga o'rik, shaftoli, olcha, olxo'ri, gilos va tog'olcha, yog'oq mevalarga yong'oq, bodom va pista, subtropik subtropiklarga limon, apelsin, mandarin, anor, anjir va xurmo kiradi.

Mandarin, apelsin, kivi, greypfrut, banan, ananas, bergamot, sitron va limon sitrus o'simliklar hisoblanadi. O'zbekistonda shakarqamish, choy, lavr kabi o'simliklar ham yetishtiriladi.


Yuqorida nomlari keltirilgan mevali va rezavor mevali o'simliklarning biologik xususiyatlari har xil bo'lib, ular o'ziga xos agrotexnika tadbirlari qo'llanishini talab qiladi.

Har bir tur mevali daraxtning biologiyasi aniqlangandan keyin tuproq-iqlim sharoiti shu o'simlik tabiatiga moslashtirilsa, uning barvaqt hosilga kirishini, uzoq yashashini ta'minlash mumkin.

## §2.2. Mevali va rezavor mevali o'simliklarning o'sib-rivojlanishi

Organik olamning rivojlanishida gulli o'simliklardan meva shakllanadi. Gullar – ko'chalarimizga o'zgacha chiroy bag'ishlashi barobarida, bog'larimizda meva bilan ta'minlaydigan asosiy generativ qism hisoblanadi. Darhaqiqat, gulli o'simliklar hozirgi vaqtida Yer sharidagi eng xilma-xil o'simliklar guruhidir. Olma, gilos, o'rik va boshqa ko'plab tanish daraxtlar gulli o'simliklardir (25-rasm).

Gullar nafaqat hasharotlar va odamlar uchun chiroyli va jozibali, balki ular o'simliklarning hayot sikli aylanishi uchun ham juda muhimdir. Gullar o'simlikning jinsiy a'zolarini ushlab turadi, ular birgalikda urug'chi va changchini o'z ichiga olgan gulning reproduktiv organi sifatida tanilgan. Urug'lantirilgandan so'ng zgotaga aylanadi.



25-rasm. Olma mevasining rivojlanish bosqichlari

Tuxumdonning ichida tuxumdonlar yoki pishmagan urug'lar mavjud.

Shuning uchun karpel himoya qoplamasi bo'lib, tuxumdonlarning urug'ga aylanishi uchun maqbul muhit yaratadi.

Meva hosil qilish uchun karpel birinchi navbatda gulchang donalarini muvaffaqiyatli qabul qilishi kerak. Shundan so'ng, karpel urug'lantiriladi va meva rivojlanishi boshlanadi.

Gulning tashqi qismlari – sepals va gulbarglar steril bo'lib, changlatuvchilarni jalg qilish uchun odatda yorqin va rang-barang bo'lganligi bois urug'lanishni ta'minlashga yordam beradi.

Madaniy o'simliklarning urug'larida dastlabki yovvoyi formalarining ba'zi bir belgilari qurg'oqchilikga, turli kasalliklarga chidamlilik xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin.

Urug ko'chatlarida bunday belgilarning mavjudligi ontogenezning maskur turning tarixiy rivojlanishi – **filogenez** bilan bevosita bog'liqligidan dalolat beradi. Filogenez – mazkur tur yoki avlodning yerda paydo bo'lganidan keying rivojlanish bosqichlariga aytildi.

**Ontogenez** – o'simliklar tuxum hujayrasining urug'lanishidan tortib tabiiy o'limigacha (qurishigacha) bo'lган normal hayot siklida ulardagи vegetativ va generativ qismlarining hosil bo'lish jarayoni.

Ontogenez davrida yuqorida aytigan 5 ta fazaning birin-ketin o'tishi kuzatiladi. O'sish tavsifiga qarab, o'simliklar bir yillik, ikki yillik va ko'p yillik o'simliklarga bo'linib, ularning ontogenezi ham har xil bo'ladi. O'z hayot davrida bir marta gullab meva hosil qiladigan o'simliklar monokarpiklar deyiladi. Bularga hamma bir yillik o'simliklar, ko'p yillik o'simliklardan, bambuk, kovrak (ferula), agava, sabzi, lavlagi va karamlar kiradi. Hayot davrida bir necha marta gul va meva hosil qiluvchi o'simliklarga **polikarpiklar deyiladi**. Bularga hamma ko'p yillik mevali daraxtlar, uyda o'stiriladigan o'simliklardan geran, begoniya, primula va shu kabilar kiradi. Polikarpiklar meva hosil qilgandan so'ng nobud bo'lmaydilar.

Ba'zan monokarpik va polikarpik o'simliklar degan tushuncha shartli ravishda ishlatalishi ham mumkin. O'simliklarning o'sish sharoiti o'zgartirilsa ko'pchilik monokarpiklar polikarpiklarga aylanishi mumkin.

Urug' ko'chatning individual rivojlanishi (ontogenez) jarayonida faqat uning tuzilishiga emas, balki tashqi muhit sharoitiga aloqadorligi ham o'zgaradi. Shunga ko'ra, mevachilik fanining rivojlanishida I.V.Michurin tomonidan berilgan ta'rif asosli edi. Berilgan ta'rifga asosan, mevali va rezavor mevali o'simliklar individual rivojlanish belgilari va xususiyatlari jihatidan har xil bo'lган qator rivojlanish bosqichlariga bo'linadi.

### §2.3. Mevali o'simliklarning individual o'sib-rivojlanishi

Ontogenet yoki individual rivojlanish muayan meva o'simlikning urug'lari unib chiqqandan boshlab to batamom qurib qolgungacha o'tadigan davrdir. Mevali o'simliklar o'z hayotida ma'lum rivojlanish bosqichlarini o'taydi.

**O'sish** – tashqaridan kiruvchi moddalar hisobiga organizmda yangi birikmalar hosil bo'lishi natijasida to'qima va a'zolar hajmining ko'payishi.

**Rivojlanish** – a'zo va to'qimalarning yetilishi, ular faoliyatining mukammallahishi, yangi faoliyatlarining paydo bo'lishi.

Demak, o'simlikning rivojlanish bosqichlari urug' ko'chat, payvand qilingan va vegetativ yo'l bilan payvand qilinmay o'z ildizidan ko'paytirilgan ko'chatdan iborat uchta guruhga bo'linadi.

Urug' ko'chat deb, urug'dan o'stirib va butun hayot jarayonida o'z ildizlarida o'sadigan o'simlikka aytildi. Mevali o'simliklar urug'idan erkin changlatish yo'li bilan olinadigan urug' ko'chat hamda turli nav va turga mansub ikki o'simlikni sun'iy chatishtirishdan olingan urug'dan o'stirilgan duragay urug' ko'chatidan iborat bo'lib, ikki xilga bo'linadi. Birinchisi, odatda, payvandtag yetishtirish uchun, duragay urug' ko'chatlar esa yangi nav yetishtirish uchun ko'chatzorlarda o'stiriladi.

Duragay ko'chatlar bitta avloddan vujudga keltirilganidan qat'iy nazar, ularning har biridagi irsiy xususiyatlar har xil bo'lishi mumkin. Bu ko'chatlarning irsiy xususiyatlariga parvarish qilish sharoitlaru ham ancha ta'sir ko'rsatadi. Natijada duragay urug' ko'chatlar o'zaro bir-biridan farq qilishi va morfo-biologik belgilari ham dastlabki ona avloddan birqancha boshqacha o'zgarishlarni namoyon qilishi mumkin. Bunday duragay o'simliklarning bittasidan vegetativ (payvandlash, qalamcha qilish, bachkilash) yo'li bilan ko'p ming nusxada yangi nav o'simliklarni olish mumkin. Bunday daraxtlarning hammasi birgalikda klonni hosil qiladi. Mana shu klonni tashkil qiluvchi o'simliklar yig'indisi esa **individ deb ataladi**.

Duragayning ikkinchi shakli ikkinchi klonni hosil qiladi, uchinchi shakli uchinchi klonni hosil qiladi.

Urug' kurtakning individual rivojlanishi zigotadan, ya'ni sperma bilan tuxum hujayraning qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan bitta hujayradan boshlanadi. Bu rivojlanish davri o'simlikdagi barcha organlarning qurilishi bilan yakunlanadi.

Vegetativ yo'l bilan ko'paytiriladigan o'simliklarda individual rivojlanishning boshlanishi vegetativ qismlardan yangi o'simlik hosil bo'lish vaqtiga to'g'ri kelmaydi. Bu holda yangi o'simlik urug'dan o'sib chiqqan ona invididining hayot siklini davom ettiradi.

Shuning uchun ham "individ" atamasi faqat boshlang'ich urug' ko'chatga, yan'i urug'dan yetishtiriladigan ko'chatga taalluqli bo'lib, ko'chatlar individual rivojlanish fazalarining hammasini o'taydi. Ko'chatlarning ayrim qismlaridan olingan o'simliklar odatda **klon individlari deb ataladi**.

Urug'dan yetishtirilgan o'simlik yoshligida turli stress omillarga nisbatan ancha moyil bo'ladi. Ularning organizmi turli ta'sirlarga nisbatan yaxshi moslashadi. Yosh urug' ko'chatlari jinsiy hujayrani hosil qila olmaydi va ularda navning barcha belgi va xususiyatlari hali shakllanmagan bo'ladi.

Yosh urug' ko'chatni tegishli muhit sharoitida o'stirish orqali ma'lum bir maqsadga qaratib parvarish qilish, tabiatini o'zgartrish bilan ulardag'i belgi va xususiyatlarni sun'iy ravishda rivojlantirsa bo'ladi.

Daraxt qarigan sari o'zining moyilligini yuqotib boradi va tashqi muhit sharoitida yuzaga keladigan turli stress omillarga nisbatan moslasha olmaydi. Uning mana shu belgi va xususiyatlari tamomila shakllanib, doimiy meva qiladigan bo'lib qoladi.


Mevali o'simliklar urug' ko'chatining butun hayot davomida hujayralardagi plazmaning sifati o'zgarib turadi, shuning uchun ham yoshlik davridan belgi va xususiyatlarning shakllanish, so'ngra esa qarish davriga o'tish bilan yakunlanadi.

Mevali o'simliklarning individual o'sib-rivojlanish qonuniyatini rus olimi I.V.Michurin isbotlab bergen (26-rasm). U mevali daraxtlarda quyidagi 5 ta rivojlanish fazalari (stadiyalari) borligini ko'rsatadi:

1. Urug'ning unib chiqishi (Embrional davri);
2. Yosh ko'chat fazasi va uning birinchi meva berishi;
3. Yetilishi, birinchi 3–5 yildagi meva berish fazasi;
4. Organizmlar morfologik va fiziologik belgilarining stabillanishi (normallashuvi), fazasi va undan keyingi 3–5 yillik davri;
5. Qarilik va qurishi fazalari.

**Embrional davr.** Bu davr zigota vujudga kelgan paytdan boshlanadi, shundan so'ng ona (asosiy) o'simlikda urug' rivojlanadi.

Urug' ko'chatdan o'sgan daraxtning yoshlik davri urug'barglar ko'karishi bilan boshlanib, hosilga kirganidan so'ng 3–5 yilgacha davom etadi. Duragay urug' ko'chatlar embrional davrdagi singari yuqori darajada plastik, yangi hayot sharoitiga moslashishga moyil bo'ladi. Mana shu 3–5 yil davomida meva qilganidan so'ng urug' ko'chatlar mahsuldorligi – yetilish davriga kiradi.



**26-rasm. O'simlik organizmlarining hayotiy fazalari**

O'simliklarning belgi va xususiyatlari shakllanayotgan davrda ular turli muhit omillari ta'sirida o'zgarib boradi. Bu jarayonda urug' ko'chatlarni maqsadga qarab parvarishlash lozim. Mana shu davrda organizmning plastiklik darajasi pasayadi.

Organizmdagi belgi va xususiyatlar barqaror bo'lib, nasldan-naslg'a to'liq taqsimlanib boradi. Bundan keyin o'simlik organizmida o'zgarishlar kamayib, irlsiy o'zgarishlarning boshlanishi bilan aloqador bo'lmaydi.

Ya'ni yuzaga chiqadigan xusiyatlarning o'zgarishi turli tabiy iqlim sharoitlari, tuproq va agrotexnika tadbirlari ta'sirlarida vujudga keladigan fiziologik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

Yetilish davrida o'simlikning yer ustki va yer ostki qismlari imkon qadar rivojlanadi. Bunda shox-shabbalarning strukturasi va meva qilish jarayoni amalga oshadi. Bu davr ancha uzoq cho'ziladi va uning davom etish davriyligi o'simlikning irlsiy xususiyatlari, tuproq-iqlim sharoitlariga va parvarishlash agrotexnikasiga bevosita bog'liqidir.

Uchinchi davrning oxiriga kelib o'simlikning o'sishi va rivojlanishi to'xtaydi, shoxlarning uchki qismlarida organik moddalar so'rila boshlaydi. Fiziologik jarayon auksinning kamayishi etilen garmonining oshishi amalga

oshadi. Bu qarish jarayonining birinchi bosqichini boshdan kechirib, vaqt o'tishi bilan asta-sekin o'simlikning o'suv qismlarida qurish boshlanadi. Bu bevosita o'simlikning qarish davriga kirib kelayotganlik belgisi hisiblanadi.

O'simlik o'zining moyilligini yo'qotib, tashqi muhit o'zgarishlariga moslashish, regenerativ (qayta tiklanish) xususiyatini susaytiradi. O'simlikda oqsilning tiklanishi quyinlashadi, moddalar almashivi sekinlashadi. Bularning hammasi hujayralar umrining qisqarishiga va ularning qurishiga sabab bo'ladi.

Nihoyat, bu paytda yangidan hosil bo'layotgan hujayralarga qaraganda, quriyotgan hujayralar miqdori ko'payib ketadi. Natijada o'simlikning ayrim qismlaridagi to'qimalar va hujayralar o'rtasidagi modda almashinuv balansi butunlay tanazzulga uchraydi. Oqibatda fiziologik xususiyatlar – o'sish, kurtak hosil qilish, gullash, mevalarning pishishi sekinlashib, bu daraxtning qurishiga sababchi bo'ladi.

Urug' ko'chatning turli belgi va xususiyatlari birdaniga paydo bo'lmaydi va birdaniga mustahkamlanmaydi, balki ular o'simlikning rivojlanish davrlari o'tishiga qarab vujudga keladi.

Bu belgi va xususiyatlarning paydo bo'lish qonuniyatlarini bilib olgandan keyin, ularning tashqi muhit sharoitlarini o'zgartirish bilan rivojlantirishini tartibga soluvchi va o'simliklar tabiyatining o'zgartirish, urug' ko'chatning irsiy asosini o'zgartirish bilan birga meva o'simliklarining yangi navlarini yaratish mumkindir.

Urug' ko'chatlar individual rivojlanish davrini o'tishda o'zining dastlabki yovvoyi shaklidagi morfo-biologik xususiyatlar bo'yicha o'sadi. Urug' ko'chatning individual rivojlanish davri ona o'simligi bosib o'tgan yo'lni qisqa muddatda takrorlashdir. Urug' ko'chatlarning bu xususiyatlari o'simlikning ontogenetik va filogenetik rivojlanishlari uzviy aloqador va bir-biriga katta ta'sir ko'rsatishidan dalolat beradi.



Urug'lik ko'chat qancha yosh bo'lsa, ona o'simlik shunchalik ko'proq yashaydi. U qanchalik yoshi katta bo'lsa, unda ona o'simlik belgi va xususiyatlari shuncha ko'p bo'ladi. Misol uchun, yosh urug' ko'chatlarning tikani (yovvoylik belgisi) bo'lsa, ko'chatlar ulg'ayishi bilan bu belgi o'zidan yo'qolib ketadi.

I.V.Michurin novdaning

tubidan uchigacha bo'lgan to'qimalar genetik jihatdan bir xil emasligini aniqlagan. Bachkining ildiz bug'ziga yaqin qismi yovvoyi turda bo'ladi. Ildiz bo'g'zidagi yashirin kurtaklar urug' ko'chatning dastlabki rivojlanish davrlarida shakllanadi. Ulardan birinchi yili ona o'simlik belgilariga ega bo'lgan novdalar o'sib chiqadi.

Duragay urug' ko'chatlar ulg'aya borgan sari ularda madaniy o'simlikning, ota-onas juftining belgi va xususiyatlari vujudga keladi. Shuning uchun ham urug' ko'chatning yuqori qismida o'sib chiqqan novda va shoxlarda madaniy o'simlik belgi va xususiyatlari paydo bo'ladi.

Urug' ko'chat shox-shabbasining turli qismlaridan kesib o'tqazilgan qalamchadan chiqqan o'simlik poyasi bo'y lab hosil bo'lgan novda va to'qimalar sifatida ham turlicha bo'ladi. Urug' ko'chat qanchalik katta va qalamcha qanchalik uning tepe qismidan olingan bo'lsa, ular shuncha yomon ildiz oladi.

Mevali o'simliklarning duragay urug' ko'chat ildizlaridagi to'qimalar ham turlicha rivojlangan bo'ladi. Urug' ko'chatning ildizlari qari daraxtdan qalamcha olib yoki parxish qilib o'stirilgan ko'chat ildiziga qaraganda ancha hayotchan bo'ladi.

Bunda ildizning tanaga yaqin joylashgan qismlari ontogenezning ancha oldingi davrida shakllanganligi uchun yaxshi ildiz oladi. Shox-shabbadan tashqi tomoni tagida joylashgan ildizlarga nisbatan "yovvoyi" o'simliklarning ayrim xususiyatlariga ega bo'lgan o'simlik rivojlanadi.

Payvand qilingan va payvand qilinmagan (vegetativ usulda ko'paytirilgan) meva o'simliklarning to'qimalari poya bo'y lab bir xil bo'ladi. Chunki payvandlangan kurtak yoki qalamcha payvand qilish uchun shox-shabbaning qaysi qismidan (uchidan, o'rtasidan yoki tubidan) olingan bo'lsa, daraxt shox-shabbalari o'sha qismida hayotiy bosqichlarni davom ettiraveradi.

Urug' ko'chatda to'qimalarning poya va ildiz bo'y lab hosil berishga tayyorlanishi har xil bo'lgan vegetativ usulda ko'paytirilgan ko'chatlarda nav xususiyatlari biror tomoniga o'zgarishi mumkin. Buning uchun o'simlikdan olingan qalamchaning rivojlanish bosqichlari har xil bo'lishiga bog'liqdir.

**Payvand qilingan mevali o'simliklar.** Mevali va rezavor mevali o'simliklar urug'i ekilib o'stirilgan ko'chatdan hosil bo'ladi. Boshlang'ich urug' ko'chatlar qalamchalarini o'tqazish, payvand yoki parxish qilish yo'li bilan ko'paytirilgan bo'lib, ular ayni bir navning ayrim klonlarini tashkil qiladi.

Mevadagi biologik jihatdan yaqqol ustutunlik qiluvchi xususiyatlar – hosildorlik, turli tabiy stress omillar (sovuv, qurg'oqchilik, issiqlik, namlik, sho'r va boshq.), turli biotik omillar (kasallik va zararkunandalar)ga chidamlilik, mevaning sifati va sifat ko'rsatkichlari (mevaning yirik-maydaligi, shakli, rangi, tashqi ko'rinishining tovarbopligi va h.k.)ga ega bo'lgan hamda genetik va

seleksiya usulida ko'paytirilgan meva va rezavor mevalarga **nav deb aytildi**.

Vegetativ usulda ko'paytirilgan bitta individ, bitta novda va kurtak ajdodiga **nav kloni deyiladi**.

Boshlang'ich urug' ko'chatlar va klondagi individlar biologik jihatdan o'xshash ham bo'ladi. Bir-biridan farq ham qilib, ularning o'xshashlik tamonlari mavjud. Urug' ko'chat va klondagi individlarning irsiy belgilari ma'lim darajada bir xil bo'ladi.

Bu bevosita irsiy belgilardan sovuqqa va qurg'oqchilikka chidamlilik, hosilga kirish vaqtining davomiyligi va turli biotik va abiotik omillarga bardoshlilik bo'yicha belgi va xususiyatlar rivojlangan bo'ladi. Qalamchalarning va undan o'stirilgan o'simlikning davomiylik darjasini amaliy jihatdan bir xil bo'ladi.


Daraxtdan klon individlarining payvandustidan boshlab, to uning uchigacha joylashgan barcha to'qimalari bosqichlar jihatdan etilgan, urug' ko'chatda esa har xil rivojlangan bo'ladi.

Klon individlari urug' ko'chatidan o'stirilgan daraxtdan shu bilan farq qiladiki, qalamchalar kesib olingandan keyin shu daraxtda qoladigan ildiz va poya qismlari klon individlarida bo'lmaydi. Masalan, payvand qilingan o'simliklarda rivojlanishning "yoshlik" davrida meva hosil qiluvchi hujayralar shakllana boshlaydi.

Shu bois urug' ko'chatdan o'stirilgan daraxtning bachkisi yoshlik bosqichiga, payvandlangan daraxtdan olinib, ildiz ortrilgan qalamchadan o'stirilgan daraxt bachkisi esa yetilish bosqichiga kirgan bo'ladi.

Qalamcha biologik jihatdan qanchalik yosh bo'lsa, undan o'stirilgan klon individlarida yoshlik bosqichiga kirgan urug' ko'chatning belgisi shunchalik ko'p bo'ladi. Qalamcha biologik jihatdan qancha katta bo'lsa, klon individida qarilik belgilari, yaniy kam yashash, sekin o'sish, tez hosilga kirish va boshqa xususiyatlar shuncha ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham ma'lum bir navning klonlari o'zaro katta farq qilishi mumkin (27-rasm).

Agar payvand qilish uchun qalamcha yoki kurtak yoshlik davrini o'tayotgan o'simliklardan olinsa, u holda qarilik bosqichidagi payvandtag va tashqi muhit jihatidan bir-biridan farq qilishi va har xil o'simlik berishi mumkin.



**27-rasm. Payvand qilishda klon individlarini olish tartibi**

Agar qalamcha yoki kurtak yetuklik bosqichini yoki qarilik bosqichini o'tayotgan (bu amaliyotda ko'p uchraydigan holat) navlardan olinsa, uning o'sib chiqqan o'simlikning irsiy belgilari bir xil bo'ladi.

Bu guruhdagi o'simliklarga urug' ko'chatlar (yosh ko'chatlar) payvandtag, hosildorlik davrini o'tayotgan o'simlikdan olingan yetuklik davriga kirgan o'simliklar payvandust bo'ladi.

Urug' ko'chatdan o'stirilgan daraxtning hamda vegetativ yo'l bilan ulardan olib o'stirilgan mevali o'simliklarining yuqorida ko'rsatilgan o'xshashliklarini va ular o'rtasidagi farqni amaliy mevachilikda nazarda tutish kerak.

**Payvand qilinmagan mevali o'simliklar.** Dataxrsimon meva o'simliklarning ko'pchiligi, odatda, payvand qilish yo'li bilan, butasimon meva o'simliklari va mevali daraxtlarning bir qismi payvand qilinmay o'stiriladi.

Payvand qilinmaydigan o'simliklar jumlasiga ildiz bachkilaridan, parxesh va qalamchalaridan yetishtiriladigan o'simliklar kiradi.


Bu o'simliklarda yashirin kurtaklar uzoq saqlanadi va yozilganidan keyin bachkilarga aylanadi. Shuning uchun bunday o'simliklarning zararlangan shoxshabba novdalari tez tiklanadi.

**Qalamchalar orqali ko'payish.** Qalamchalar orqali ko'payish qishloq xo'jaligi amaliyotida eng ko'p qo'llaniladigan uslubdir. Masalan, tok, anor, anjir va boshqa ko'pchilik o'simliklar qalamchalar orqali ko'paytiriladi.

Bunda kuz faslida tayyorlab qo'yilgan yoki bahor faslida olingan novdalar 50–60 sm chuqurlikka, tepasidan 10–15 sm qoldirib ekiladi va yerning namiga qarab doimiy ravishda sug'orib turiladi.

**In-vitro usulida ko'chat yetishtirish.** Jahon tajribasida o'simliklarni ko'paytirishning bir qancha usullari mavjud bo'lib, zamonaviy in-vitro

texnologiyasi eng samarali hisoblanadi (28-rasm).



**28-rasm. In-vitro usulida ko'chat yetishtirish**

Odatda, o'simliklar, xususan, turli meva va rezavor mevalarni urug'dan, novdadon ko'paytirish kutilgan natija bermaydi. Bunga asosiy sabab o'simlikning irlisiyati bir xil bo'limganligi, hajmi va shakli ham turlichaligidadir.

Natijada undan kam meva hosili olinadi. Novdadon chiqqan olingan meva va rezavor mevalar ham sinovdan o'tkazib ko'rilib, daraxt bir tekis o'smaganligiga guvoh bo'lganmiz.


Bugungi kunda ko'paytirishda in-vitro usuli dunyoda eng ilg'or, qulay usul hisoblanadi. Jarayonda o'simlik kurtagi olinib, maxsus usul yordamida virus, zamburug'lardan tozalanadida, sun'iy ozuqa muddaga o'tkaziladi. So'ng o'sha kurtakdan birinchi nihol olinib, undan yana boshqa o'simliklar chiqariladi.

#### **§2.4. Mevali va rezavor mevali o'simliklarning morfologik tuzilishi**

**Vegetativ organlar** (lotincha “vegetation” – o'sish, rivojlanish). O'simlikning ildizi, poyasi, bargi vegetativ organlari hisoblanadi. Mevali va rezavor mevali o'simliklar ildizlar va yer ustki qismlarga bo'linadi.

**Ildiz.** O'simliklarning bargsiz, kurtaksiz yer osti qismiga ildiz deyiladi. Ildiz tuproq ichida joylashadi. Uning vazifasi tuproqdan mineral moddalarining suvdagi eritmasini so'rib olish hamda o'simlikni mustahkam tutib turishdan iborat. Ba'zan ildizda zaxira organik moddalar to'planadi (seret ildizlar). Ayrim o'simliklarda ildiz vegetativ ko'payish organi vazifasini ham bajaradi (29-rasm).

Ildiz o'sib-rivojlanish davrida tuproqqa turli xil moddalar ajratadi (masalan, karbonat angidrid gazi, organik kislotalar, uksus va olma kislotasi, qand va h.k.). Shu bilan birga, ildizlar ko'chma qumlarning ko'chishi, jarliklarning nurashining oldini olishda yordam beradi.



## 29-rasm. Daraxtning asosiy o'suv qismlari

Shunday qilib, mevali va rezavor mevali o'simliklarning hayoti uchun ildizning ahamiyati nihoyatda muhimdir. Ular tuproqdagi mineral birikmalardan organik moddalarning hosil bo'lishida qatnashadi. Shuning uchun ham ildizlar barglar singari o'simlikning faol organi hisoblanadi. Ildizning tuzilishi va vazifalarni bilib olgandan so'ng uning hayotiy faoliyati uchun qulay sharoit yaratib berib, mevali va rezavor mevali o'simliklardan mo'l hosil olish mumkin.

O'simlik ildizlari bosh va yon ildizlardan, qo'shimcha ildizlardan, popuk va ildiz tukchalardan iborat bo'ladi.


Bosh yoki birinchi tartib ildiz murtak ildizchasidan o'sib chiqadi. Bu ildiz faqat urug' ko'chatlarda bo'ladi. Vegetativ usulda ko'paytiriladigan o'simlik qo'shimcha ildiz chiqaradi, bu ildiz o'simlikning poya qismidagi qo'shimcha kurtakdan (qalamcha, parxish va boshqalardan) o'sib chiqadi.

Bosh ildizdan birinchi tartib yon ildizlar, ulardan ikkinchi tartib yon ildizlar o'sib chiqadi va h.k.

O'simlik ildizlari asosiy, o'rtacha va o'suvchi ildizlarga bo'linadi. Asosiy va o'rtacha ildizlar qatoriga asosiy hamda uchunchi va to'rtinchi tartibgacha

bo'lgan hamma yon ildizlar kiradi.

Ular tevarak-atrofga taralib hamda ancha chuqurga kiradi va hammasi birgalikda o'simlik ildizlarlarining asosini tashkil qiladi. Bu ildizlar ancha uzun va yug'on bo'ladi. Bosh va yon ildizlarga yordamchi ildizlardan va ildiz tukchalaridan iborat ancha ingichka va qisqa o'suv va yordamchi (qo'shimcha) ildizlar joylashgan (30-rasm).



**30-rasm. Daraxt ildizining tuproqdagi joylashishi**

Popuk ildizlar kuchli shoxlaydi, juda mayda va ingichka ildizchalar hosil qiladi. O'suv ildizlari o'zining tuzilishi va bajaradigan vazifasiga ko'ra:


- so'rvuchi yoki faol ildizchalar;
- o'suv yoki o'q ildizchalar;
- oraliq ildizcha hamda o'tkazuvchi ildichalarga bo'linadi (31-rasm).

So'rvuchi yoki faol ildizlar ildiz tizimining ko'p qismini tashkil qiladi. Bu ildizlar o'simlik tez o'sayotgan paytda ayniqsa ko'payadi, ya'ni 90 foizgacha ortadi.

Ildizchalar mayda 1–4 mm, ingichka 0,1–3 mm, yangi o'sib chiqqan bo'lib, rangi oq bo'ladi.

Ularning asosiy vazifasi suvni va unda erigan mineral moddalarni tuproqdan olib va ularni o'simlik o'zlashtira oladigan holatdagi birikmalar holiga keltirishdan iborat. So'rvuchi ildizlar uzoq yashamaydi, odatda 14–30 kundan

so'ng faoliyatini to'xtatadi.



**31-rasm. Daraxt ildizining tuzilishi**

**O'q ildizlar.** Har bir daraxt barqarorlik va so'rilihni ta'minlaydigan ildiz va ildizchalardan boshlanadi. Vaqt o'tishi bilan ildizchalar ildizdan oshib ketadi.

Ko'pgina ildizlar chuqurroq o'sishda davom etmaydi, chunki chuqur tuproqlarda ildizlarning yashashi uchun zarur bo'lgan kislorod va ozuqa moddalari yetishmaydi.

**O'tkazuvchi ildizlar.** Lateral ildizlar tuproq yuzasi ostidan tashqariga o'sadi. Ular ko'p miqdorda suv va ozuqa moddalarini o'zlashtiradilar, shuningdek, daraxtni bog'laydi.

Bu ildizlar davomiy bo'lib, ular suv va mineral moddalarni so'ruvchi ildizlardan olib daraxtg'a o'tqazadigan jigar rang tusli ikkinchi navbatda hosil bo'lgan ildizlarning bir oz qismini tashkil etadi.

O'tkazuvchi ildizlar yug'onlasha borib, keyinchalik asosiy va o'rtacha ildizlarga aylanadi.

Yil sayin doimiy ravishda so'ruvchi va o'suvchi ildizlari nobud bo'lib turadi, ularning o'rniga tuproqning yangi-yangi qatlamlariga kirib boradigan yosh ildizlar hosil bo'ladi.

**Qo'shimcha ildizlar.** Bu ildizchalar deb ham ataladigan qiya ildizlar diagonaliga o'sadi va lateral ildizlar bilan bir xil funksiyaga ega.


**Cho'kma ildizlar.** Cho'kma ildizlar lateral ildizlardan pastga qarab bir necha metr chuqurlikda o'sadi. U yerda lateral ildizlar daraxt barqarorligini oshirishga qo'shimcha ravishda tuproqdagi har qanday suv va ozuqa moddalaridan foydalanadi.

**Ildizchalar.** Yuqorida aytib o'tilgan barcha ildiz turlari suv va ozuqa moddalari to'g'ridan-to'g'ri so'rilgan nozik ildizlarni keltirib chiqarishi mumkin.

O'simlik ildizlari yer usti qismiga qaraganda ko'proq shoxlash xususiyatiga ega. Olma, nok daraxtining shox-shabbalari o'z umri davomida 8–9 tartibli shox chiqarsa, ularning ildizlari esa bir mavsumda 6–8 tartibda shox chiqaradi.

Meva o'simliklarining ildizlari baquvvat, tevarak-atrofga taralib va tuproqqa chuqur kirib o'sadi. Rezavor meva ekinlarida ildizlarning tarqalishi yuza joylashganligi bilan tavsiflanadi.

Ildizlarning morfo-biologiyasi va tuproqda joylashish tartibi daraxtning turiga emas, balki naviqa, payvandtagigining tabiatiga, tuproq sharoitiga, yer osti suvlarining sathiga va qo'llanilayotgan agrotexnikaga ham bog'liqdir (32-rasm).



**32-rasm. Daraxt ildizining shakllanishidagi farqlilik darajasi**

Tabiiy sharoitda va qo'llaniladigan agrotexnik tadbirlar bir xil bo'lishidan qat'iy nazar, olma, nok, olchaning ildizlari shaftoli, behi va boshqa daraxt


ildizlariga qaraganda tuproqqa chuqur kiradi va keng tarqaladi.

Tabiiy sharoitda qo'llaniladigan agrotexnika bir xil bo'lishidan qat'iy nazar, olma, nok, olchaning ildizlari shaftoli, behi va boshqa daraxtlarning ildizlariga qaraganda tuproqqa chuqur kiradi va keng tarvaqaylab o'sadi.

Mevachilikda payvandtaglarning ko'pchiligi urug'dan yetishtirilib, bosqich jihatidan yosh payvandtaglar ancha hayotchan va noqulay sharoitga chidamli bo'ladi. Shuning uchun urug'idan o'stirilgan payvandtagining ildizlari, stadiya jihatdan qari hisoblanadigan poyadan (qalamcha va parxeshlardan) olib o'stirilgan payvandtag ildizlariga qaraganda tuproqqa yaxshiroq kirib boradi. Bundan tashqari, bir xil sharoitdagi ildiz tizimining baquvvatligi payvandtagning tur qismiga qarab ham aniqlanadi.

Mevali daraxtlarning ildizlari, barg novdalarga nisbatan ancha plastik bo'ladi. Ildizlarning shakllanish tartibi ko'p jihatdan tuproq qatlamlariga va o'simliklarning parvarish qilish usuliga bog'liq.


Qalin qavatli bo'z tuproqlarda ildizlar juda chuqur ketib va tevarak-atrofga taralib o'sadi. Tuproq tagida shag'al toshli qatlamlari bo'lgan yerlarda ildizlar chuqur joylashmaydi. Ildiz ancha tuproqning yuza qatlamiga taraladi (33-rasm).



**33-rasm. Daraxt ildizi qismlarining joylashishi**

Bundan tashqari, tuproq tubida qattiq, ayrim joylar sement singari qotib qolgan (berch) qatlam bo'lganda ham o'simlik ildizlari yuza joylashadi. Sizot suvlariga yuza joylashgan yerlarda ham ildizlar xuddi shunga o'xshash tarqaladi.

Bunday yerlarda ildizlar sizot suvlariga borib etganidan so'ng atrofga tarala boshlaydi (34-rasm).



**34-rasm. Daraxt ildizini parvarishlashda qator oralariga ishlov berilmagandagi ildizning tarqalishi**

Mevali o'simliklar ildizlarining o'sishida parvarishlash agrotexnologiyalari muhim rol o'ynaydi. Ildizlar tuproq sharoitilari eng qulay bo'lgan tomonga qarab o'sadi.

Shuning uchun, mevali va rezavor mevali o'simliklarni parvarishlash agrotexnologiyalaridan yerni chuqur haydash, qator oralariga ishlov berish, o'g'itlash, sug'orish va boshqa agrotadbirlarni bajarish daraxtlarda baquvvat va yerga chuqur kiradigan ildiz tizimi hosil qilishga qaratilishi kerak.

Bu esa, yer ustki qismining baquvvat rivojlanishiga, mo'l va sifatli hosil olishga hamda o'simliklarning uzoq yashab, noqlay tashqi muhit omillariga chidamli bo'lishini ta'minlaydi.


## **§2.5. Mevali o'simliklarning yer ustki qismlari**

Mevali daraxtlarning yer ustki qismi poyadan iborat bo'lib, poya bu tana, butoqlar, shox va novdalardan tashkil topgan vegetativ organ hisoblanadi. Poya tanani tik joylashgan qismi bo'lib unda butoqlar birikadi (35-rasm). Tananing pastki, birinchi butoqlargacha bo'lgan qismi asosiy tana, yuqori birinchi butog'idan uchigacha bo'lgan qismi esa markaziy **o'tkazuvchi yoki lider shox**

## **deb ataladi.**

Markaziy o'tkazuvchidan oxirgi yilda o'sgan uchki qismi novda davomi deb ataladi. Bevosita tanadan chiqib daraxtning shox-shabbasini tashkil etadigan asosiy va eng yirik butoqlar yoki sklet shoxlar, yoki ona (asosiy) **butoqlar deyiladi**.

Sklet butoqlarga qaraganda kichikroq butoqlar **yarim sklet butoqlar deyiladi**. Ulardan yon shoxlar o'sib chiqadi.



**35-rasm. Daraxtning yer ustki qismlarining tuzilishi**

Ushbu tanadan chiqqan shoxlar birinchi tartib shoxlar deyiladi. Birinchi tartibdan chiqqan shoxlardan ikkinchi tartib shoxlar, ulardan esa keyingi va keyingi tartib shoxlari o'sib ketaveradi.

Daraxt qarigan sari undagi shoxlarning tartiblari ko'payo boshlaydi. Shoxlarning tartibi soni 8–10 taga yetgach, bu son uzoq vaqt davomiy bo'lib o'zgarmay qoladi. Bu shoxlarda yana yon shoxchalar chiqaradigan asosiy poyalar ham bo'ladi.

Daraxt tanasi asosiy qismlarning ma'lum joylaridan o'suv qismb – o'suv va hosil shoxchalar chiqadi. Hosil shoxchalar meva kurtaklari chiqaradi, ulardan esa gul shakllansa, gul o'z navbatida mevaning hosil bo'lishini ta'minlaydi.

Markaziy tana o'zining butoq shoxlari va hosilalar bilan birga daraxtning


shox-shabbasini hosil qiladi. Tananing ildizga aylanadigan joyi **ildiz bo'g'zi deyiladi**.

Urug'dan (urug' ko'chatlardan) yetishtirilgan daraxtlarda u urug' palla bo'g'imidan hosil bo'ladi va chin (tipik) **bo'g'iz deb ataladi**.

Vegetativ yo'l bilan ko'paytirilgan o'simliklarda esa poya va ildiz chegarasini shartli ravishda **ildiz bo'g'zi deyiladi**.

Mevali daraxtlardagi asosiy oziqlantiruvchi organlar – ildiz va barglar bir-biriga poya orqali tutashadi. Suv va unda erigan mineral moddalar daraxtning yog'ochligi orqali ildizdan barglariga o'tadi (36-rasm).

Lub tolalari elaksimon naylar orqali esa organik moddalar poya va ildizning barcha tirik hujayralariga o'tadi.



**36-rasm. Mevali daraxtlarda oziqa moddalarning taqsimlanish fiziologiyasi**

Poyada har xil kurtaklar hosil bo'ladi. Buning natijasida u shoxlaydi, ko'pdan-ko'p barglar va mevalar shoxlari hosil qiladi. Ularni ma'lum vaziyatda tutib turadi, shunindek, kambiy tufayli poyada lub va yog'ochlikning yangi hujayralari paydo bo'ladi. Shunindek, poya zaxira oziqa moddalar (glukoza) to'planadigan joy bo'lib, yilning ba'zi fasllarida assimiliyasi organi bo'lib xizmat qiladi. Ba'zi mevali daraxtlarda poya ko'payish organi ham hisoblanadi.

Poyaning uchi to'xtovsiz o'sadi, bu o'sish bir qancha sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Poya o'sish bilan birga shoxlaydi. Mevali daraxtlarda u monopodial shoxlanadi, ya'ni bosh poya har yili uchidan o'sib, yon kurtaklardan yon


shoxlarni hosil qiladi.

Yon shoxlar ham monopodial o'sadi, lekin bosh poya yon shoxlarga qaraganda kuchliroq va yug'onroq bo'lib o'sadi. Shu bilan bir vaqtida soxta dixotomik shoxlanish ham kuzatiladi.

Bunda kurtakdan pastroqda qarama-qarshi joylashib, bir vaqtida o'sa boshlaydigan qo'ltilq kurtaklarni hosil qiladi. Uchki kurtak esa o'sishdan to'xtashi mevachilikda "raqobatchi" deb atalgan shoxlar o'sib-rivojlanadi.

Bir qator mevali daraxtlar – olma, nok va boshqalarda esa o'sib chiqqan shoxlarga simpodial shoxlanish deb aytildi.

Bunda poyaning yoki shoxning uchki kurtagi birmuncha vaqt o'sishdan to'xtaydi. Uning yonida uchki kurtak tagida hosil bo'lgan yon kurtak rivojlanadi. Bu kurtakdan poya shox asosiy poyasining davomi bo'lgan bargli shoxcha vujudga keladi. Bu shoxcha gorizantal yoki yon tomonga qarab o'sadi. Yon shox ham tezda o'shishdan to'xtab, so'ngra yon kurtak o'sa boshlaydi. Bu kurtakdan yangi novda hosil bo'ladi va bu jarayon davom etaveradi (37-rasm).




**37-rasm. Daraxtning yer ustki va ostki qismlarida oziqaning taqsimlanishi**

Bunday holatda daraxtning shox-shabbasi tarvaqaylab o'sadi. Mevali daraxtlarning har bir turi, navi har xil shoxlanish xususiyatiga ega. Bu xususuyat genetik jihatdan ota-onalari formalaridagi belgi va xususiyatlar bilan bog'liqdir.


Shunday ekan, mevali daraxtlarga shakil berish va ularni butash bilan ularni shoxlanishi tartibga solib turiladi. Mevali daraxtlar butalganda oziqa elementlari qayta taqsimlanadi. Shundan kelib chiqqan holda, mevali daraxtlarning o'sish va hosil nishonalarini shakllantirish tartibga solib turiladi

(38-rasm).



**38-rasm. Ildiz orqali oziqanining taqsimlanishi**

**Shox tiplari.** Odatda shoxlar o'suv yoki vegetativ va meva shoxlariga bo'linadi. O'suv shoxlari baquvvat o'sgan bo'lib, ularda meva kurtaklari bo'lmaydi. Bular shox-shabbalarning har yili yuqoriga va yon tomonlarga o'sib kattalashib borishini ta'minlaydi (39-rasm).



**39-rasm. Mevali shoxlarning umumiy ko'rinishi**

Mevali shoxlar kalta bo'lib, sekin o'sadi hamda ularda mevani hosil qiluvchi kurtaklar joylashgan bo'ladi. Ularning ba'zilari har yil davomida sekin o'sib-rivojlanganidan, barg izlari bir-biri bilan yonma-yon joylashadi. Ammo vegetativ (o'suv) shoxlari bilan generativ (hosil) shoxlari o'rtasida keskin farq yuq. Ilg'or agrotexnika tadbirlarini amalga oshirish orqali vegetativ shoxlarni generativ shoxlarga aylantirish mumkin.

Mevali daraxtlarda vegetativ shoxlar ikki xil bo'lib, shoxlarning bir vegetatsiya davrida o'sib barg va kurtak chiqaradigan qismi novda yoki oddiy novda deb ataladi. Burglar tushib ketganidan so'ng ular shox deyiladi. Novdalarning asosida to'kilgan kurtaklarning izidan tashkil topgan yillik halqlar bo'ladi. Ba'zi tur va nav daraxtlarda (ko'pincha danaklilarda) shu yilgi o'sgan qismining yon kurtaklaridan erta yetiladigan novdalar o'sadi.

Mevali daraxt shoxlari o'z navbatida bir necha xil bo'ladi: urug' mevali daraxtlarda halqali choxcha, nayza shoxchalar, nayzali ingichka novdalar meva butoqchalari tipida bo'ladi. Bundan tashqari, danak mevali daraxtlarda esa gulli shoxcha, to'p mevali shoxcha, pixsimon shoxcha va aralash mevali shoxchalar bo'ladi.

Daraxt shakli aslida genetik jihatdan chizilgan qurilish bo'lib, daraxtning tuzilishi (Hallé va boshqalar, 1978) va meristemalarning faolligiga bog'liq. Chunki ular asosiy o'sish uchun javobgardir (Bell, 1991). Olma daraxtining shakli ota-onas formasidagi belgi va xususiyatning lateral turlar va o'lchamlarning taqsimlashini o'z ichiga oladi.

Kurtaklar yoki novdalarning yoyilishi va joylashishi va bu amal davridagi hosil strukturasining ta'sir qiladi. Olma navining o'sish odati qanday bo'lishidan qat'iy nazar, kurtaklar yoki novdalar yoyilganda yoki tik holatdan ko'proq gorizontal holatga o'tkazilganda, terminal kengaytmasi o'sishi va apikal dominantligi pasayadi, lateral shoxlarning rivojlanishi kuchayadi.

Butun kurtak yoki novdani to'g'ri chiziq bo'ylab yoyish kurtak yoki novdaning uzunligi bo'ylab bir xil o'sishga olib keladi va kuchli tirkak burchagi hosil qiladi. Gorizontalga qanchalik yaqinroq shox yoyilgan bo'lsa, shox bo'ylab rivojlanayotgan kurtaklar, ayniqsa, poydevorga qarab, shunchalik bir xil bo'ladi.

**Kurtak** – bu boshlang'ich poyadir. Rezavor mevali o'simliklarning yer usti qismi – tanasi, butog'i, shoxcha, gul, meva va boshqa qismlari kurtakdan rivojlanadi. Odatda kurtaklar ikki xil: generativ va vegetativ kurtaklarga bo'linadi.

Vegetativ kurtak o'simliklarning boshlang'ich bargli novdasidir. Generativ kurtak esa boshlang'ich to'pgul yoki guldir. Har qanday novda kurtakdan hosil bo'ladi.

O'sish kurtaklarining uchi yug'onlashgan bo'lib, bo'linib boradigan

tangachalar, yon barglar, barg boshlang'ichidan va o'sish konusidan tashkil topgan. Mevali kurtaklarning uchi o'sish konusi bilan tugamaydi, balki gul boshlang'ichlari bilan tugaydi. Mevali kurtaklar o'suv kurtaklariga qaraganda dumoloq va yirik ko'rinishda bo'ladi (40-rasm).



**40-rasm. Mevali daraxt shoxlaridagi kurtaklarning joylashishi**

Ko'zcha va kurtaklar bir-biridan shakli bilan farq qiladi. Ko'zcha bu barg qo'ltig'ida shakllanmagan yosh kurtak hisoblanadi. Odatda kuzga yaqin novdalar shoxlarga aylanayotgan vaqtida ko'zchalar tashqi va ichki tuzilish organlarining fiziologik rivojlanishi hisobiga kurtakka aylanadi. Novda va shoxchalardagi tashqi tomonga qaragan ko'zcha yoki kurtaklar tashqi tanaga qaragan ko'zcha yoki kurtaklar ichki kurtak deb nomlanadi.

O'sish mavsumida vujudga kelgan kurtaklarning bir qismi kelgusi yil o'sib-rivojlansa, bunga **odatiy (normal) kurtaklar deyiladi**. Kurtaklarning ikkinchi qismi, o'sish xususiyatini saqlagan holda uzoq muddat tinim holatida bo'lib, ko'karmay turadi.


Turadigan kurtaklar yashirin kurtak deb ataladi. Normal va yashirin kurtaklar soni daraxtning turi, navi va qo'llanilayotgan agrotexnika tadbirlariga bevosita bog'liqidir. Olma va nok daraxtlarining yashirin kurtaklari bir necha o'n yilgacha o'sish xususiyatini saqlab turadi.

Danak mevali daraxtlar – o'rik, olxo'ri, gilos, shaftoli, olcha yashirin kurtaklarining o'sish xususiyatini ancha kam saqlaydi. Yashirin kurtaklar o'simliklarni sovuq urganida, kesganda yoshartirish uchun butalganda o'simlikning yuqolgan organlarini qayta tiklash uchun fiziologik rivojlanish bosqichini o'tab beradi.

Ko'pincha yashirin kurtaklardan baquvvat va tik o'sadigan novdalar hosil bo'ladi. Bunday novdalar mevachilikda g'ovlagan yoki **bachki novdalar deyiladi**.

Vegetativ yoki o'suv kurtaklari quyidagi tiplarda bo'ladi: uchki kurtak, bu asosan shoxlarning uchida bo'ladi. Uchki kurtakdan baquvvat barg novdalari rivojlanib, uchi yana o'sish kurtagi bilan tugaydi. Novdaning barg qo'lting'ida qo'lting' kurtak hosil bo'ladi.

Odatda, barg qultig'ida uchta kurtak hosil bo'lib, bulardan ikkitasi yoki bittasi poya yoki navda po'stlog'i ichida joylashgan bo'ladi. Agar tashqi qultiq kurtak olib tashlansa, boshqasi rivojlanadi. Qo'lting' kurtak ham xuddi uchki kurtaklarga tuzilgan bo'ladi (41-rasm).



**41-rasm. Olma kurtagining ko'rinishi**

Uchki kurtak qultiq kurtakning rivojlanishini sekinlashtiradi, lekin u olib tashlansa yoki qurib qolgan taqdirda oziqa moddalarning taqsimlanish muvozanati o'zgarish yuzaga kelib, undan pastda joylashgan yon kurtaklar rivojlanishini ta'minlaydi. Bunga asosiy sabab, uchki kurtaklarning apikal qismida ma'lum miqdorda auksin garmonlarining to'planishi yon kurtaklarning o'sishiga halaqit berishi bilan tushintirish mumkin.

Bunda, uchki kurtak olib tashlanishi auksin garmonining miqdorining kamayishi hisobiga mavjud oziqa va garmon pastki kurtakda o'zining faoligini oshirish hisobiga fiziologik muhitni qayta shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Bu o'simlikdagi tabiy fiziologik jarayon hisoblanadi.

Oddiy kurtaklar reproduktiv organ bo'lib, gul va meva beradi. Mevalar to'kilgandan keyin gul kurtak joylashgan yerda meva bandining izini qoldiradi. Bu yerda qayta meva hosil bo'lmaydi. Gul kurtaklar o'suv yoki meva shoxlarining yonida joylashadi (42-rasm).



**42-rasm. Olma kurtagidan meva hosil bo'lishi**

Gul kurtak o'suv va meva shoxlarining yonida joylashadi. Ular o'rik, shaftoli, olxo'ri, olcha, gilos, bodom, shuningdek, yong'oq (erkak gulida), smorodina, limon daraxtlarida uchraydi.

Aralash kurtaklardan gul va mevadan tashqari barg va bir-uchta o'rribosar novdalar o'sib chiqadi. Mevalar to'kilgandan keyin bahorda aralash kurtak joylashgan joyda o'rribosar novdalari bo'lган meva xaltasi qoladi.

Aralash kurtaklar urug' mevali daraxtlarda, shuningdek, anjir, malina, maymunjon, xurmo, zaytun, yong'oq (urg'ochi gulida)da uchraydi. Ular mevali shoxchalarining uchida joylashishi mumkin, ammo yoz oylarida yuqori agrotexnik tadbirlar qo'llanilganda olmaning baquvvat bir yillik mevali shoxlarning yonida joylashadi.

Terak, chinor, soxta kashtan, nastarin kabilarning kurtagi yirik, tut, tol, qayrag'och, o'rik, olma va boshqalarning kurtagi nisbatan mayda bo'ladi. Ana shunday kurtaklarga qarab o'simliklar turini aniqlash mumkin.

Kurtaklar novdada ketma-ket, qarama-qarshi halqa hosil qilib joylashadi. Novdaning uchida joylashgan kurtaklar uchki kurtak, barg qo'lting'ida joylashganlari yon kurtak deb ataladi. Shuningdek, qo'shimcha kurtaklar (ildizda, bargda) ham bo'ladi.

Quyida ko'pchilikka tanish manzarali o'simlik – terakning kurtaklari bilan tanishamiz. Ular novdada ketma-ket joylashadi, eng uchidagi kurtak yirik,

pastdagilari maydaroq bo'ladi. Terakning kurtaklari tashqi tomondan pishiq qobiq (tangacha barg) bilan o'ralgan.

Bu qobiq ulami, ayniqsa, qishning qattiq sovug'idan, kasallik tug'diruvchi bakteriya, zamburug'lardan saqlaydi. Kurtaklar uzunasiga kesib qaralsa, qobig'i ostida joylashgan boshlang'ich poyani va zich bo'lib joylashgan boshlang'ich barglami ko'rish mumkin.

Kurtaklar qishki tinim davridan o'tgach o'sa boshlaydi. Tajribadan ma'lumki, kech kuzda barglar to'kilgandan keyin daraxt va butalarning shoxlaridan kesib olib suvgaga solib qo'yilsa, kurtaklar ko'p vaqtgacha bo'rtmay turaveradi. Agar shoxchalar yanvarning ikkinchi yarmi-fevralda suvgaga solib qo'yilsa, kurtaklari tez o'sa boshlaydi (43-rasm).

I-bosqich



II-bosqich



III-bosqich



#### 43-rasm. Kurtakning shakllanish jarayoni

Kurtaklarning bo'rtib, yangi barg yoki gul chiqarishi ma'lum bir vaqt ichida o'tadi. Bu davr faza deyiladi. Erta bahorda o'rik, shaftoli, bodom kabi o'simliklarda dastlab generativ, so'ngra vegetativ kurtaklar yoziladi.

Daraxt kurtaklari poyaning uchida yoki barg qo'ltig'ida paydo bo'ladi. Yangi o'sayotgan kurtaklar asosan barg poyasining shoxga tutashgan ustki qismida joylashgan bo'ladi. Ular gul yoki kurtak hosil qilish uchun mas'uldir.


Kurtak ham, urug'lar kabi tur va navning genetik irsiy belgilarga ega bo'lган generativ organ hisoblanadi. Bu holatni uyqudagи kurtaklarda (tinim davrida) va boshqa o'simliklarning boshqa boshqaruv organlarida ham ko'rishimiz mumkin.

**Kurtakning xususiyatlari.** Mevali daraxtlar ikki xil kurtak hosil qiladi:

1. Mevali kurtaklar changlanganda meva hosil qiladigan gullarni o'z ichiga oladi. O'sish kurtaklari keyinchalik rivojlanayotgan meva orqasida paydo bo'ladi.

2. Yog'och yoki o'suv kurtaklari barglarning asosidan keyin shakllanadi. Bu yangi kurtak bo'lib, gul hosil qilmaydi.

Mevali daraxtlardagi kurtaklar sifat jihatidan bir xil emas. Uchki kurtaklar odatda boshqa kurtaklardan yirikroq bo'ladi. Novdadagi kurtaklar yuqorida pastga qarab o'sa boshlaydi. Novdalardagi kurtaklarning bahorda uyg'onish jarayoni ularning o'tgan yili yozdagи hosil bo'lish jarayoniga tayyor bo'ladi (44-rasm).



**44-rasm. Kurtakning rivojlanishi**

Novdalarning pastki qismida juda erta hosil bo'lган kurtak kelgusi yil bahorda ochila boshlaydi yoki aksincha – ochilmaydi. Shunga ko'ra, novdadagi kurtaklarning o'sish davrida paydo bo'lishi shoxning pastidan yuqorisiga qarab tezlasha boradi.

Kurtakning sovuqqa chidamlilik darajasi, ancha past haroratda o'sib-rivojlanish xususiyati ham o'sha yo'l bilan kuchaya boradi. Shunday qilib, novdaning uchidagi va keyinchalik kurtaklar ulardan pastda joylashgan kurtaklarga qaraganda bahorda ertaroq o'sa boshlabgina qolmay, balki ancha past haroratda ham o'sa oladi. Gul kurtaklari ham ana shunday qonuniyat asosida o'sadi.

Daraxt kurtaklari sifati bu kurtaklarning novdalarda shakllanish vaqt va joyiga bog'liq. Irsiyati bir-biriga yaqin yoki bir xil bo'lsa-da, har bir kurtak tashqi muhitning turli sharoitlarida shakllanishini unitmaslik kerak.

Bu irsiy belgilarning tabiy sharoitga moslashishi bilan bog'lash mumkin. Shunday ekan, yorug'lik, issiqlik, namlik, kunning uzunligi ta'sirida bahordan to kuzgacha kurtklar shakllanish jarayoni bosqichma-bosqich o'zgaradi. Daraxt novdasida kurtaklarning paydo bo'lishi ham har xil davom etadi.

Kurtaklarning uyg'onish darajasi, ya'ni kelgusi yili to'la yoki qisman uyg'onib, bargli novdalar berish xususiyati har xil bo'ladi. Danak mevali daraxtlarda kurtaklarning uyg'onish darajasi yuqori bo'ladi. Ularda novdalardagi barcha kurtklar deyarli uyg'onadi, urug' mevali daraxtlarda esa ularning ma'lum qismi uyg'onmay qoladi.

Kurtaklar tez yetilishi jihatidan ham bir-biridan farq qiladi. Daraxt shoxida shu yilda vujudga kelib, rivojlanish bosqichini o'tab bo'ladigan va yozgi shoxchalar beradigan kurtaklar tez yetiladigan kurtak qatoriga, shu o'suv mavsumida vujudga kelib, kelgusi yili bargli novdalar chiqaradigan kurtaklar kech yetiladigan kurtak qatoriga kiradi. Mevali daraxtlar kurtaklari har xil novda chiqarish xususiyati bilan tavsiflanadi.

Uyg'onganda ko'p sonli o'suvchi novdalar chiqaradigan kurtaklar novda chiqarish xususiyati yuqori bo'lgan kurtaklar hisoblanadi. Agar meva yoki to'p barg hosil qiluvchi tipdag'i kalta novdachalar paydo bo'lsa, kurtaklar uncha ko'p miqdorda novda chiqara olmaydi.

Mevali daraxtlarlarning tur va navlari novdalari har xil tiklash xususiyatlari, ya'ni qari hamda sklet shoxlarlarda yangi chiqara olish xususiyatlari bilan farq qiladi. Bu xususiyat mevali daraxtlarni yoshartirishda muhim ahamiyatga ega.


**Mevali shoxchalar va gul kurtaklarining hosil bo'lishi.** Gul kurtaklari mevali o'simliklarda gullashdan bir yil oldin hosil bo'ladi va shakllanadi.

**Olma.** Olma daraxtida bu kurtaklar halqali, chiviqsimon va nayzali shoxchalarda, o'suv shoxlarining uchlari hamda barg qo'ltig'larida hosil bo'ladi. Mukkamal rivojlangan halqali shoxchalarda meva kurtaklari halqalar vujudga kelgan birinchi yilida, ya'ni ikki yillik shoxchalar hosil bo'ladi. Keyinchalik halqalar shoxchalarda gul kurtlar har yili hosil bo'ladi (45-rasm).

Chiviqsimon va nayzasimon shoxchalarda meva kurtaklari o'sha shoxlar paydo bo'lgan yiliyoq, kamdan-kam hollarda ikkinchi va uchunchi yillarda hosil bo'ladi. Olmaning ko'pgina navlari, asosan halqali shoxchalardagi kurtak hisobiga hosil beradi. Mevali shoxchalarining tiplari daraxtning yoshi va butalish tizimiga bog'liq holda o'zgartirish mumkin.

Gul kurtaklarning ko'pchilik qismi 2-9 yoshli shoxlarda joylashadi. Normal mevali kurtaklarning yozda hosil bo'lib, qishga yaqin shakllanganlari

kelgusi yil bahorda ochiladi. Ba'zida mevali kurtaklar bahor va yozda shakllanadi, ular hosil bo'lgan yili ochilib, kech kuzda meva hosil qilish bilan tugaydi. Olma daraxtning gul kurtaklari ochirganida birinchi navbatda besh-etti bargdan iborat to'p barg, so'ngra esa g'unchalar paydo bo'ladi. To'p gul soxta soyabon gulbandlarga joylashgan 3–5 dona, ba'zan 8 dona guldan iborat bo'ladi. Dastlabki uchki gul kurtaklar bir yillik shoxchadan, so'ngra esa ko'p yillik shoxchadan ochiladi.



**45-rasm. Olma kurtagini shakllanish jarayoni**

**Nok.** Nok daraxtining gul kurtaklari ham olma daraxtidagi singari hosil bo'ladi. To'p guli 5–8 ta guldan iborat. Nokning ba'zi yovvoyi turlari va madaniy navlarida asosiy gullarning gulbandlaridan ikkinchi tartibli gular vujudga keladi.

Bunday to'p guldag'i gullarning soni 14–17 tagacha yetadi. Yevropa nav noklarning bir yillik shoxchalarida, odatda meva kurtaklar hosil bo'lmaydi. Behida gul kurtaklar bo'lmaydi. Barg qo'lting'ida yoki novdalar uchida yozning oxirida aralash kurtaklar hosil bo'ladi (46-rasm).




**46-rasm. Nok kurtagining shakllanish jarayoni**

Ularning rivojlanishi kalta – 10–15 sm novda chiqaradi, ularning uchida bitta gul hosil bo’ladi. Meva tukkanidan keyin novda o’sishdan tuxtaydi. Agar meva tugmagan bo’lsa, yuqoridagi yon kurtakdan yangi novda o’sib chiqadi. Bu novdalar kuzga borib juda o’sib ketadi. Gulining bunday o’ziga xos ravishda shakllanishiga ko’ra behi kech, nok va olmadan keyin gullash jarayoniga kiradi.

**O’rik.** O’rikda gul kurtaklari bir yillik o’suv novdalarida, to’p meva va chiviqsimon shoxchalarda bo’ladi. Chiviqsimon shoxchalar 5 yil yashaydi. Gul kurtaklari 2–3 yillik shoxchalarda joylashadi.

O’rik daraxti bir yillik shoxning ikkinchi va uchinchi bo’g’imidagi novdalarda meva kurtak hosil qilish va ko’paytirish xususiyatiga ega. Baquvvat novdalarda gul kurtaklar butun novda bo’ylab, zaif novdalarda esa asosan novdaning pastki yarimida joylashadi (47-rasm).



**47-rasm. O'rik kurtagining shakllanish jarayoni**

Barg va gul kurtaklar barg qo'lltig'ida 2–3 dona shingil hosil bo'ladi. Kurtakdagi gullar soni bitta, kamdam-kam hollarda ikkita bo'ladi.

**Shaftoli.** Shaftolida gul kurtaklar yon kurtaklar ko'rinishida, bir yillik o'suv shoxchalarida, to'p meva shoxchalarida, nayzali meva shoxchalarida va ingichka novdalarida hosil bo'ladi. Kurtaklarning ko'p qismi bir yillik novdalarda joylashadi (48-rasm).

O'suv novdalaridagi barglarning asosida bir yoki ikkita qo'shimcha barg hosil bo'ladi. Bu barg qo'lltiqlarida gul kurtaklar hosil bo'ladi. Asosiy barg qo'lltig'ida o'suv va ba'zan gul kurtak hosil bo'ladi. To'p kurtaklar ana shu yo'l bilan hosil qiladi va ularning o'rtadagisi o'suv kurtagidan iborat bo'ladi.



**48-rasm. Shaftoli kurtagining shakllanish jarayoni**

To'p kurtaklar ikki va uch qo'shaloq bo'ladi. Meva va o'suv kurtaklarining navbatlashishi har xil bo'ladi. Ikki qo'shaloq kurtakning ikkalasi ham gul kurtak, kamdan-kam hollarda ikkalasi o'suv yoki bittasi gul kurtak va bittasi o'suv kurtagi bo'ladi, uch qo'shaloq kurtaklarda esa ko'proq har xil kurtaklar navbatlashadi, yon kurtaklar, gul kurtaklar, o'rtasidagi esa o'suv kurtak bo'ladi.

To'p kurtaklardan tashqari, novdalarda o'suv yoki gul kurtaklardan iborat yolg'iz kurtaklar ham joylashadi. Agar novdaning ma'lum qismida faqat gul kurtak joylashgan bo'lsa, bu holat kamdan-kam uchraydi, hosil bergenidan keyin novdaning bu qismidagi novda va barglar tushib ketib yalang'ochlashib qoladi.

**Gilos.** Gilosda gul kurtaklar olcha qaraxti kabi hosil bo'ladi. Lekin ularning ko'pchilik qismi to'p mevali shoxchalarda joylashadi. Olchadan farqi shundaki, gilos kurtaklari ikki yillik va undan eski to'p gul mevali shoxchalarda, olchada bir yillik novdalarda va ikki yillik to'p mevali shoxchalarda joylashadi. Shuning uchun kurtaklar oddiy bo'lib, to'p guli 2–4 dona guldan iborat (49-rasm).

Olma va nokning gul kurtaklari mevali shoxlarning uchki qismida bo'ladi. Yoz issiq kelgan yillarda yon kurtaklar bir yillik baquvvat novdalarda hosil bo'ladi. Yoz oylari davomida bitta kurtakdan gul, meva va o'rinosar novdalar rivojlanib bularda gul kurtaklar hosil bo'ladi. Bu kurtaklar kelgusi yil hosil beradi.

Danak mevali daraxtlarda novdadagi gul kurtaklarning ko'p qismi oddiy tuzilgan bo'lib, novda va shoxlarning yonida joylashadi. Ular gul (shaftoli va

boshqalarda) yoki 2–3 ta bargchali gul beradi (olchada). Gul kurtakning hosil qilish joyi urug' mevali daraxtlardagiga qarama-qarshi bo'ladi, yangi o'sish nuqtasi hech qachon yangilanmaydi. Agar gul uzib tashlansa, uzilgan joyidan barglar kuchli rivojlanadi.



**49-rasm. Gilos kurtagini shakllanish jarayoni**

Ayrim tur daraxt navlarida o'suv shoxlarining yashash muddati har xil. Shoxlardagi novdalarning yoshi ularning joylashishiga qarab farq qiladi. Daraxtning yoshligida birinchi hosil nishonalarining shakllanish davrida asosiy shoxlarda hosil bo'lган o'suv novdalari uzoq yashaydi.

Hosil nishonalarining shakllanish davrida yuqori tartibli shoxlarda hosil bo'lган o'suv novdalari kam yashaydi. Shuning uchun, olm ava nokning shoxlaridagi birinchi tartibli asosiy shoxlarda yigirma va undan katta yoshdagi ko'p yillik kalta mevali shoxchalarni uchratish mumkin. Bu vaqtda, xuddi o'sha daraxtning barg qoplamidagi singari ko'p yillik kalta mevali shoxchalar barvaqt qurib qoladi.

Bunday qonuniyat tashqi muhit omillari ta'sirida, ya'ni soyalab qolish, hosilni yig'ib-terib olish vaqtida shoxlarning sinishi, zararkunandalar bilan zararlanishi oqibatida buzilishi mumkin.

Urug' mevali daraxtlarning o'suv shoxchalari danak mevali daraxtlarning o'suv shoxlariga qaraganda uzoqroq yashaydi. Shu bois barg qoplami qalinroq

bo'ladi. Buning natijasida urug' mevali daraxtlar danak mevali daraxtlar bilan bir xil sharoitda o'ssa ham, danak mevalilarga qaraganda ko'proq hosil beradi.

Danak mevali daraxtlarning o'suv shoxlarining uzoq yashamasligiga sabab, ular kurtagini tez yetilishidir.

Urug' mevali turlarining ko'pchilik navlari bir mavsumdagi o'suv davrida bitta o'rniغا ikki-uchta barg shoxchalari hosil qila oladi.

## §2.6. Barg va uning fiziologik xususiyatlari


O'simlik hayotida eng muhim funksiyalardan bo'lgan fotosintez va transpiratsiyani faqatgina barg bajara oladi (50-rasm). Yuksak yashil o'simliklarda barg o'simliklarning eng muhim organlaridan biri bo'lib, ular quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

1. Barg havodan karbonat angidrid gazini va ildizi orqali tuproqdan suvni so'rib olib qo'yosh energiyasi ta'sirida organik moddalar hosil qiladi – havoga sof kislород ajratib chiqaradi. K.A.Timiryazyevning ta'bıricha, barg organik moddalar hosil qilishda birdan-bir tabiiy laboratoriyaadir.

2. Barg ildiz yordamida suvning so'rilgan tuzli eritmalarini o'simliklarning hamma organlariga ko'tarilishiga yordam beradi.

3. Barglar toza suvni bug'lantirib transpiratsiya vazifasini bajaradi va yana tuproqdan mineral moddalarga boy bo'lgan suvni o'zlashtiradi. Ayniqsa, yozning issiq kunlari bug'langan suv o'simliklarni qizib ketishidan saqlaydi.

4. Barg o'simliklarning tashqi muhitga moslashish organi bo'lib xizmat qiladi. Nam tuproqlarda o'sadigan o'simliklarning barglari suvni ko'p bug'lantirishga moslashganligi uchun odatda yirik bo'ladi.



50-rasm. Bargning funksiyasi


Qurg'oqchil mintaqalardagi o'simlik barglari ancha mayda, qayishsimon, dag'al va qattiq bo'ladi – suvni kam bug'lantiradi. Barg novdaning o'sish konusdagi meristema hujayralaridan hosil bo'ladi. Gulli o'simliklarning to'la rivojlangan bargi uchta asosiy qismidan: barg plastinkasi, bandi va yon bargchalardan iborat. Ayrim bir va ikki pallali o'simliklarda barg bandi o'rnida barg qini bo'ladi.

O'simliklarning barglari shakli jihatidan juda xilma-xil bo'lishiga qaramay, ular ikki guruhga: oddiy hamda murakkab barglarga bo'lib o'rganiladi. Barg bandida bitta barg plastinkasi o'rashgan bo'lsa, **oddiy barglar deb ataladi**. Oddiy barglar kuzda o'z bandi bilan birga to'kiladi. Buni olma, limon, mandarin, shaftoli barglarida kuzatish mumkin.

Agar barg bandida bir nechta barg plastinkachalari o'rashgan bo'lib, kuzda oldin barg plastinkachalari va asosiy barg bandi alohida-alohida to'kilsa **murakkab barg deb ataladi**. Barg bandi shapalog'ini quyoshning yo'nalishiga qarab o'zgartirib turish va bargning mustahkamligi vazifasini bajaradi. Shuningdek, barg tomirlarining joylashuvi bilan ham farqlanadi.

Voyaga yetgan bargning ichki tuzilishi yashash muhitining turli-tuman sharoitlari bilan bog'liq holda o'rganish muhim. Chunki har qanday o'simlikda bargning asosiy massasi, parenxima ustki va ostki epiderma hamda oraliq qism mezofildan iborat.

Mezofil o'tkazuvchi nay bog'lamlari ksilema va floema tolalari hamda sklerenxima va kollenximani birlashtirgan mustahkam to'qimalardan tashkil topgan. Bundan tashqari, mezofil har xil chiqindi moddalar – efirmoylar, oshlovchi moddalar va shunga o'xshash moddalar to'planadigan o'rindiq ham hisoblanadi (51-rasm).




51-rasm. Barg va ildizning bog'liqlik ko'rsatkichi

Bargning qoplovchi to'qimasi – epaderma bargda kechadigan gaz almashinuvi va transpirasiya jarayonlarini boshqaradi. U bargni tashqi mexanik ta'sirdan, suvsizlanishdan, bargning asosiy qismiga turli xil zaharli moddalar va mikroorganizmlarning kirishidan himoya qiladi (52-rasm).

Odatda, epiderma bir-biriga zinch joylashgan bir qavat hujayralar tizimidan iborat. O'simliklarning aksariyat qismida epiderma kutikula bilan qoplangan. Iqlimi quruq va issiq o'lkalarda kutikula qatlami qalin joylashgan. Epiderma hujayralarining devori qalinlashgan bo'ladi.

Bargning ustki epiderma hujayralari, bargning osti ostki epiderma hujayralariga nisbatan katta bolib, nur o'tkazish rolini o'ynaydi. Epidermaning bu xildagi bitta katta hujayrasining ingichka uch qismi bilan mezofilning 3–6 ta ustunsimon polisad hujayrasi tutashgan bo'ladi. Epiderma hujayrasida, odatda, xlorofil bo'lmaydi.




**52-rasm. Ildiz orqali bargning transperasiya jarayoni**

Polisad parenxima hujayralari yupqa pardali cho'ziq bo'ladi. Ular bir-biri bilan tutashgan holda bargning ust tomoniga nisbatan perpendikulyar joylashadi va ichi hujayra devori bo'ylab joylashgan xloroplast bilan to'la bo'ladi.

Bular bargning mezofil qismida joylashgan bo'lib, fotosintez jarayonida faol ishtirok etadigan to'qimalar hisoblanadi.


Bargning shakli va uning qalnligi turli mevali o'simliklarda bir-biridan keskin farq qiladi. Bunga asosiy sabab uning genetik formalardagi ota-onadagi belgilar bo'lsa, ba'zan tashqi stress omillar ta'sirida ham ularning o'zgarishini kuzatishimiz mumkin. Misol uchun ba'zi mevali daraxtlarning barhi tuk bilan qoplanganligi tashqi muhitdan himoya qilish yoki suvni kam bug'latishga

moslashganligidir (53-rasm).



**53-rasm. Mevali o'simliklarda barg xususiyatining o'zgaruvchanligi**

Ko'pchilik o'simliklarda u bir qavat, lekin ayrim hollarda ikki qavat va qisman ko'p qavatli bo'lib joylashgan polisad hujayralar ham uchraydi. Polisad parenximasining ikki yoki ko'p qavatli bo'lib joylashishi o'simlikning yorug'sevarlidan dalolat beradi (54-rasm).



**54-rasm. Bargning ichki tuzilishi**

Labsimon parenxima hujayralarning oraliqlari ancha katta, nisbatan yumshoq hujayralardan tashkil topgan. Bu parenximada xloroplast miqdori ustunsimon parenximaga nisbatan oz bo'ladi. U ventilyatsion parenxima deb ham yuritiladi.

Hujayra oralig'i keng bo'lganligi bois bu parenxima fotosintez jarayonida qatnashishi bilan bir qatorda, bargda sodir bo'ladigan gaz almashinish jarayonida ham faol ishtirok etadi.

Yashil o'simliklarning bargi eng muhim organlardan biri bo'lib, unda fotosintez jarayoni sodir bo'ladi. Shuning uchun ham barg asosiy fotosintetik organ deb ataladi. Uning hujayraviy tuzilishi transpiratsiya, nafas olish va asosan fotosintezga moslashib tuzilgan. Barg plastinkasining ustki va ostki tomoni po'st bilan qoplangan.

Qoplovchi to'qima epidermis, bir qator zikh joylashgan hujayralardan iborat. Bu hujayralar yupqa po'stli, rangsiz va tiniq bo'lib, yorug'likni yaxshi o'tkazadi.


Po'st hujayralari orasida joylashgan maxsus juft hujayralar og'izchalar vazifasini bajaradi. Ularning turgor holati o'zgarib turishi mumkin (shunga qarab ular o'rtasidagi teshikcha ochiladi yoki yopiladi). Og'izchalar ko'pchilik o'simliklarda bargning pastki tomonida, ayrimlarida esa ustki tomonida ham bo'lishi mumkin. Fotosintez jarayonida ana shu og'izchalar orqali karbonat angidrid yutilib, molekulyar kislород ajralib chiqadi.

## §2.7. Xloroplastlar va uning fiziologik xususiyatlari

**Xloroplastlar.** Fotosintez jarayoni asosan barglarda va qisman yosh novdalarda sodir bo'lishining sababi, ularda xloroplastlarning borligidir. O'simliklarning fotosintez tizimi xloroplastlarda mujassamlashgan. Xloroplastlar barcha tirik organizmalar uchun kimyoviy energiya manbai – organik moddalarni ishlab chiqaradi.

Bargning har bir hujayrasida o'rtacha 50 tagacha va ayrimlarida undan ko'proqham xloroplastlar bor. Xlorofill pigmenti xloroplastlarda joylashganligi uchun ular yashil rangda bo'ladi.

Xloroplastlarda fotosintez jarayonining hamma reaksiyalari ro'y beradi: yorug'lik energiyasining yutilishi, suvning fotolizi (parchalanishi) va kislородning ajralib chiqishi, yorug'likda fosforlanish, karbonat angidridning yutilishi va organik moddalarning hosil bo'lishi. Shunga asosan ularning kimyoviy tarkibi va strukturaviy tuzilishi ham murakkab tavsifga ega (55-rasm).




**55-rasm. Xlorofill pigmenti xloroplastlarda joylashishi**

Xloroplastlar tarkibida suv o’rtacha 75 foizni tashkil etadi. Qolganlari quruq moddadan iborat. Umumiy quruq moddalar hisobida oqsillar 35–55%, lipidlar 20–30%, qolganini mineral moddalar va nuklein kislotalari tashkil qiladi. Xloroplastlarda juda ko’p miqdorda fermentlar va fotosintezda ishtirok etadigan hamma pigmentlar joylashgan. Turli xil o’simliklar xloroplastlar soni, shakli, hajmi bilan bir-biridan farq qiladi (56-rasm).

Yashil o’simliklarning barglarida xloroplastlar uch xil yo’l bilan hosil bo’lishi mumkin:

- 1) oddiy bo’linish yo’li bilan;
- 2) ayrim hujayralarning normal holatlarining buzilishi oqibatida kurtaklanish yo’li bilan;




**56-rasm. Bargning ichki tuzilishi**

3) hujayra yadroси орқали ко’пайиши. Бу ўол асосиён деб қабул ғилинган. Дастлаб hujayra yadrosining membranasida juda kichik burtmacha yuzaga keladi. У аста-секин yiriklashib, yadro membranasidan ajraladi, hujayra sitoplazmasiga o’tadi va shu yerda to’la shakllanadi. Xloroplastlarning to’la shakllanishi uchun yorug’likning bo’lishi shart.

Qorong’ulikda xloroplastlarning stromasi va uning hajmi hosil bo’ladi. Lekin ichki tuzilishi – lamellalar, plastinkalar, granalar, tilakoidlar va xlorofill pigmentlari faqat yorug’likda hosil bo’ladi.

**Xloroplast pigmentlari.** Xloroplast таркебида учрайдиган pigmentlar fotosintez jarayonida асосиён рол о’ynaydi. О’sимлик pigmentlarini o’rganishda rus botanigi M.S.Svet kashf etgan adsorbsion xromotografik usuli katta аhamiyатга ega. У шу usuldan foydalanib 1910-yilda xlorofill “a” va “b” hamda sariq pigmentlarning guruhlari mavjud ekanligini aniqladi (57-rasm).



### 57-rasm. Xloroplast pigmentlarining fotosintez jarayonidagi ko'rinishi

Xloroplastlar tarkibida uchraydigan pigmentlar asosan uchta sinfga bo'linadi: 1) xlorofill; 2) karotinoidlar; 3) fikobilinlar.


**Xlorofillar.** Birinchi marta 1817-yilda fransuz kimyogarlari P.J.Pelte va J.Kavan o'simlik bargidan yashil pigmentni ajratishga muvaffaq bo'ladi va uni **xlorofill deb nomlashadi**. Bu grekcha "xloros" – yashil va "fillon" – barg so'zlaridan olingan.

Xlorofillar asosan to'rtta pirrol halqasini birlashtirgan porfirin birikmalar bo'lib, ular tarkibida magniy va fitol qismi bor. Fitol asosan to'rtta to'yinmagan izopren uglevodorod molekulasiidan tuzilgan.

Umuman olganda, xlorofill, xlorofillin dikarbon kislotasi bilan metil va fitol spirtlarining birikmasidan hosil bo'ladi va murakkab efirlar guruhiga kiradi. Shuning uchun ham natriy ishqori ta'sir etsa, u xlorofillin kislotasining natriy tuzi, metil va fitol spirtlariga parchalanadi.

Xlorofill "b" ning xlorofill "a" dan farqi shundaki, uning strukturasidagi bitta metil guruhi aldegid guruhgaga almashtirilgan. Xlorofill "a" ning erish harorati  $117\text{--}120^\circ$  ga teng. Spirtda, benzolda, xloroform, aseton va etil efirida yaxshi eriydi. Suvda erimaydi.

Xlorofill "a" barcha fotosintetik organizmlar uchun umumiyligida yagona pigmentdir. Chunki bu pigment orqali yutilgan yorug'lik energiyasi to'g'ridan-to'g'ri fotosintetik reaksiyalarda ishlatalishi mumkin (58-rasm).



### 58-rasm. Xlorofillning strukturasi

Xlorofillning muhim xususiyatlaridan biri uning optik xususiyati – fluoressensiyasidir. Ya’ni xlorofill eritmalardan o’zi yutgan nurlarni qaytaradi. Aks etgan yorug’likda xlorofill qizil rangda ko’rinadi. Uning fluoressensiya xususiyati fotoximik faolligidan dalolat beradi.


O’simliklarning bargida xlorofill maxsus sharoitlar mavjudligida hosil bo’ladi. Rivojlangan plastidalar stromasi, yorug’lik, magniy, temir va boshqalar yetarli bo’lishi kerak. Chunki pigmentlar faqat plastidalarning lamella va granalaridagina vujudga keladi.

Magniy to’g’ridan-to’g’ri xlorofill molekulasining tarkibiga, temir esa xlorofillning hosil bo’lishida ishtirok etuvchi fermentlar (xlorofillaza va boshq.) tarkibiga kiradi.

Xlorofill faqat yorug’likda o’sgan o’simliklarda hosil bo’ladi. Qorong’u joydagi o’simliklarda u hosil bo’lmaydi. Shuning uchun ham bunday o’simliklar rangsiz yoki sariq (karotinoidlar bo’lgani uchun) rangda bo’ladi. Ular etiollangan o’simliklar deyilib, qorong’udan yorug’likka chiqarilsa tezda yashil rangga kira boshlaydi. Chunki xlorofillning sintezi boshlanadi.

Barcha daraxtlarda fasllarning almashinishi o’z navbatida mavsum boshlanishi va uning tugashi bilan yakunlanadi. Mavsumiy tugash bu tinim davri

hisoblanib, o'simlik barglardagi fiziologik o'zgarishlar orqali amalga oshadigan murakkab jarayon mahsulidir. Bu jarayon xlorofill pigmentlarining o'zgarishi orqali amalga oshadi (59-rasm).



**59-rasm. Xlorofillning o'simliklar bargida fasillar bo'yicha o'zgarishi**

Umuman olgada, xlorofillning sintezi ham, buzilishi ham tirik hujayralardagi murakkab modda almashinushi jarayonining yo'nalishi asosida sodir bo'ladi. O'simliklarda xlorofil miqdori ularning quruq og'irligiga nisbatan 0,6–1,2 foizni tashkil qiladi.

**Karotinoidlar.** Yashil o'simliklarda xlorofill bilan birgalikda uchraydigansariq, to'q sariq va qizil rangdagi pigmentlar guruhiga **karotinoidlar deyiladi**. Bu pigmentlar hamma o'simliklarning xloroplastlarida mavjud. Hatto o'simliklarning yashil bo'lмаган qismlaridagi xloroplastlarning ham tarkibiga kiradi. Masalan, xloroplastlar sabzi hujayralari tarkibida juda ko'p miqdorda bo'ladi va ular ham murakkab strukturaga ega (60-rasm).



### 60-rasm. Bargda xlorofill donachalarining o'zgarishining tashqi ko'rinishi


Karotinoidlar xloroplastlarda xlorofill bilan birligida uchragani uchun ham sezilmaydi. Chunki xlorofillning miqdoriulariga nisbatan o'rtacha uch marta ko'p. Lekin kuzda xlorofillarning parchalanishi sababli, karotinoidlar ko'rina boshlaydi.

Yaxshi o'rganilgan o'simlik karotinoidlari ikkita guruhga bo'linadi:

- 1) karotinlar;
- 2) ksantofillar.

Karotinlar ( $C_{40}H_{56}$ ) turli xil bo'lib, ulardan "a" va "b" karotinlar xloroplastlarda xlorofil bilan birligida uchraydi. Likopin ( $C_{40}H_{56}$ ) mevalarda uchraydi. Bu pigmentlarning tarkibida kislorod yoki va ranglari asosan to'q sariq yoki qizil bo'ladi.

Karotinning struktura formulasiga kelsak, u 8 molekula izopren qoldiqidan iborat. Uning ikkala tomonida to'rtta izopren guruhi halqa shaklida tutashib ion shaklini hosil qiladi. Ulardan yaxshi o'rganilib fotosintez uchun muhim ahamiyatga ega bo'lganlari "a" va "b" karotinlardir. Ularning umumiyligi formulalari bir-biriga o'xshash ( $C_{40}H_{56}$ ) faqat tarkibiy tuzilishida bir oz farq bor (61-rasm).



**61-rasm. Bargda xlorofill donachalarining o'zgarishining ichki ko'rinishi**

Ksantofillar tarkibida kislorod bor va ular asosan sariq rangda ko'rindi. Asosiy vakillari lyutein ( $C_{40}H_{56}O_2$ ), violaksantin ( $C_{40}H_{56}O_4$ ) va boshqalar.

Karotinoidlar xlorofill, benzol, atseton kabi eritmalarda yaxshi eriydi. Yuqori harorat, yorug'lik, kislotalar ta'sirida yengil parchalanadi.

Karotinoidlar bir qancha fiziologik vazifalarni bajaradi:

- 1) fotosintez uchun zarur bo'lган yorug'lik nurlarini yutadi;
- 2) xlorofill molekulasini kuchli yorug'lik ta'siridan muhofaza qiladi;
- 3) fotosintez jarayonida molekulyar kislorodning ajralib chiqishida ishtiroy etadi.

Karotinoidlar to'lqin uzunligi qisqa bo'lган (480–530 nm) ko'k-binafsha va ko'k nurlarni qabul qilib, xlorofill "a" ga yetkazib beradi hamda fotosintez jarayonida ishtiroy etadi.


O'simliklar bargida quruq og'irligiga nisbatan 20 mg. gacha, ayrim o'simlik turlari va organlarida, ayniqsa, ayrim mevalar tarkibida ko'proq bo'lishi mumkin.

**Fikobilinlar.** Suv ostida yashovchi o'simliklarda xlorofill "a" va karotinoidlardan tashqari maxsus pigmentlar ham borki, ularga fikobilinlar kiradi. Yaxshi o'rganilganlari fikoeritrin va fikosianindir.

Fikoeritrin qizil suvo'tlarning pigmentidir. Qizil rangga ega. Fikosianin ko'k-yashil suvo'tlarining pigmenti bo'lib, rangi ko'k. Fikobilinlar – bu murakkab oqsillardir. Ularning tarkibiga ochiq zanjir holida birlashgan to'rtta pirrol halqasi kiradi. Bu halqalar qo'sh bog'lar orqali tutashgan. Ularning molekulalasida metall atomi yo'q. Bu molekulalar oqsillar bilan mustahkam

birikma hosil qiladiki, ularni faqat qaynatib yoki kuchli kislota ta'sirida parchalash mumkin (62-rasm).

Fikobilinlar yorug'lik spektridan ma'lum to'lqin uzunligiga ega nurlarni yutadi va xlorofill "a"ga yetkazib beradi. Fikoeritrinlar asosan to'lqin uzunligi 498 nm. dan 508 nm. gacha, fikosianinlar – 585 nm. dan 630 nm. gacha bo'lgan nurlarni yutadi.



**62-rasm. Fikobilinlarning strukturasi**

Umuman, fikobilinlar tomonidan yutilgan yorug'lik energiyasidan 90 foizga yaqini xlorofill "a" ga yetkazib beriladi. Yashil o'simliklarda yorug'lik energiyasi ishtirokida organik moddalar hosil bo'lishi va molekulyar kislород ajralib chiqishini ifodalovchi sxematik tenglama bilan belgilanadi.

Bu tenglama oddiy kimyoviy reaksiya tenglamasi bo'lmay, balki minglab reaksiyalar yig'indisini ifodalovchi xarakterga ega. Barcha reaksiyalar yig'indisi asosan ikkita bosqichni o'z ichiga oladi:


- 1) Yorug'likda boradigan reaksiyalar;
- 2) Yorug'lik shart bo'lмаган – ya'ni qorong'ulikda boradigan reaksiyalar.

## **§2.8. Yorug'likda boradigan reaksiyalar**

Fotosintezning birinchi bosqichidagi reaksiyalar faqat yorug'lik ishtirokida boradi. Bu jarayon xlorofill "a" ning boshqa yordamchi pigmentlar ishtirokida (xlorofill "b" karotinoidlar, fikobilinlar) yorug'lik yutishi va o'zlashtirishidan boshlanadi. Natijada suv yorug'lik energiyasi ta'sirida parchalanib, molekulyar kislород ajralib chiqadi, NADPH<sub>2</sub> (digidronikotinamid – adenin – dinukleotid

fosfat) va ATF (adenozintrifosfat) hosil bo'ladi.


**Yorug'lik energiyasi.** Yorug'lik energiyasi elektromagnit tebranish xususiyatiga ega. U faqat kvantlar yoki fotonlar holida ajraladi va tarqaladi. Har bir kvant yorug'lik ma'lum darajada energiya manbaiga ega. Har bir pigment, jumladan, xlorofill molekulasi bir kvant yorug'lik energiyasini yutish xususiyatiga ega. Pigmentlarning bir molekulasi birdaniga ikki kvant monoxromatik yorug'likni yutolmaydi. Kvant yorug'lik pigment molekulasining birorta elektronni tomonidan yutiladi va bu elektron qo'zg'algan holatga o'tadi. Natijada pigment molekulasi ham qo'zg'algan holatda bo'ladi (63-rasm).



**63-rasm. Yorug'lik ta'sirida boradigan reaksiya**

O'simlik to'qimalari ko'rindigani 390–750 nm uzunlikdagi nurning taxminan 90 foizini absorbsiyalaydi va 750–1300 nm uzunlikdagi infraqizilga yaqin nurning 50 foizini o'zidan qaytaradi. Azot tanqisligiga uchragan o'simlik ko'rindigani nurlarni o'zidan ko'proq, infraqizilga yaqin nurni esa o'zidan kamroq qaytaradi

(64-rasm).



#### 64-rasm. Fotosintetik membranada fotosintetik reaksiyalardagi samaradorligi

Olimlarning izlanishlari natijasida yorug'lik energiyasining fotosintetik reaksiyalardagi samaradorlik darajasi aniqlandi.

Energiyaning samaradorligi, yutilgan kvant yorug'lik nuri hisobiga fotosintez jarayonida ajralib chiqqan  $O_2$  yoki o'zlashtirilgan  $CO_2$  ning miqdori bilan belgilanadi.


Shuni hisobga olish zarurki, yutilgan hamma nurlar (ayniqsa qizil) foydali bo'lsa ham ular energiyasining ancha qismi xlorofill molekulasida elektronlar ko'chishi jarayonida yo'qotiladi.

Chunki bu nurlarning har bir kvanti 171 kj energiyaga ega. Amalda esa bir molekula  $SO_2$  ning to'la o'zlashtirilishi va  $O_2$  ning ajralib chiqishi uchun 8 kvant talab etiladi. Ya'ni fotosintez jarayonida foydalaniladigan qizilnurlarning foydali koeffitsienti 40 foizga yaqin bo'ladi. Ko'k-binafsha nurlarning foydali koeffitsienti yanada pastroq (21%).

O'simliklarga yorug'likning to'lqin uzunligi 400 nm. ga teng ko'k spektri ta'sir ettirilsa, foydali koeffitsient 20,9 foizga teng bo'ladi (chunki har bir kvantning energiyasi 229 kj. ni tashkil etadi).

Bu tajribalar yorug'lik energiyasidan fotosintezda samarali foydalanish qonuniyatlarini tushuntirib berdi. Ya'ni fotosintez jarayonining samaradorligi

uchun faqat xlorofill “a” qabul qilgan energiya yetarli bo’lmay, qolgan pigmentlar, xlorofill “b” va karotinoidlarning ham faol ishtiroki katta ahamiyatga ega (65-rasm).



**65-rasm. NADP<sup>+</sup> elektronlarini kamaytirish va suvning fotolizi bilan almashadirish jarayoni**

R.Emerson (1957) xloroplastlarda ikkita fototizim mavjudligini taxmin qilgan edi. Bu taxmin keyinchalik tasdiqlandi.

Differensial sentrifugalash va boshqa usullar yordamida “Fototizim-1” va “Fototizim-2”ni hosil qiluvchi oqsillar komplekslari ajratib olindi va o’rganildi. Fototizimlar faoliyati natijasida kvantlarning yutilishi, elektronlar transporti va ATPlarning hosil bo’lish jarayoni kuzatiladi.


**Suvning fotolizi.** Fotosintezning dastlabki fotokimyoiy reaksiyalaridan biri bu suv fotolizidir. Suvning yorug’lik energiyasi ta’sirida parchalanishi fotoliz deyiladi.

Uning mavjudligini birinchi marta 1937-yilda R.Xill barglardan ajratib olingan xloroplastlarda aniqladi.

Shuning uchun mazkur jarayon Xill reaksiyasini deb ataladi. Ya’ni ajratib olingan xloroplastlarga yorug’lik ta’sir etganda karbonat angidridsiz sharoitda ham kislorod ajralib chiqishi kuzatiladi:


Bu Xill reaksiyasidan xloroplastlarning faollik darajasini aniqlashda foydalilanadi. Ajralib chiqayotgan molekulyar kislorodning manbai suv

ekanligini 1941-yilda A.P.Vinogradov va R.E.Teys izotoplar usulidan foydalanish yo’li bilan tasdiqladilar. Havodagi umumiyl kislorodning: O<sup>16</sup> – 99,7587 foizni, O<sup>17</sup> – 0,0374 foizni tashkil etadi.




### 66-rasm. Suvning fotolizillanishi

O’sha yilning o’zida amerikalik olimlar – S.Ruben va M.Kamen H<sub>2</sub>O va CO<sub>2</sub> larni og’ir izotop – O<sup>18</sup> bilan sintez qilish va fotosintez jarayonini kuzatish usuli bilan ajralib chiqayotgan kislorodning manbai suv ekanligini yana bir bor tasdiqladi (66-rasm).



Natijada kislorod ajralib chiqadi. Hosil bo’lgan vodorod protoni va elektroni akseptorlar yordamida CO<sub>2</sub> ni o’zlashtirish manbai hisoblanadi.

Bu jarayonda to’rt molekula suvning ishtirot etishi Kutyurin sxemasida yanada yaqqol tasvirlangan (67-rasm).



**67-rasm. Suvning fotolizlanish jarayoni**

Suvning fotoliz jarayoni ikkinchi fotosistemadagi reaksiya markazida kechadi va bunga xlorofill molekulalari yutgan to'rt kvant energiya sarflanadi.

**Fotosintetik fosforlanish.** Yashil o'simliklarning muhim xususiyatlaridan biri quyosh energiyasini to'g'ridan-to'g'ri kimyoviy energiyaga aylantirishidir. Xloroplastlarda yorug'lik energiyasi hisobiga ADF va anorganik fosfatdan ATF hosil bo'lishiga fotosintetik fosforlanish deyiladi. Uning tenglamasini quyidagi sxemada ko'rish mumkin.



Bu jarayon mitoxondriyalarda kechadigan oksidativ fosforlanishdan farq qiladi. Yorug'likda bo'ladigan fosforlanishni 1954-yilda D.I.Arnon va uning shogirdlari kashf etdilar.

Yashil o'simliklarda fotosintetik fosforlanishning mavjudligi juda katta ahamiyatga ega. Chunkihosil bo'ladigan ATF molekulalari hujayradagi eng erkin kimyoviy energiya manbaidir. Har bir ATF molekulasida ikkita makroergik bog' mavjud. Ularning har birida 8–10 kkal energiya bor.

Makroergik bog'larning uzilishi natijasida ajralgan kimyoviy energiya hujayradagi reaksiyalarda sarflanadi.

Xloroplastlardagi yorug'likda fosforlanish reaksiyalari ikkita asosiy tipga

bo'linadi:


- 1) siklik fotosintetik fosforlanish;
- 2) sikliz fotosintetik fosforlanish.

Siklik fotosintetik fosforlanishda xlorofill molekulasi yutgan va samarali hisoblangan barcha yorug'lik energiyadi ATP sintezlanishi uchun sarflanadi. Reaksiya tenglamasini quyidagicha yozish mumkin:



Quyoshning yorug'lik energiyasini yutgan xlorofill ko'zg'algan holatga o'tadi va uning molekulasi elektronlar donori sifatida yuqori energetik potensialga ega bo'lgan tashqi qavatdagi elektronlardan bittasini chiqarib yuboradi. Elektronning chiqarib yuborilishi natijasida xlorofill molekulasi musbat zaryadlanib qoladi (68-rasm).

### Fotosintetik fosforlanish jarayoni



68-rasm. Fotosintetik fosforlanish jarayoni

Qisqa muddat ichida ( $10^{-8}$ ;  $10^{-9}$  sek.) elektron ma'lum elektron o'tkazuvchi (ferredoksin va sitoxrom oqsillari) tizim orqali ko'chirilib, musbat zaryadli dastlabki xlorofill qaytadi. Bu yerda xlorofill akseptorlik vazifasini bajarib, yana tinch holatga o'tadi.

Xloroplastlarda bu jarayon siklik ravishda takrorlanib turadi. Elektron harakati mobaynida energiyasi ATP sintezlanishiga sarflanadi. Natijada birinchi fotosintetik tizimdagi har bir xlorofill molekulasi yutgan bir kvant energiya

hisobigaikki molekula ATF sintezlanadi.

Siklsiz yorug'likda fosforlanishda ATF sintezi bilan bir qatorda suv fotolizi sodir bo'ladi. Natijada molekulyar kislorod ajralib chiqadi va NADP qaytariladi. Ya'ni fotosintezning yorug'lik bosqichidagi reaksiyalar tizimi to'la amalga oshadi. Reaksiya tenglamasini quyidagicha yozish mumkin:



Bunda ikki fotokimyoviy tizimning o'zaro tasiri natijasida molekulyar kislorod ajralib chiqadi va ATF, NADP.H<sub>2</sub> hosil bo'ladi. Yorug'lik energiyasi ta'siridan ikkinchi fotosintetik tizimda ham reaksiya boshlanadi va suvning fotolizi ro'y beradi. Bu yerda ko'zgalgan xlorofilldan ajralib chiqqan elektron yana shu xlorofill molekulasiga qaytmaydi. Musbat zaryadlangan xlorofill molekulasi o'zining avvalgi tinch holatiga qaytishi uchun elektronni suvning fotolizi natijasida hosil bo'lgan hidroksil (OH<sup>-</sup>) guruhdan oladi.

## §2.9. Gul va mevaning morfo-biologik xususiyatlari

**Gul.** Gullar o'simliklarning reproduktiv davrida hosil bo'ladi. Gulning hosil chiqarish jarayoni gullah deb ataladi. Boshqa har qanday o'simlik organi singari, gullar ham meristema faolligi bilan rivojlanadi. Apikal kurtak meristema hajmini va mitotik faolligini o'zgartirib, reproduktiv yoki gul meristemaga aylanadi. Darhaqiqat, gulni juda o'zgartirilgan kurtaklar deb hisoblash mumkin, bu yerda barglar gulning tarkibiy qismlari bo'lishi uchun keskin o'zgartiriladi.

Turiga qarab butun apikal meristema gul meristemasiga aylanib, bir gulga aylanadi yoki u bir necha gul meristemasini, so'ngra to'pgul meristemasini hosil qiluvchi to'pgul meristema bo'lishi mumkin. Gul yoki gulli meristemaning bir qismi bo'lgan barcha meristematisk hujayralar yetuk hujayralarda farqlanadi va meristema yo'qoladi.

Gul o'z tabiatiga ko'ra jinsiy yo'l bilan ko'payishga moslashgan shakli o'zgargan barglari bo'lgan qisqargan poyali (gul o'rini), shakli o'zgargan novdadir.


O'simliklar sistematikasi o'simliklarning anatomik, morfologik va embriologik belgilari jihatdan bir-biriga o'xshash bo'lgan sistematik guruhlarini ta'riflaydi va ularning qarindoshligi hamda kelib chiqish tarixiga qarab ma'lum sistemaga oladi.

O'simliklar sistematikasida turlarning tavsifini berishda gultoj barglari, gulkosasi, chanchi va urug'chisining o'zaro gul o'rnida joylanishi hamda qay darajada tutash yoki ayriligini aniqlash muhim. Shunga ko'ra gulli o'simliklar sistemasi meva o'simliklarida bir-biridan farqlanadi. Bu o'z navbatida mevali

o'simliklarning botanik turlarning asosini hosil qiladi.

**Gulning tuzilishi.** Gul olti qismdan iborat: gul bandi, gul o'rni, kosachabarg, tojibarg, changchi va urug'chidan tashkil topgan. O'simliklarning gullari nihoyatda xilma-xil bo'lishiga qaramay, ularning bir qator qismlari umumiy bo'ladi.

Gulning poya qismi, uning o'qi – gulband, yuqori kengaygan qismi esa gul o'rni deb ataladi. Gulning shakli har xil: disk simon, konus shaklida va hokazo bo'lishi mumkin. Gul o'rniga (chet tomonlaridan markazga qarab) quyidagi qismlar: shakli o'zgargan bir nechta bargchadan – kosacha barglardan tuzilgan kosacha birikkan. U gulqo'rg'onning tashqi doirasini tashkil etadi: kosachabarglar qo'shilib o'sgan, ya'ni tutash bargchali yoki qo'shilib o'smagan, ya'ni ayrim bargchali bo'lishi mumkin. Kosacha ichida gulbarglar bor. Gulbarglar yig'indisi gultoj deb ataladi, gultojning rangi har xil: oq, qizil va hokazo bo'ladi (69-rasm).



**69-rasm. Gulli o'simliklarda jinsiy ko'payish jarayoni**

Yopiq urug'lilar o'simliklar dunyosining eng katta bo'limi bo'lib, ular murakkab tuzlishi va turlar sonining ko'pligi bilan boshqa hamma yuksak o'simliklardan keskin farq qiladi.

Bu o'simliklar yer yuzida keng tarqalgan bo'lib, juda xilma-xil ekologik sharoitlarda hayot kechirishga moslashgan. Bu ularning murakkab tuzilishi bilan bog'liq. Gul odatda o'simlikning botanik xususiyatlari bilan ajralib turadi (3-jadval).

Gul barcha gulli o'simliklarning jinsiy ko'payish organi hisoblanadi. Har xil mevali daraxtlarda gulning tuzilishi turlicha bo'ladi. Ba'zi o'simliklarning guli ikki jinsli, ya'ni ham otaligi, ham onaligi bo'ladi.

Yana bir turlarida esa, gul bir jinsli bo'lib, bir xil gullarda faqat otalik bo'lsa, ikkinchilarida esa, faqat onalik bo'ladi. Ba'zi bir turlarda ikki jinsli gullarning onaligi yetilmay qolib (otalik vazifasini bajaradi), ikkinchilarida buning aksini namayon qiladi.

Otalik yoki onaligi bo'lgan gular bir daraxtda joylashgan bo'lsa, bu bir uyli o'simlik (yong'oq) bo'lsa, turli daraxtlarda joylashgan bo'lsa, ikki uyli o'simlik (qulupnay, anjir) bo'ladi.

Bitta kurtakdan bitta gul (o'rik va shaftoli) yoki bir nechta gul (olma, nok, olcha va boshq.) hosil bo'ladi. Olma daraxtining to'p guli soyabon, nokni qalqoncha, yong'oqniki kuchala, smorodinaniki oddiy shingildan iborat.

To'p gulning har bir tipi bir vaqtida ochilmaydi, olmada birinchi bo'lib to'p guldagi boshqa gullardan oldinroq markaziy gul, nokda esa chetki gul, qulupnayda ostki gul ochiladi. Odatda erta ochilgan gullardan yurik va yaxshi sifatli meva va rezavor mevalar hosil bo'ladi. Hosilni aniqlashda bu xususiyatlar e'tiborga olinishi kerak.

Gul urug'langandan keyin unda urug' va meva hosil bo'ladi. Gulning poya qismi odatda kengaygan bo'lib, **gul o'rni deb ataladi**. Gulo'rni poyaning ingichka qismi gulbandga tutashadi. Gul o'rnida kosachabarglar, tojbarglar, changchi va urug'chilar rivojlanadi.

### 3-jadval

#### Mevali va rezavor mevali o'simliklarning oilasi va nomlanishi

Guruhi	Turi	Botanik nomi	Turning botanik nomi
Urug'li mevalar	Olma	Rosaceae	Malus domestica
	Nok		Pyrus communis
	Behi		Cydonia oblonga
	Do'lana		Crataegus
Danakli mevalar	O'rik	Rosaceae	Armeniaca Mill
	Shaftoli		Persica Mill
	Jiyda	Eleagnaceae	Junglans L.
	Olxo'ri	Rosaceae	Prunus Mill
	Olcha		Cerasus Juss
	Gilos		<a href="#">Prunus avium</a> L.
Yong'oq mevalar	Bodom	Rosaceae	Ehagnus L.
	Yong'oq	Junglandaceae	Amygdalus L.
	Pekan	Junglandaceae	Carya nutt L.
	Pista	Anacardiaceae	Pistacia L.
Sitrus mevalar	Apelsin	Rutaceae	Citrus sinensis L.
	Limon		C. limon L.
	Mandarin		C. reticulata L.
	Greypfrut		C. paradisi L.
	Anor	Punicaceae	Punica L.
	Anjir	Moraceae	Ficus L.

Subtropik mevalar	Tut	Moraceae	Morus L.
	Xurmo	Ebenaceae	Diospyros L.
	Zaytun	Oleaceae	Olea L.
Rezavor mevalar	Qulupnay	Rosaceae	<u>Fragaria</u> L.
	Malina	Rosaceae	Rubus idaeus
	Smorodina	Grossulariaceae	Rubus L.
	Qorag'at	Ericaceae	<i>Vaccinium ang.</i>
	Krijovnik	Rosaceae	Rubus idaeus L.
Tropik mevalar	Banan	Bananaceae	Musa balbisana
	Kivi	Actinidiaceae	Actinidia chinensis
	Ananas	Bromeliaceae	Ananas comosus
	Mango	Mangiferaceae	Mangifera
	Qovun daraxti (Papayya)	Caricaceae	Carica papaya L.
	Non daraxti	Moraceae	Artocarpus luter.
	Xurmo palma	Arecaceae	Phoenix dacrylifera
	Avokado	Lauraceae	Persea

Daraxtlar bahorda rivojlanib, kurtaklari shishib keta boshlagach, ular sovuq qish oylarida uyqu holatida bardosh bera oladigan sovuq qish haroratiga dosh berish xususiyatini yo'qotadi. Yosh, faol o'sayotgan to'qimalar keyinchalik shikastlanishi yoki hatto nobud bo'lishi mumkin (70-rasm).



**70-rasm. Shaftoli bog'idagi sovuqdan keyin yopiq guldag'i (chapda) va ochiq guldag'i (o'rtada) shikastlangan pistil va ochiq guldag'i (o'ngda) shikastlanmagan pistil**

Shishgan mevali kurtaklar o'smirlardagi haroratga hech qanday zarar yetkazmasdan yaxshiroq bardosh bera oladi. Kurtaklari ochilganda, past haroratlar zarar yetkazishi mumkin, lekin ba'zida boshqa kurtaklarni buzilmagan

holda qoldiradi.

Olma daraxtlarida o'sish yashil uchidan 1/4 yashildan 1/2 yashilgacha, zich klasterdan pushti ranggacha o'tishi bilan, yuqori harorati erta gullaydigan daraxtga katta zarar yetkazishi mumkin. Gullah yaqinida, yengil va jiddiy zarar o'rtasidagi oraliq juda kichik bo'lishi mumkin.

Mevali daraxtlarning gullarini -2–3°C da 5 soat sovuqda qolsa, Xitoy xurmosi, yong'oq, do'lana daraxtlarini to'liq sovuq uradi. O'rik, tog'olcha, behining 94–96 foizi, olcha, olmaning 89–90 foizi, olxo'rining 77 foizi, shaftolining 70 foizi, nokning 65 foizini sovuq urishi mumkin.

Nok, olxo'ri, olma va yong'oq gullari qisqa muddatli -2,2–2,8°C, o'rik -4°C, shaftoli, bodom – 4,5°C haroratga bardosh bera oladi.

Respublikamizning shimoliy hududlarida mevali bog'lar markaziy hududlarga nisbatan 15–20 kun kech uyg'onadi, ya'ni daraxtlarda kurtak, g'uncha, gul va tugunchalar kech shakllanadi. Ya'ni sovuqning shimoliy hududlardagi mevali bog'larga hech qanday salbiy ta'siri bo'lmaydi.

Mevali daraxtlar, xususan olma daraxtlariga muzlash yoki muzlashdan zarar yetkazishi mumkin bo'lgan haroratlarning yuqori va past ko'rsatkichi bilan belgilanadi. Odatda bu ko'rsatkichga biologik kechki navlar yoki genetik jihatdan chidamli formalar savuqqa chiqamlilik darajasini ko'rsatadi.

O'zbekiston mintaqalarining tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda biologik gullah fazasining boshlanishi xo'raki navlarda ertaroq – mart oyining boshlarida kuzatilsa, kechpishar navlarda bu ko'rsatkichlar aprel oyining birinchi kunlariga to'gri keladi. Bu payt oralig'ida haroratning past ko'rsatkich namoyon bo'lishi ayrim yillarda kuzatilishi mumkin (71-rasm).

<b>O'rik</b>							
	10%	15	20	24	25	27	28
<b>Gilos</b>							
	90%	---	0	14	19	22	25
<b>shirin</b>							
	10%	17	25	26	27	28	28
<b>achchiq</b>							
	90%	0	5	14	17	24	25
<b>Shaftoli</b>							
	10%	15	22	24	26	28	28
<b>Shaftoli</b>							
	90%	0	1	5	9	15	21
<b>Swollen Bud (First Swell)</b> <b>Calyx Green</b> <b>Quarter-Inch Green (Calyx Red)</b> <b>Pink (First Pink)</b> <b>First Bloom</b> <b>Full Bloom</b> <b>Post-bloom</b>							
10%	18	21	23	25	26	27	28
90%	1	5	9	15	21	24	25

## 71-rasm. Mevali daraxtlar gullash jarayonining kechishi

Bunga asosiy sabablardan bir iqlim o'zgarishi natijasida fevral oyida havo haroratining ko'tarilishi natijasida kurtaklarning rivojlanishi olib keladi. Erta issiq harorat kurtaklarning shishishini tezlashtiradi va kutilayotgan past haroratlar o'smirlik davridagi yangi yashil uchli barg to'qimalariga muzlashi yoki muzlash xavfini tug'diradi. Bu o'z navbatida meva hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Asalarilar olma bog'inining muhim a'zolaridir. Ular changlatuvchilar sifatida gulchanglarni tashishda muhim rol o'ynaydi. Bu olma daraxtlarini urug'lantirishga yordam beradi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida olma daraxtlarining 90 foizi asalarilar tomonidan changlanadi.

Barcha ekinlarning taxminan 75 ta turi asalarilar yordamida changlatishni talab qiladi. Ba'zi changlatish xonaki asalarilar tomonidan amalga oshiriladi, lekin ko'pchilik ekinlarni changlatish yovvoyi hasharotlar, shu jumladan yovvoyi asalarilar tomonidan amalga oshiriladi.

Xitoyda yovvoyi asalarilar (*Apis mellifera*) xilma-xilligining kamayishi fermerlarga qiyinchilik tug'dirmoqda Janubi-g'arbiy Xitoyda olma va nok maydonlari yil sayin kengaytirilmoqda, ammo atrof-muhitning buzilishi,

havoning ifloslanishi, pestitsidlardan foydalanish tufayli yovvoyi changlatuvchilar sonining kamayishi hisobiga ekinlar yetarli darajada changlanmaydi (72-rasm).



**72-rasm. Asalarilar yordamida mevali bog'larni changlatish**

Changlatuvchilar tanqis bo'lgan joylarda hasharotlarning o'mini bosish uchun ishchi kuchidan ham foydalanadi. Bu mahsulot tannarxi oshib ketishira olib keladi. Olma va nok daraxtlarini changlatish samaradorligini oshirish uchun asalarilardan foydalanish xarajatlarni kamaytiradi. Bu o'z navbatida asal yig'ish bilan birga mo'l va sifatli hosil yetishtirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, erta bahorda uchadigan yovvoyi asalarilar boshqa asalarilarga qaraganda yomon ob-havo sharoitida uchishga yaxshi moslashgan. Ular asalarilar faolligi kamayganida salqin va bulutli sharoitda gullarga qo'nadi va ularni changlaudilar.


Agar bog'da asalarilarning xilma-xilligi yuqori bo'lsa, bir yoki bir nechta turlarning populyatsiyalari parazitlar yoki kasalliklar tufayli o'zgarib tursa, boshqa turlar barqaror changlanishni ta'minlaydi.

**Meva.** Mevaning tashqi qismiga perikarp deyiladi. U tuguncha va urug' devorlarining shakli o'zgarishi natijasida hosil bo'ladi.


Meva anatomiysi mevaning barcha ichki tuzilmalarini va ularning

vazifalarini bat afsil tushuntirib beradi. Meva turli qatlamlardan iborat, ya’ni perikarp qatlami, endo perikarp qatlami, ekzokarp, mezokarp va endokarp. Gullar soniga yoki mevalarning shakllanishida ishtirok etadigan tuxumdonlar soniga qarab, bu mevalar odatda uchta asosiy anatomik toifaga bo’linadi. Ular oddiy mevalar, yig’ma mevalar va bir nechta mevalardir (73–74-rasmlar).

Meva anatomiyasи mevaning ichki tuzilishi deb ataladi. U bir yoki bir nechta tuxumdon, perikarp, endokarp, mezokarp va boshqalardan iborat.



**73-rasm. Olma mevasining ichki tuzilishi**



**74-rasm. Qulupnay mevasining ichki tuzilishi**

**Perikarp** – butun urug’ning tashqi qoplamini anglatadi. U uch qavatga bo’linadi, ekzokarp yoki epikarp eng tashqi qavat, mezokarp o’rta qavat, endokarp esa eng ichki qavatdir. Ma’lumki, mezokarp urug’ yoki tuxumdonni

o’rab oladi.


**Ekzokarp** – epikarp sifatida ham tanilgan. Bu perikarpning eng tashqi qatlami bo’lib, ma’lum bir mevaning qattiq tashqi qobig’ini shakllantirish uchun javobgardir.

Sitrus mevalarida epikarp sellyuloza moddasidan tashkil topgan flavedo sifatida tanilgan. Flavedo bir nechta hujayra qatlamlaridan iborat bo’lib, ular oxir-oqibat ichkarida qalinlashadi.

Qatlam odatda mum bilan o’ralgan va bir nechta stomatadan iborat. Bu stomalar meva pishganida ko’p hollarda yopiladi. Flavedoning bu ichki qismi, ayniqsa, efir moylarini o’z ichiga olgan piriform shakllarga boy.

**Mezokarp** – meva perikarpining o’rta qatlami. Ekzokarp va endokarpning o’rtasi bu – mezokarpdir. Sodda qilib aytganda, mevaning et qismdir. U asosan mango, shaftoli (yeuish mumkin bo’lgan qismi mezokarp) va xurmo kabi mevalarda iste’mol qilinadi. Sitrus mevalarda mezokarp albedo sifatida tanilgan. Albedo – meva qobig’ining ichki qismi, odatda mevani iste’mol qilish paytida olib tashlanadi (75-rasm).

**Endokarp** – perikarpning eng ichki qatlami hisoblanadi. Urug’larni o’rab olish va ularni himoya qilish vazifasini bajaradi. Endokarp qismi sitrus mevalarda oddiy ko’zga ko’rinib turadi. Bu qism odatda iste’moli qilinadigan yagona qism bo’lib, dukkakli o’simlik mevalarida qattiq bo’lishi mumkin. Ba’zi mevalarda, masalan, shaftoli, olxo’ri, gilos, o’rik va boshqalarda yumshoq bo’ladi.



**75-rasm. Nok mevasining ichki tuzilishi**


Endokarp quritilgan mevalar yoki yong'oqlardagi mevalar yadrosini o'rabi turgan qatlamning tosh qismidir. Masalan, yong'oq, pekan yong'og'i va h.k. Shunday qilib, bu qism ovqatdan oldin olib tashlanadi. Endokarp odatda citrus mevalarida turli bo'limlarga bo'linadi, ular segmentlar deb ham ataladi. Bu segmentlar sharbat pufakchalaridan iborat, ya'ni meva sharbatini o'z ichiga oladi.

## §2.10. Mevali va rezavor mevali o'simliklarning hosilga kirishi

Mevali va rezavor mevali o'simliklar turli vaqtida hosilga kiradi. Hosilga kirish vaqtini o'simliklarning turi, navi, payvandtagi, tuproq-iqlim sharoiti va qo'llaniladigan agrotexnika tadbirlariga bog'liq.

Mevali ekinlar hosilga kirish vaqtiga qarab, ertagi, o'rtagi va kech hosilga kiradigan navlarga bo'linadi.

Odatda, olma (*Malus domestica*) yoki nokning (*Pyrus communis*) ma'lum bir navi har yili bir vaqtning o'zida yetuklikka erishadi. Turli hududlardagi iqlim sharoiti mevaning pishib yetilishiga ta'sir qiladi. Sovuq hududlarga qaraganda issiqroq hududlarda mevalar erta pishib yetiladi.



**76-rasm. Mevali ekin turlarining pishish muddati**

Muayyan hudud uchun hosilni yig'ish vaqtini ob-havo sharoiti tufayli har yili bir oz farq qilishi mumkin. Misol uchun, sovuq bahor harorati tufayli odatdagidan kechroq gullashi kechroq hosilni anglatishi mumkin (76-rasm).

#### 4-jadval

#### Olma navlarining pishish davri

Navlar	Pishish muddati	Yetuklik davridagi teri rangi
<b>Gravenstein</b>	Avgust oyi o'rtalari	Sariq rangli qizil chiziqli
<b>Gala</b>	Avgust-sentabr	Sariq rangli qizil chiziqli
<b>Liberty</b>	Sentabr boshi	Qizil
<b>Ambrosia</b>	Sentabr o'rtalari	Qizil-to'q sariq
<b>Golden Delicious</b>	Sentabr o'rtalari	Sariq
<b>Honeycrisp</b>	Sentabr o'rtalari	Sariq rangli qizil tusli
<b>McIntosh</b>	Sentabr o'rtalari	Sariq rangli qizil tusli
<b>Cameo (Carousel)</b>	Sentabr-oktabr	Qizil
<b>Cosmic Crisp</b>	Sentabr-oktabr	Qizil
<b>Empire</b>	Sentabr-oktabr	Qizil
<b>Fuji</b>	Sentabr-oktabr	Qizil
<b>Jonagold</b>	Sentabr-oktabr	Sariq rangli qizil chiziqli
<b>Red Delicious</b>	Sentabr-oktabr	To'q qizil
<b>Enterprise</b>	Oktabr o'rtalari	Qizil
<b>Pink Lady (Cripps Pink)</b>	Oktabr o'rtalari	Pushti
<b>Winesap</b>	Oktabr o'rtalari	Qizil
<b>(Yellow) Newtown Pippin</b>	Oktabr o'rtalari	Sariq-yashil
<b>Granny Smith</b>	Oktabr oxiri	Yashil

AQSHning Oregon shtatida olma va nok navlari yetilish muddatiga qarab to'rtta hudud farqlanadi:

**Erta:** Jekson okrugi, Milton-Friuoter va Vasko okrugi;

**O'rta:** Quyi Hud daryosi vodiysi, Malheur okrugi, Duglas okrugi va Jozefina okrugi;

**O'rtadan kechgacha:** Villamet vodiysi, Upper Hud daryosi vodiysi;

**Kech:** baland tog'lar va okean qirg'oq bo'yłari.

4-jadvalda oddiy olma navlari uchun odatdag'i hosilning yetuklik sanalari ko'rsatilgan. Olma yetukligining bir nechta belgilari mavjud: rangi, qattiqligi, lazzati, terib olish qulayligi, saqlanish kabi xususiyatlarga bog'liq.

Yurtimizda olmaning pishish muddati may oyining oxiridan boshlanib, oktabr oyining boshlarigacha davom etadi. Odatda, ertaki olmalar qisqa muddat saqlanadi, ular bir terim bilan yig'ishtirib olinadi. O'rtaki va kechki navlarda bir necha marta terim o'tkaziladi. Har bir olma navi o'zining pishish davrida nav xususiyatlariga xos rangga va tusga kiradi. Buni hosilni terishda inobatga olish kerak. Hosilni yig'ishtirishda mevani bir qo'l bilan ohista ushlab, bosh va ko'rsatkich barmoq bilan meva bandiga zarar yetkazmasdan uzib olinadi.

## §2.11. Mevalarning anatomik biokimyosi

Mevalar uchta asosiy anatomik toifaga bo'linadi. Bu tasnif gullar soni yoki turli xil mevalarni shakllantirishda ishtirot etadigan tuxumdonlar soniga asoslanadi (77-rasm). Bu toifalar quyidagilardir:


Oddiy meva



Yig'ma meva



Murakkab meva



77-rasm. Mevalarning toifalari

**Oddiy mevalar:** oddiy mevalar deganda bitta guldagi bitta tuxumdon dan hosil bo'lgan mevalar tushuniladi. U bir yoki bir nechta urug'lami o'z ichiga olishi mumkin. Bu mevalar quruq yoki etli bo'ladi. Quruq mevalar oddiy mevalar turi bo'lib, unda perikarp yumshoq yoki suvli emas, aksincha, u quruq bo'ladi. Bodom, yeryong'oq va boshqalar bunga misol bo'la oladi.

Boshqa tomondan, etli mevalar perikarp etli va qalin etli mevalardir. Masalan, rezavorlar (bir yoki bir nechta karpellardan iborat bo'lib, ular tarkibida yo'q yoki bir nechta urug'lar mavjud), uzum, banan va h.k.). Danakli mevalar (bir karpel va bir urug'dan iborat, yupqa po'stlog'i va mango kabi etli mezokarplilar) va urug'li mevalar (qo'shimcha etli meva sifatida qaralgan, karpellar birikmasidan hosil bo'lgan).

Olma o'sishi va meva rivojlanishining o'ziga xos bosqichlarida hosildan oldingi ob-havoning (yomg'ir, namlik va harorat) ta'siri. Kurtaklar sinishi qishda (noyabrdan martgacha), gul kurtaklari aprelda, to'liq gullash may oyida, meva shakllanishi iyunda, mevaning rivojlanishi va pishib yetilishi iyul-avgustda, to'liq pishishi sentabrga to'g'ri keladi. Hujayra bo'linish bosqichi to'liq gullashdan so'ng (maydan iyungacha) sodir bo'ladi va hujayraning kengayish fazasi mevaning pishib yetilishigacha (iyun-sentabr) sodir bo'ladi (78-rasm).



### 78-rasm. Olma mevasining anatomik shakllanish darajasi

**Yig'ma mevalar:** Agregat mevalar bitta birikma guldan hosil bo'lgan mevalar turi bo'lib, ularda bir nechta tuxumdonlar mavjud. Shunday qilib, u

mevasiz deb ham ataladigan oddiy mevalar to'plamini o'z ichiga oladi, deb aytish mumkin. Ushbu turdag'i mevalarning keng tarqalgan namunalari – qulupnay, qorag'at va boshqalar.

**Murakkab mevalar** – bir nechta gullarning tuxumdonlari qo'shilishidan hosil bo'lган mevalardir. Bu sintez ko'pincha katta meva hosil bo'lishiga olib keladi. Ko'p mevalar ikkita boshqa nom bilan ham tanilgan: kompozit yoki soxta mevalar. Ushbu toifadagi mevalarning keng tarqalgan namunasi – ananas, tut va boshqalar. Meva anatomiyasi mevaning ichki tuzilishini o'rganadi. U bir yoki bir nechta tuxumdon, perikarp, endokarp, mezokarp va boshqalardan iborat.

Inson ovqatlanishida mevalar juda muhim o'r'in tutadi, chunki ular turli xil vitaminlar, mineral tuzlar, hazm bo'ladigan uglevodlar, organik kislotalar, fitonsidlar va boshqa moddalarning asosiy va ko'pincha almashtirib bo'lmaydigan manbaidir.

Mevalarning tarkibi ularning turiga, naviqa, etukligiga, yig'ish vaqtiga, saqlash usullariga va boshqa omillarga bog'liq. Tekshiruvda kimyoviy tarkibi ham muhim identifikatsiya belgisi hisoblanadi.

Suv yangi sabzavot va mevalarning asosiy tarkibiy qismidir: uning tarkibi 70 dan 95% gacha (yong'oqlardan tashqari) - 5-8%). U o'simlik to'qimalariga shiralilik, elastiklik (turgor) beradi, unda organik va mineral moddalar eriydi. Suv mevalar to'qimalarida turli fermentativ jarayonlarning vosita va faol ishtirokchisidir. Suvning katta qismi erkin holatda bo'lib, u asosan hujayra sharbatida bo'ladi va yangi sabzavot va mevalar suvsizlanganda osongina chiqariladi. Suvning bir qismi (taxminan 20%) bog'langan holatda bo'lib, bug'lanishi qiyindir.

Mevalar ko'p miqdorda suv miqdori tufayli mikroorganizmlarning rivojlanishi uchun qulay muhitni ta'minlaydi, shuning uchun ular tez buziladigan mahsulotlar deb ataladi. Saqlash vaqtida sabzavot va mevalar bug'lanish tufayli ma'lum miqdorda suvni yo'qotadi. Suv yo'qotilishi ruxsat etilgan chegaralardan (asosan 5-7%) oshib ketganda, yangi meva va sabzavotlar quriydi, yangilagini yo'qotadi va sifati keskin pasayadi.

**Minerallar-** mevalarda organik va mineral kislotalarning (fosforik, oltingugurt, tartarik va boshqalar) yaxshi singdirilgan tuzlari shaklida bo'ladi, shuningdek, ba'zi yuqori molekulyar birikmalar - vitaminlar, oqsillar, pigmentlar va boshqalarning tarkibiy qismi bo'lishi mumkin.

**Uglevodlar** – ushbu moddalar bo'lib, ularning tarkibi va o'zgaruvchanligi meva va sabzavotlarning ta'mi, mustahkamligi, saqlanishiga bog'liq. Mevalarning quruq moddalari orasida uglevodlar 90% gachadir.

**Ovqat tarkibiga kiruvchi uglevodlar va ularning funksiyasi.** Uglevodlar tabiatda keng tarqalgan organik moddalar bo'lib, o'simliklar

tanasing quruq og'irligini 70-80% ini, inson va hayvonlar organizmining taxminan 2% ini tashkil etadi. Uglevodlar inson organizmida miqdoran juda oz bo'lsa ham, katta ahamiyatli funksiyalarni bajaradi:

**Energetik funksiyasi** – uglevodlar inson organizmi uchun asosiy energetik modda, chunki organizmning normal rivojlanishi uchun talab etiladigan energiyaning taxminan 60% uglevoldarning organizmda parchalanishdan hosil bo'ladi. Miya faoliyati uchun esa asosiy energiya manbai glyukoza hisoblanadi.


**Plastik funksiyasi** – uglevodlar hujayra membranasi, nuklein kislotalar, kofermentlar, murakkab oqsillar, biriktiruvchi to'qima va boshqalar tarkibiga kiradi.

**Himoya funksiyasi** – uglevoldarga boy so'lak va boshqa shilliq sekretlar qizilo'ngach, oshqozon, ichak, bronxlarning ichki devorlarining turli mexanik shikastlanishlaridan, patogen bakteriyalar va viruslar kirishidan asraydi.

**Boshqaruv funksiyasi** – ovqat tarkibidagi murakkab uglevoldarga mansub kletchatka ichaklarni mexanik ta'sirlantiradi va peristaltikani kuchaytiradi. Shuning uchun ich qotish kuzatilganda tarkibida kletchatkasi ko'p bo'lgan qora non iste'mol qilish tavsiya etiladi.

**Spesifiklik funksiyasi** – uglevoldarning ayrim vakillari qon gruppalarining spetsifikligini ta'minlash: antitelalarning hosil bo'lishi, nerv impulslarini o'tkazish kabi muhim jarayonlarda qatnashadi.

Ovqat hazm qilish jarayonida uglevodlar glyukoza birligining bir birligiga bo'linadi, bu uning qon oqimiga kirishiga imkon beradi va qondagi glyukoza darajasining oshishiga olib keladi. Oziq-ovqat tarkibidagi uglevoldarning qon glyukozasini qanchalik tez ko'tarish tezligi **glisemik indeks (GI) deb ataladi**. Oziq-ovqatlarning GI darajasini tushunish bizga uglevoldarni hisoblash bilan birga diabetni nazorat qilishda yordam beradi (79-rasm).



**79-rasm. Oziq-ovqat mahsulotlarida Glisemik indeks (GI) ko’rsatgichi**

**Organik kislotalar** - mevalarning shirinligi va ta’mi darajasiga ta’sir qiladi. Mevalar odatda sabzavotlardan ko’ra ko’proq kislotali bo’ladi (qutuqqaq, ravon va pomidordan tashqari). Sabzavotlarda o’rtacha 0,1% ni tashkil qiladi. Sabzavot va mevalarda eng ko’p uchraydigan kislotalar olma, limon va tartarikdir. Kamroq va oz miqdorda, oksalat, benzoik, salitsil, amber va boshqalar mavjud.

**Azotli moddalar** - mevalar tarkibida asosan oqsillar, shuningdek, aminokislotalar, fermentlar, nuklein kislotalar va boshqalar shaklida mavjud.


Umuman olganda, mevalardan ko’ra proteinga boy. Mevalardagi oqsillar miqdori kichik, ammo ular yaxshi so’riladi. Eng ko’p (7% gacha) zaytun, (4-5%), yong’oq, ismaloq va karam sabzavotlarida, sarimsoq esa oqsilga nisbatan boy.

**Vitaminlar.** Mevalar C, P, B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, PP, K, E vitaminlari, pantotenik (B<sub>3</sub>) va foliy (B<sub>9</sub>) kislotalar, shuningdek, provitamin A (b-karotin) manbalari hisoblanadi. Vitaminlarning tarkibi mevalarning turiga, etishtirish va saqlash sharoitlariga, etuklik darajasiga va boshqa omillarga bog’liq.

Vitaminlar organizmning normal ishlashi uchun zarur bo’lgan organik birikmalar bo’lib, ular organizm tomonidan ishlab chiqarilmaydi. Quyida inson tanasining sog’lom bo’lishi uchun zarur bo’lgan muhim vitaminlar ro’yxati keltirilgan:

- Vitamin A (retinol)
- Vitamin B<sub>1</sub> (tiamin)
- Vitamin B<sub>2</sub> (riboflavin)

- Vitamin B<sub>3</sub> (nikotinik kislota)
- Vitamin B<sub>5</sub> (pantotenik kislota)
- Vitamin B<sub>6</sub> (piridoksin)
- Vitamin B<sub>7</sub> (biotin)
- Vitamin B<sub>9</sub> (foliy kislotasi)
- Vitamin B<sub>12</sub> (kobalamin)
- Vitamin C (askorbin kislotasi)
- Vitamin D (kalsiferol)
- Vitamin E (tokoferol)
- Vitam K (filoquinon)



### 80-rasm. Vitaminlarning xususiyatlari

80-rasm ma'lumotlariga ko'ra, vitaminlarni ikki toifaga bo'lish mumkin: yog'da eriydigan va suvda eriydigan. Endi manba, fiziologik funksiya va etishmovchilik quyidagicha kiritiladi:

#### Yog'da eriydigan vitaminlar:

**1. Vitamin A.** Uning fiziologik vazifasi - qorong'ida ko'zning ko'rish qobiliyatini saqlash, epiteliya to'qimasining normal tuzilishini saqlab turish, o'sish va rivojlanishni rag'batlantirishdan iborat. A vitamini etishmasligi quruq ko'zni, tungi ko'rlikni, epithelial giperplaziyanı va boshqa alomatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

**2. Vitamin D.** Uning fiziologik vazifasi oziq-ovqatda kaltsiy va fosforning so'rilibishini rag'batlantirish, suyaklarning o'sishi va rivojlanishiga yordam

beradi. D vitaminini etishmovchiligi bolalarni raxitga moyil qilishi mumkin, kattalarda esa osteomalaziya yuqadi.

**3. Vitamin E.** Uning fiziologik funksiyasi normal reproduktiv funksiyani saqlab turish va mushak atrofiyasini oldini olishdir. E vitaminining etishmasligi ehtimoli kamroq.

**4. Vitamin K.** Uning fiziologik vazifasi jigarda trombin va shunga o'xshash narsalarni sintez qilishdir. K vitaminining etishmasligi, qon ketishini to'xtatish oson emas, qon ivish oson emas.

#### **Yog'da eriydigan vitaminlar:**

**1. Vitamin B<sub>1</sub> (tiamin).** Uning fiziologik funksiyasi tanadagi shakarning oksidlanishiga yordam beradi va ishtahani oshiradi. B<sub>1</sub> vitaminining etishmasligi, bir nechta nevrit, beriberi, oshqozon-ichak kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin (81-rasm).



**81-rasm. Vitaminlar organizmga ta'sir xususiyatlari**

**2. B<sub>2</sub> vitamini (riboflavin).** Uning fiziologik funksiyasi biologik oksidlanish jarayonida vodorodni uzatish funksiyasini bajaradigan sariq ferment yordamchi guruhini tashkil etuvchi qismdir. Keratit, glossit, keratit, skrotal yallig'lanishga moyil bo'lgan B<sub>2</sub> vitaminining etishmasligidan kelib chiqadi.

**3. Vitamin PP (nikotinik kislota va nikotinamid).** Uning fiziologik funksiyasi hujayralararo nafas olish uchun zarur bo'lgan I va II kofermentlarning tarkibiy qismdir. PP vitaminining etishmasligi ekdis, dermatit, diareya va nevritga olib kelishi mumkin.

**4. Pantotenik kislota.** Uning fiziologik funktsiyasi koenzim A ni tashkil etuvchi tarkibiy qism bo'lib, hali biron bir nuqson aniqlanmagan.

**5. B<sub>6</sub> vitamini.** Uning fiziologik funktsiyasi aminokislota transaminazasi va dekarboksilaza tashkil etadigan koenzim tarkibiy qismidir. Hech qanday kamchilik topilmadi va uni qusishni to'xtatish uchun ishlatish mumkin.

**6. Folik kislota.** Uning fiziologik funktsiyasi qizil to'pning etukligi bilan bog'liq. Vitamin foliy kislotasining etishmasligi gigant qizil hujayrali anemiyaga olib kelishi mumkin.

**7. B<sub>12</sub> vitamini.** Uning fiziologik funktsiyasi qizil to'pning etukligi bilan bog'liq. B<sub>12</sub> vitaminining etishmasligi makrositik anemiya va xavfli anemiyani keltirib chiqarishi mumkin.

**8. S vitamini.** Ushbu vitamin askorbin kislotasi sifatida ham tanilgan. Uning fiziologik funktsiyasi hujayralararo modda va hujayra metabolizmini shakllantirishda ishtirok etadi. S vitaminining etishmasligi qon ketishini, teri osti qon ketishini va qattiq qichishga olib kelishi mumkin.

**Bo'yoqlar (pigmentlar)** - hujayralar plastidalarida joylashgan (xloroplastlarda, xromoplastlarda va boshqalarda), juda xilma-xil va odatda bir-biriga hamroh bo'ladi. Ular quyidagi guruhlarga bo'linadi: xlorofillar, karotinoidlar, flavon pigmentlari va antosianinlar kiradi.

Bo'yoqlar(pigmentlar) mevalarga ma'lum rang beradi. Antosianinlar mevalarni qizildan to to'q ko'kgacha turli xil ranglarda bo'yashadi. Ular mevalarda to'liq pishganida to'planadi, shuning uchun mevalarning rangi uning darajasining ko'rsatkichlaridan biridir. Karotinoidlar mevalarni to'q sariq-qizil yoki sariq rangga bo'yashadi. Karotinoidlarga karotin, likopen, ksantofil kiradi. Xlorofil meva beradi va barglari yashil rangga ega. Mevalar pishganida (limon, mandarin, banan va boshqalar) xlorofil nobud bo'ladi va boshqa bo'yoqlar paydo bo'lishi tufayli pishgan mevalarga xos rang paydo bo'ladi.

**Lipidlar** - Ko'pchilik mevalarning xamiri tarkibidagi yog' miqdori 1% dan oshmaydi. Yog'lar to'yinmagan, oleyk, linoleik va linolenik kislotalar ustunlik qiladi. Yong'oq (60 - 69%), zaytun xamiri (50% gacha) va dengiz shimoli (8,0% gacha) juda ko'p yog'larni o'z ichiga oladi.

Mevalariga o'ziga xos hid beradi. Ayniqsa, mevalardan - tsitrus mevalarida (limon, apelsin) ko'plab aromatik moddalar mavjud.

Yangi uzilgan mevalar va ulardan qayta ishlangan mahsulotlar inson oziqlanishida salmoqli ulushga ega. Insoniyat tarixining turli bosqichlarida mevalarning qiymati doimo yuqori baholangan. Sabzavot va mevalarning foydali xususiyatlari ularning kimyoviy tarkibiga bog'liq.

### **III-BOB. MEVALI EKLARNING GURUHLANISHI VA ULARNING VAKILLARINING XUSUSIYATLARI**

Ma'lumki hozirgi paytda jahonda jami bo'lib 250-500 ming atrofida yopiq urug'li o'simlik soni aniqlangan degan ma'lumotlar bor (I.Gubanov 1978). Dunyoga tanilgan yirik olim A.L.Taxtadzhyanning ko'p yillik izlanishlari natijasida yer yuzida tarqalgan gulli o'simliklarning umumiyligi soni 240 ming atrofida ekanligi ma'lum buldi. Barcha yopiq urug'li o'simliklar deyarli 13 mingga yaqin turkum, 390 dan ziyodroq oilaga mansubdir. Bularning orasida dunyo bo'yicha keng tarqalgani 30 ming turi murakkab gullilar oilasi hisoblanadi, N.I. Vavilov va uning shogirdlari 1923-1940 yillarda dunyoning 65 ta mamlakatiga 18 ta ilmiy ekspeditsiya uyuştirganlar. Buning natijasida 250 mingdan ziyodroq o'simlik namunasini yig'ib kelishgan. Shulardan 12600 dan ziyodrog'i mevali o'simliklarga tekishlidir. Markaziy Osiyo va Qozog'istonda 7000 ga yaqini respublikamiz hududida 4250 turi tarqalgan. Shulardan 2,5-2,6 mingga yaqini dehqonchilikda foydalaniladigan o'simliklar bo'lsa 25 turi meva, rezavor meva o'simliklari sirasiga kiradi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki o'simliklar olami juda xilma-xildir.

Mevali, rezavor mevali ekin turlari morfologik belgilari, biologik xususiyatlariga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- **Urug' mevali ekinlar (olma, nok behi)**
- **Danak mevali ekinlar (o'rik, shaftoli, tog' olcha, giros)**
- **Yong'oq mevali ekinlar (yong'oq, pekan, pista, bodom)**
- **Subtropik mevali ekinlar (anor, anjir, xurmo)**
- **Sitrus mevalar (banan, apelsin, kivi, lemon, mandarin)**
